

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Qo’lyozma huquqida

UO’K: 821.512.133.09-1

ANKABAYEVA MOHIRA MURADOVNA

XOJAMNAZAR HUVAYDO MEROSINING TASAVVUFIIY TALQINI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun
tayyorlangan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: U.A.Jumanazarov,
filologiya fanlari doktori, professor.

Jizzax-2025

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. XOJAMNAZAR HUVAYDO MEROSINING TAKOMILIDA IJTIMOIIY-TARIXIY VA IJODIY OMILLAR	10
1.1-§. Xojamnazar Huvaydo yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy va adabiy muhiti.....	10
1.2-§. Shoir ilmiy biografiyasini yangidan yaratishning manbaviy asoslari va adabiy merosi ko‘lami	25
Bob bo‘yicha xulosalar.....	45
II BOB. XOJAMNAZAR HUVAYDO ADABIY MEROSINING TASAVVUFIY TALQINI	47
2.1-§. Shoir ijodida Naqshbandiya tariqati g‘oyalarining badiiy ifodasi.....	47
2.2-§. Shoir she‘riyatida tasavvufiy fikrlar talqini.....	68
2.3-§. So‘fiy alloma dostonlarida tasavvuf ta‘limotining badiiy mohiyati.....	84
Bob bo‘yicha xulosalar.....	103
III BOB. HUVAYDO MEROSIDA AXLOQIY-TARBIYAVIY VA BARKAMOL AVLOD HAQIDAGI TASAVVUFIY QARASHLAR TAHLILI	
3.1-§. Shoir merosida axloqiy-tarbiyaviy qarashlar in‘ikosi.....	106
3.2-§. Xojamnazar Huvaydo merosida barkamol avlod haqidagi tasavvufiy tushunchalar talqini.....	120
Bob bo‘yicha xulosalar.....	139
XULOSA.....	140
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	143

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida sharq mutafakkir shoirlari ijodi va adabiy merosini, badiiy-estetik tafakkur taraqqiyotining o'ziga xos manbalarini ilmiy jihatdan ochib berishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ma'naviy merosning xalqchil badiiy namunalarini, buyuk shaxslar ijodi, ular yaratgan asarlarni davr ruhi va talablaridan kelib chiqib o'rganish, ularni amaliyotga tadbiq etish doimo dolzarb ahamiyat kasb etgan. Bu esa dunyo tasavvufiy va madaniy-ma'rifiy hayotiga sezilarli ta'sir etuvchi umumbashariy qadriyatlar, umuminsoniy obrazlar mutasavvif shoir Xojamnazar Huvaydo ijodiyotida o'zining mazmundor va yorqin ifodasining topganligini aniqlash zaruriyatini kun tartibiga qo'yimoqda.

Jahon adabiyotshunoslari tadqiqotlarida Markaziy Osiyo tasavvufiy ta'limoti, tariqatlari (yassaviya, naqshbandiya, kubroviya) tarixi muammolari, o'zbek mumtoz adabiyoti, she'riyati va poetikasini o'rganish bo'yicha muayyan tajribalar to'plagan. Xojamnazar G'oyibnazar o'g'li Huvaydo she'riyatiga e'tibor, tasavvufiy merosi, sharqona ijodiy tajriba takomili va xulosasi keyingi davrlar mumtoz she'riyat uchun barhayot ilhom manbayi hisoblanadi. Shu ma'noda tasavvuf adabiyotiga, o'zbek lirik poetikasiga betakror hissa qo'shgan shoir va adiblarning ma'naviy merosini o'rganish va tadqiq etish bugungi adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridan sanaladi.

Mustaqillik yillarida va undan oldin respublikamizda Xojamnazar Huvaydo ijodi va uning lirik merosi, mumtoz poetikasi tadqiqi borasida ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, shoir ijodining o'rganilmagan, o'z yechimini kutayotgan jihatlar, xususan, tasavvufiy, so'fiyona asarlarini o'rganish masalasi ko'zga tashlanadi. Darhaqiqat, "O'zbek mumtoz adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilish... bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-

amaliy xulosalar chiqarish katta ahamiyatga ega”¹ligi ushbu muammoni chuqur o‘rganish, xususan, shoir merosining tasavvufiy talqini haqida muayyan xulosalar chiqarish, o‘z navbatida, bundan dunyo ilmiy jamoatchiligini xabardosh etish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 19-oktabrdagi PQ-4865-son “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risida” farmoyishi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ilmiy natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish” yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mutasavvif Xojamnazar Huvaydo ijodini tadqiq etishda rus sharqshunoslaridan A.N.Samoylovich, P.A.Falev, M.F.Gavrilov, N.P.Ostroumov, nemis sharqshunosi M.Xartmann² bir qator risola va ilmiy maqolalarini chop ettirgan, Martin Xartmann Berlinda “Huvaydoning

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг “Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари” мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига йўллаган табриги// Халқ сўзи, 2018 йил, 8 август.

² Martin Hartmann. “Der caghataische Divan Huwedas” // Mittheilligen des Seminars fu Orientalischen zu Berlin, jahrgang V. –Berlin, 1902.

chig‘atoycha devoni” asaridan saralab olingan o‘nta g‘azalini tahlil qilib, nemis kitobxonlariga tasavvufiy-so‘fiyona jihatlarini yetkazgan. Rus sharqshunosi M.F.Gavrilov Toshkentda rus tilida chop etilgan “O‘rta osiyolik shoir va so‘fiy Huvaydo”³ risolasida shoirning tarjimai holi, ijodiyoti, islomiy-tasavvufiy qarashlarini tahlil qilgan.

1959-yilda Xojamnazar Huvaydo ijodiy faoliyatini o‘rganishga o‘zbek adabiyotshunosligi e‘tibor qaratdi. M.Afzalov bir ilmiy maqolasida “...shu choqqacha shoir Huvaydo Chimyoniyning ijodi chuqur va atroflicha o‘rganilmaganligini jamoatchilikka bildirdi.⁴ To‘xtasin Jalolovning “Samar Bonu”⁵ asarida Huvaydo shaxsiyati, mutasavvifning hayoti, ijodini o‘rganish yo‘lidagi ilgari surilgan qadam ekanligi ta’kidlandi. Akademik Vohid Zohidov o‘zbek adabiyotshunosligida⁶ Huvaydo ijodini ilmiy ravishda o‘rganishni boshlab bergan olim sifatida e’tirof etildi. Tadqiqotchi Abdusalom Xudoyberdiyev⁷ning filologiya sohasida va Qodirqul Ro‘zmatzodaning falsafa tarixidan⁸ Xojamnazar Huvaydoning hayoti va ijodi bilan bog‘liq dissertatsiyalar himoya qilingan. Nusratillo Jumaxo‘ja⁹, Iqboloy Adizova¹⁰ va boshqalarning Huvaydo merosining ba’zi qirralari haqidagi ishlari e’lon qilingan. Lekin shoir merosining tasavvufiy talqini alohida monografik rejada hanuzgacha ilmiy jihatdan o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Jizzax davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga

³ Гаврилов М.Ф. Среднеский поэты и суфий Хувайдо. –Ташкент: Каргиз, 1927. –67 стр.

⁴ Афзалов М. Хувайдо ва Машраб ижодини атрофлича ўрганайлик. // “Ўзбекистон маданияти” газетаси, 29 июнь, 1959 й. №49 (354)

⁵ Жалолов Т. Самар Бону. – Тошкент, 1963.

⁶ Зоҳидов В. Ҳаётбахш бадиият тароналари. Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975.

⁷ Худайбердиев А. Жизнь и творчество Ходжаназара Хувайдо. Дисс...канд.фил.наук. –Ташкент, 1990.

⁸ Рўзматзода Қ. Хожамназар Ҳувайдо диний-мистик қарашларининг XVII-XVIII асрлар Марказий Осиё тасаввуфи ривождаги ўрни. Фалсафа фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент, 2020.

⁹ Нусратулло Атоулло ўғли Жумахўжа. Хувайдо тасаввуфий шеърларида фалсафий-бадий талқин. // “Шарк юлдузи” журнали. 1998, № 4.

¹⁰ Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. –Тошкент: Фан, 2006.

muvofig 2-son “O‘zbek adabiyoti, adabiy tanqidi tarixi va badiiy mahorat masalalari” (2020–2024) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Xojamnazar Huvaydo mumtoz merosining tasavvufiy talqini, badiiyatining mazmuni va mohiyatini o‘rganish orqali o‘zbek adabiyotidagi tutgan o‘rniga baho berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Xojamnazar Huvaydo yashagan davrdagi ijtimoiy-tarixiy muhit va madaniy-ma’naviy hayotning, mutasavvif, so‘fiy shoir ijodiga ta’siri masalalarini ochib berish;

Xojamnazar Huvaydo hayoti va tarjimai holiga ta’sir qilgan ijtimoiy-tarixiy omillarni aniqlash, so‘fiy shoirning poetik tafakkuri va uning badiiyatini ochib berish;

Xojamnazar Huvaydo she’riyatining tasavvufiy talqinini yoritish orqali naqshbandiya tasavvufiy g‘oyalarining shoir asarlaridagi ustuvorligini dalillash;

Huvaydo she’riyatida tasavvufiy fikrlar talqinini yoritishda davr mistik fikrlari mohiyatini tadqiq etish va Huvaydo dostonlaridagi tasavvuf ta’limotining badiiy mohiyatini ochib berish;

Shoir merosidagi axloqiy-tarbiyaviy qarashlarini adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ilmiy asoslash, barkamol avlod haqidagi tasavvufiy tushunchalar tahlilini amalga oshirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Xojamnazar Huvaydoning “Devon”i, shoirning “Rohati dil”, “Ibrohim Adham” dostonlari, shuningdek, mutasavvifning merosidagi g‘azallari, musabba, musamman va turli janrdagi asarlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini shoirning “Rohati dil”, “Ibrohim Adham” dostonlari talqini, “Devon”i, lirik she’rlari, g‘azalchilik an’analari davomiyligiga qo‘shgan hissassi, tasavvufiy fikrlarning milliy ma’naviy sohadagi ahamiyati, badiiy-poetik tahlillari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tarixiy, germenevtika, tavsiflash, struktural tahlil, nazariy va ilmiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Xojamnazar Huvaydo yashagan Movarounnahr siyosiy muhiti va madaniy-ma'naviy hayotining o'ziga xos xususiyatlari, mutasavvif shoirning tarjimai holi va qoldirgan ijodiy merosi aniqlangan;

Huvaydo asarlarida naqshbandiya tasavvufiy g'oyalarining aks etishi, mutasavvif, so'fiy alloma she'riyatida tasavvufiy fikrlarning ustivorligi aniqlangan, Huvaydo dostonlarida tasavvuf ta'limotining badiiy mohiyati ilmiy-nazariy jihatdan ochib berilgan;

Naqshbandiya tariqatining davomchilaridan Boborahim Mashrab, So'fi Olloyorlarning izdoshi bo'lgan Xojamnazar Huvaydo badiiyatidagi umuminsoniy g'oyalar, tarixiylik, mantiqiylik va zamonaviylik nuqtayi nazaridan o'rganilgan;

Huvaydo merosidagi axloqiy-tarbiyaviy va barkamol inson muammosiga daxldor tasavvufiy tushunchalar tahlili adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Xojamnazar Huvaydo hayoti va ijodiy faoliyatini yoritishda u yashagan XVII-XVIII asrlar Movarounnahrdagi ijtimoiy-tarixiy va ijodiy omillar, madaniyat va ilm-fan ravnaqi, ijod etgan muhitning o'ziga xos g'oyaviy-estetik xususiyatlari haqidagi ilmiy-nazariy mulohazalar, ularni o'rganishga qaratilgan tavsiya va ko'rsatmalar ishlab chiqilgan;

mutasavvif shoir Huvaydoning tarjimai holiga aniqliklar kiritilgan. Xojamnazar Huvaydo adabiy merosining tasavvufiy talqini, xususan, she'riyati va dostonlarining g'oyaviy mundarijasi, yo'nalishlari va badiiyati tahlil qilingan, shoir merosida komil inson muammosi, shoir ijodiga ta'sir ko'rsatgan mutasavvif so'fiylar haqidagi fikrlar yoritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, chiqarilgan xulosalarning ilmiy tahlil, qiyosiy-tarixiy, tavsiflash, sistemali yondashuv, nazariy va yangi badiiy tahlil usullari orqali asoslanganligi, ishonchli tarixiy-adabiy manbalar va ilmiy adabiyotlardan foydalanilganligi, olingan natijalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, naqshbandiya tasavvufiy-badiiy g'oyalarining mazmun-mohiyati, so'fiylik tariqatlarining takomillashuvi, gullab-yashnashi, tanazzuli to'g'risidagi bilimlarni boyitishi, Xojamnazar Huvaydo salaflari va izdoshlari tasavvufiy g'oyalarini o'rganishda nazariy asos bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'zbek adabiyoti tarixi bo'yicha ta'lim tizimining barcha bosqich talabalariga so'fiy, mutasavvif shoirlar Xojamnazar Huvaydo, Boborahim Mashrab, So'fi Olloyor singari salaflarning islom dini, tasavvufi, sulukatning ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlari haqidagi ma'lumotlar bilan ta'minlashda, ularning milliy g'urur, ma'naviy ong va xotirani yuksaltirishda, shuningdek, gumanitar fanlar bo'yicha tayyorlangan o'quv qo'llanmalar, darslik, uslubiy tavsiyanomalarning zaxirasini takomillashtirishda, seminarlar tashkil etishda yordamchi manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xojamnazar Huvaydo merosining tasavvufiy talqini undagi takliflar bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Xojamnazar Huvaydoning merosidagi umuminsoniy qadriyat, tasavvufiy g'oyalar, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar kontekstdagi mulohazalardan, ilmiy metodologik qarashlardan, tegishli taklif va tavsiyalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda FZ–201912258-raqamli “O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” nomli amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti 2024-yil 21-avgust №01–2144 ma'lumotnomasi). Natijada, Xojamnazar Huvaydo merosining tasavvufiy talqini milliy ma'naviyatimiz targ'iboti va tashviqotiga doir tadbirlarida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim va innovatsiyalar vazirligi tizimidagi talabalarning badiiy, ijodiy mas'uliyatini oshirish borasidagi amaliy ishlardagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqish masalalarida muhim manba bo'lib xizmat qilgan.

Xojamnazar Huvaydo adabiy merosining tasavvufiy talqinlariga oid qarashlaridan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy ta’limda amalga oshirilayotgan uchinchi Renessans poydevorini yaratish, ayniqsa, komil va barkamol avlod tafakkurida mumtoz adabiyot namoyondalari va allomalari ma’naviy merosini singdirishga doir ilmiy va amaliy g‘oyalaridan O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan F–7–13–raqamli “Adabiyotshunoslik tarixining fundamental tadqiqi” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan. (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti 20.08.2024. № 04/11–6355 ma’lumotnomasi). Natijada, Xojamnazar Huvaydo badiiyatining shoir she’riyatidagi tasavvufiy talqinlarini oliy ta’lim tizimida qo‘llashga, loyihaning belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma’ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 6 ta ilmiy ish nashr etilgan bo‘lib, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 6 ta, jumladan, xorijiy jurnalda 2 ta, respublika jurnallarida 4 ta maqola nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, 142 betdan iborat.

I BOB. XOJAMNAZAR HUVAYDO MEROSINING TAKOMILIDA IJTIMOIY-TARIXIY VA IJODIY OMILLAR

1.1-§. Xojamnazar Huvaydo yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy va adabiy muhiti

Adib va shoir yashagan zamon notinchliklarga qanchalik boy bo'lmasin, adabiyot, san'at, ma'naviyat va badiiyat o'z o'rnida turg'un to'xtab qolmadi va shu ziddiyatli davrda ham Huvaydo kabi bir qator ijodkorlar faoliyat yuritdilar. Xojamnazar Huvaydo yashagan davrlarda xalqni ekspluatatsiya qilish juda kuchayib ketdi, darbadarlar soni kundan-kun, yildan-yil ortib bordi. Ularni himoya qiluvchi haqgo'ylarning o'zlari ham gadoy, g'arib, qalandarona umr o'tkaza boshladi va buning oqibatida, ko'chaga haydalgan qashshoqlarni himoya qiluvchilar paydo bo'ldi. Himoyasiz xalqning hayotini o'z ko'zi bilan ko'rgan, hattoki, o'z boshidan kechirgan Huvaydo ham zamondoshlarining fojiali hayotini aks ettiruvchi asarlar yaratishga harakat qildi.

Huvaydo ijodini kuzatar ekanmiz, shoir asarlarida Mashrabdagidek himoyasizlar hayoti manzarasi bilan tanishamiz. Qashshoqlar hayotini aks ettirishda, Huvaydo Mashrab ijodiy an'alarini davom ettirganday, adabiyot tarixidagi yetakchi g'oyalardan biri – gumanistik motivlar boyitib borilganday tuyuladi¹¹. Ayni holni boshqa tadqiqotchilar ham alohida qayd etganligini ta'kidlaymiz. Bu boradagi mulohazalarimizni manbalar asosida tahlil qilishga harakat qilamiz.

O'z yashagan davri mojarolarini shoir oshiqning hol-ahvolini yanada yorqinroq ko'rsatish uchun "go'y – chavg'on" o'yinida ishlatiladigan tayoqchadan ashyo sifatida foydalanadi, to'g'rirog'i, oshiqni o'sha tayoqchaga qiyoslaydi va katta bir hodisani qisqa satrlarda aks ettirishga erishadiki, bu hol ijodkorning katta mahoratga ega ekanligini tasdiqlaydi:

Telbalardek har taraf aftonu xezon yugurub,

¹¹Худайбердиев А. Жизнь и творчество Ходжаназара Хувайдо. Дисс...канд.фил.наук. –Ташкент, 1990. – стр. 42.

Go'y – chavgon xurda yanglig' beqaror o'ldum, darig'.¹²

Huvaydo umri davomida zamondoshlarni, jafokash ulug' xalqni himoya qiluvchilar tarafida turadi, ularning dilini og'ritmaslikka chaqiradi. G'ariblarga nisbatan qo'llanilgan xilma-xil nojo'ya harakatlar, barcha gunohlardan eng og'ir, yuzta Ka'ba qurganda ham savobi uning o'rnini qoplay olmasligini baralla uqtiradi:

G'aribni ko'nglini buzmak gunohi beadam erish,

Kaforat bo'lmag'oy yuz Ka'bani qaytib bino qilsang.¹³

Bu misralarni biz o'rgangan ijodkor gumanizmining eng yuksak cho'qqisini ko'rsatuvchi shoh baytlardan birginasi, deyish mumkin. Adabiyotshunos A.Xudoyberdiyevning ta'kidlashicha, "Huvaydo bu darajaga o'z-o'zidan yetgan emas, balki Alisher Navoiy va Mashrab ilg'or adabiy tajribalarini o'zlashtirish natijasidagina yetib keldi."¹⁴

Xojamnazar Huvaydo yashagan va ijod qilgan davr o'zining juda ham murakkabligi va qator fojealarga boyligi bilan turli asarlardan munosib o'rin olgandi. Aslida bu davr Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik avj olgan, ashtarxoniylar sulolasining so'nggi vakili Abulfayzxon (1711-1747) hukumati inqirozga yuz o'g'irgan, chekka viloyatlarda siyosiy boshboqdoqlik va soliqlar zulmidan norozilik kuchaygan, xususan, Chodak (Chust shahridan 30 km sharqdagi qishloq) sayyidlari Buxoro amirligidan mustaqil bo'lgan Farg'ona xonligini tashkil etishga kirishgan, minglar urug'ining eng obro'li zodagonlaridan biri bo'lgan Shohruhbiy ularning yordami bilan Xo'qand xonligini tashkil etgan (1709-y) yillarga to'g'ri keldi.¹⁵ Tarix sahifalari va tarixiy voqelikka nazar tashlaganimizda, o'sha davrdagi mavjud siyosiy tuzum bosimi xalq ommasi qaddini batamom bukkan edi. Tinimsiz urushlar, haddan tashqari og'ir soliqlar, mahalliy hokimlarning beboshliklari ustiga tez-tez bo'lib turgan tabiiy ofatlar

¹² Хожамназар Хувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 56.

¹³ Хожамназар Хувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 86.

¹⁴ Худайбердиев А. Жизнь и творчество Ходжаназара Хувайдо. Дисс...канд.фил.наук. –Ташкент, 1990. –стр. 43.

¹⁵ Рўзमतзода Қодирқул. Хожамназар Хувайдонинг тасаввуфий қарашлари. Монография. –Тошкент: ZIOL BULOQ, 2019. –Б. 11.

(qurg‘oqchilik, hasharot bosishi) ham mamlakatning iqtisodiy ahvolini izdan chiqardi, xalqning ahvolini yanada nochorlashtirdi.

Mana shunday mash‘um holatlar tinimsiz davom etgan bo‘lsa-da, Huvaydo yashagan tarixiy davrda, xususan, Movarounnahrda fan va madaniyat, ijtimoiy-ma‘naviy fikr taraqqiyoti, ularning mavjud zamondoshlariga munosabati o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan holda rivojlandi. Xususan, olim M.Hoshimxonovning qayd etishicha, “Ijtimoiy-ma‘naviy fikr taraqqiyoti va badiiyatida Muhammad Sharif Buxoriy, Abdulg‘oziy, Turdi Farog‘iy, So‘fi Olloyor, Yusuf Qorabog‘iy, Abu Abdullo as-Siyolqutiy, Muhibullo al-Hindiy, Mirzo Abdulqodir Bedil, Vafoiy, Mullo Masti Oxund, Nazr, Ravnaq, Andalib, Roqim, Nishotiy, Mashrab, Huvaydo, Umar, Boqiy va boshqa mutafakkirlar tarixiy-tadrijiy davrning murakkab jaryonida el-yurt nazariga tushgan ilg‘or fan arboblari, atoqli shoir va olimlar, taqdiri murakkab iste‘dodli allomalar edilar. Ular asarlarining tili, ko‘targan g‘oyalari hamohangligiga ko‘ra bir-biriga yaqin turgan maslakdosh edilar”¹⁶.

Qo‘qon xonlari xalqning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy darajasini ko‘tarish choralari izlashgan. Ijodkorlarga rahnamolik qilib, rag‘batlantirishgan. Adabiyot va san‘at rivojiga imkon yaratishgan. Ular vositasida xalqning ma‘naviy kamoliga ta‘sir o‘tkazishgan.

XVIII asr I yarmida Qo‘qon adabiy muhiti tashkil topa boshlagan. Jumladan, bu borada Mirzo Olim “Ansobus-salotin” asarida 1732-1733-yillarda Abdulkarimxon davri haqida shunday yozgan: “Abdulkarimxon... xizmatig‘a eshon, mullo, olim Konibodomiy va domullo, olim Namangoniy kelib suhbat tutar erdilar. Alarning suhbatidan ifoda va istifoda topib, necha umumiy diniy va kashf yaqinig‘a olim va koshif bo‘lib kamolot hosil qildi”¹⁷.

Ba‘zi tadqiqotlarda XVII-XVIII asrlarda ko‘zga ko‘ringan shoirlar yashab ijod etmagan, adabiy-badiiy ijodiyot rivojlanmagan¹⁸, – degan mulohazalar ham

¹⁶ Хошимхонов М. Машраби мўътабар ўзум. –Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. –Б.40.

¹⁷ Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити. –Тошкент: Фан, 1961. –Б. 41. ("Ансобус – салотин, 18-б варақ)

¹⁸ Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити. –Тошкент: Фан, 1961. –Б.45.

uchraydi. Lekin keyingi yillarda olib borilgan qator izlanishlar natijasida bu fikrning biryoqlama ekanligini ko'rsatdi. Biz nazarda tutayotgan tarixiy bir davrda ijtimoiy fikr taraqqiyotiga va badiiyatiga hissa qo'shgan, shoir va adiblar Yusuf Qorabog'iy, Muhammad Sharif Buxoriy, Inoyatullo Buxoriy, al-Hiraviy va Husayn al-Xolxoliy kabi mutafakkirlar yetishib chiqdi.

Faylasuf ibn Muhammad Yusuf al-Qorabog'iy al-Muhammad Shohiy¹⁹ jamiyat ma'naviy hayotida hurfikrlilik g'oyalarini targ'ib etgan yirik olim hisoblanadi. U asli ozarbayjonlik bo'lib, mamlakatni turklar ishg'ol qilgan davrda Movarounnahrqa qochib kelishga majbur bo'ldi va Samarqandda, keyinchalik Buxoroda yashadi.²⁰

Huvaydo yashagan davrdagi ma'naviy hayotning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritilganda, dastlab Muhammad Sharif Buxoriy (1609-1697, Buxoro) to'g'risida muxtasar to'xtalish joiz, deb hisoblaymiz. Uning keng faqatgina ijodida badiiyatga oid bilimlarnigina emas, balki ilmning tarix, she'riyat, huquq, tilshunoslik, adabiyot kabi jabhalarini ham qamrab olingani, uning bizgacha yigirmadan ortiq asari yetib kelganligini ta'kidlash lozim. Masalan, ulardan "Ar-risola ad davriyya" ("Davriylik haqidagi risola") asari Buxoroda yozilgan. Yana "Risolatu istizami davr min tasasul" (Davriylikning muttasillikka zaruriy tobeligi haqida) risolasi shular jumlasidandir. Muallifning yana bir mashhur asari "Takammule at-tatimme" ("Tatimmatul to'ldirilishi") bo'lib, u mazmun-mohiyatiga ko'ra Yusuf Qorabog'iyning "Tatimmatul xavoshi fi izolatil g'avoshi" ("Noaniqlarni tuzatishda hoshiyalarning yakunlanishi") nomli ilmiy-badiiy va falsafiy asariga to'ldirish, sharh tarzida yozilganligini soha ilm ahli yaxshi bilishadi.

Biz nazarda tutayotgan tarixiy bir davrda Abdulg'oziyxon "Shajarayi turk" va "Shajarayi tarokima" nomli katta ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy asarlarni ijod etgan o'zbek tarixnavis olimi, uzoq vaqt Xiva xonligini boshqargan yirik

¹⁹ Нуриддинов М. Юсуф Қорабоғий ва Ўрта Осиёда XVI-XVII асрлардаги ижтимоий-фалсафий фикр. – Тошкент: Фан, 1991. –Б. 42.

²⁰ Нуриддинов М. Юсуф Қорабоғий ва Ўрта Осиёда XVI-XVII асрлардаги ижтимоий-фалсафий фикр. – Тошкент: Фан, 1991. –Б. 46.

davlat arbobi sifatida tanildi. Abulgʻoziyxon nafaqat adabiyotdan xabardor boʻlgan, balki tib ilmini yaxshi oʻrgangan.

Abulgʻoziyxon oliy nasab va toj-u taxt sohibi boʻlgan. U qariyb 20 yil (1644-1664) Xorazmni idora qildi, lekin tarixda oliy hukmdor sifatida emas, balki yirik adib va olim sifatida qoldi. Ilmning xosiyatidan shunday boʻldi. Darhaqiqat, Abulgʻoziyxon keng va chuqur maʼlumotli kishi edi. “Bu faqirgʻa , – deb yozgan edi uning oʻzi, – Xudoyi taolo inoyat qilib koʻp narsa bergan turur. Xususan, uch hunar bergan tutur: Avval sipohiygarlikning qonuni va yoʻsinikim nechuk oʻtlanmoq va yurumak va yovgʻa yosoq yasamoq, koʻp birlan yuruganda nechuk qilmoq soʻzlashmak. Ikkinchi, masnaviyyot va qasoid va gʻazaliyot va muqattaʼot va ruboiyot va barcha ashʻorni fahmlamaklik, arabiy va forsiy va turkiy lugʻatlarning maʼnosini bilmaklik. Uchinchi, odam ahdindin to bu damgacha Arabistonda, Eron va Turonda va Moʻgʻulistonda oʻtgan podshohlarning otlari va umrlarining va saltanatlarining kam yoki ziyodin bilmaklik”²¹.

Abulgʻoziyxonning “Shajarayi tarokima” (1658-1661) asari turkiy qabilalarning, xususan, turkman xalqining kelib chiqishi haqida qimmatli maʼlumotlar beradi. Asarda barcha turklarning afsonaviy podshosi Oʻgʻuzxon va uning avlodi tarixi, shuningdek, turkman urugʻlari (*solur, bayandur, taka, yovmut, Xizr eli, sariq, ali eli, yozir, ersori* va boshqalar)ning kelib chiqishi qisqa tarzda bayon etilgan ²². Ushbu asarning tanqidiy matni, ruscha tarjimai akademik A.N.Kononov tarafidan Leningradda yana bir asari “Shajarayi turk” akademik Boʻriboy Ahmedov soʻz boshisi bilan 1992-yili Toshkentda nashr etildi. Huvaydo yashagan davrning maʼnaviy-ijtimoiy fikr taraqqiyotiga va adabiy hayotiga oz, lekin salmoqli, mazmunli hissa qoʻshgan mutafakkir shoirlardan biri Turdi Farogʻiydir. Shoir oʻz sheʼrlarini koʻp hollarda “Turdi” nomi, baʼzan “Farogʻiy” taxallusi bilan yozgan. U taxminan XVII asrning 40-yillarida tugʻilib, Buxorodagi ashtarxoniylar hukmdorlaridan Nazr Muhammad va uning oʻgʻillari Abdulazizxon hamda Subxonqulixonlarning davrida faoliyat koʻrsatgan. U oʻzbek va fors tillarini

²¹ Абулғозий Баҳодирхон. Шажараи турк. –Тошкент: Чўлпон, 1992. –Б.3.

²² Абулғозий Баҳодирхон. Шажараи турк. –Тошкент: Чўлпон, 1992. –Б.3.

yaxshi bilgan. U “Dar mazammati sipohigari” (“Amaldorlikni mazammat qilish”) she’rida kasb-kori harbiylik bo’lganini, ta’masiz shohlarga xizmat qilsa-da, oxir-oqibatda hech narsaga erisha olmaganligini ma’lum qiladi.²³ Mutafakkir Sharq adabiyotidan xabardor, hayot, jamiyat haqida keng tushunchaga ega edi. Ko’rinib turibdiki, xalqning turli tabaqalaridan ijodkorlar yetishib chiqqan.

Adabiy hayotda ashtarxoniylar hukmdorlar o’z mavqeyini mustahkamlashda so’z ustalari nufuzidan foydalanishga intilib, ularga homiylik qilardilar. Adabiyot, ayniqsa, Subxonqulixon davrida ancha rivojlandi. Bu davrda ijod qilgan shoirlar ichida Turdi Farog’iy (XVII asr) faoliyatini alohida aytib o’tish lozim. O’zbeklarning yuz urug’idan bo’lgan shoir Abdulazizxon davrida ancha nufuzga ega bo’lib, saroy doiralari yaqin turgan bo’lsa, Subxonqulixon bilan ancha zulm ko’radi va xonga qarshi ko’tarilgan qo’zg’olonda ham ishtirok etadi. Undan 400 misradan ortiqroq she’rlar bizgacha yetib kelgan bo’lib, ularda mehnatkash xalq ahvoriga achinish, amaldorlar zulmini qoralash, o’zaro totuvlikka, tinchlikka chorlovchi g’oyalar yetakchi o’rin tutadi. Turdi Farog’iy, ayniqsa, “Tor ko’ngilli beklar”, “Subxonqulixon va uning amaldorlari haqida hajv” kabi she’rlari bilan mashhurdir²⁴.

Fikrimizcha, Turdi chinakam xalqchil shoirdir. Bu davrda ijod qilgan shoirlarning ko’pchiligi nochor ahvolda yashab, o’z mehnatlari bilan kun kechirganlar. Ular ijodida halol mehnat bilan hayot kechirishni targ’ib qiluvchi naqshbandiya tariqatining ta’sirini ko’rish mumkin. Masalan, Buxoroda madrasani tugatib, shu yerda yashab qolgan qarshilik shoir Sayido Nasafiy tikuvchilik qilib kun kechirgan. Uning ijodida turli hunarmandlar mehnatini ulug’lash yetakchi o’rinda turadi. Nasafiydan majoziy uslubda yozilgan “Bahoriyot” asari va ko’plab she’rlari bizgacha yetib kelgan. Butun umr qashshoqlikda hayot kechirgan bu shoir ashtarxoniylar davrida Movarounnahr vayron bo’lgan qishloq holiga kelib qolganligini achinib yozgan edi.²⁵

²³ Хайруллаев М.М. Буюк сиймолар, алломалар. –Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1997. –Б. 42.

²⁴ Сағдуллаев А. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. –Б. 187.

²⁵ Сағдуллаев А. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. –Б. 187.

Turli mavzulardagi ishqiy-sarguzasht, axloqiy-ta'limiy, qahramonlik ruhidagi qissalar: "Qahramoni qotil", "Qissai Jamshid", "Qissai Dilnavoz", "Qissai Ahmadbek va Yusufbek", "Devonai Mashrab", "Ibrohim Adham", "Hazrati Ali qissasi", "Qissai malikai Dilorom", "Qissai Dorobi zarrinkamar", "Jangnomai Suhrobi Yal", "Kitobi podshoh Afrosiyob", "Siyovush qissasi" ana shu xildagi asarlar sirasiga kiradi.²⁶

Huvaydo yashagan davrda Movarounnahrda qisqa tanaffusdan so'ng, Samarqandda ham yana adabiyot yana rivojlana boshladi. Atoqli shoir Maliho Muhammad Bade ibn Muhammad Sharif Samarqandiy o'zining "Muzakkir al-as'hob" (1692) asarida Movarounnahrda 200 ga yaqin shoirning nomini tilga oladi. Shu shoirlarning ko'pchiligi samarqandlik bo'lgan yoki Samarqandda ijod qilgan. Bu mulohazani ayrim ilmiy manbalarga tayangan holda ta'kidlaymiz.

Samarqandda yashagan barcha ijodkorlar o'z asarlarida mehnatkash xalq mafaatlari, ularning nisbatan nafratini aks ettirdilar. Sayido Nasafiyning she'rlarida darvishlar, shayxlar, muttasiblar qarshi qaratilgan ko'pgina satrlar bor.²⁷

Biz nazarda tutayotgan tarixiy bir davrning ijtimoiy va ma'naviy hayotida, shubhasiz, sayyidlar, eshonlar, din peshvolari yetakchi va muhim rol o'ynagan. Islom dini asoslarini chuqur egallash va targ'ib qilish emas, balki ilmni tirikchilik vositasiga aylantirish, murid ovlash, soxta avliyolik asta-sekin islom dini asoslariga jiddiy putur yetkaza boshlaydi. Avom xalqni hidoyat yo'liga boshlash, uning diniy bilim va savodxonligini oshirish emas, balki turli firibgarlik yo'li bilan mol-u dunyo orttirishga intilish ulamolar, shayxlar o'rtasida keng urf bo'la boshlaydi.

Ashtarxoniylar davri – XVII-XVIII asrlarda madaniy va adabiy hayotida tazkiranavislikda ham "Tazkiratul-shifo" (1604-1605) muallifi Mutribiy, "Muzakkirul as'hob"(1692) muallifi Maleho Samarqandiy, "Riyozush-shuaro" (XVII asrning 40-yillari), muallifi Mullo Sodiq Samarqandiy tazkiralari yaratildi.

²⁶ Ҳомидий Ҳомиджон. Кўҳна Шарқ дарғалари. –Тошкент: Шарқ, 1999. –Б. 320.

²⁷ Мўминов И.М. Самарқанд тарихи. – Тошкент: Фан, 1971. –Б. 296.

O'zbek xalqining og'zaki va yozma epik ijodi ko'p asrlik boy tarixga egadir. Bu tarix ibtidoiy jamiyat odamlarining tabiat stixiyalari bilan bo'lgan to'qnashuvlari natijasida vujudga kelgan miflar, sehrli-fantastik ertaklar, tarixiy rivoyat va xronikalar, qahramonlik va hayratomuz romantik eposlar, xalq kitoblarigacha bo'lgan jarayonlarini o'z ichiga qamrab oladi.

G'azalnavislik XVII-XVIII asrlarda ham yetakchi o'rinda edi. Turdi Farog'iy, Boborahim Mashrab, Mavlono Vafoiy, Nodir, Mullo Masti Oxund (XVII), Ravnaq, Roqim, Andalib, Nishotiy, Muhammad Hoksor, Umar Boqiy, Akmal, Nizomiy Xo'qandiy va Huvaydo (XVIII)lar hayot binosi, haqiqatgo'ylik maktabining ilg'or namoyandalari edilar. So'fi Olloyor, Shayx Hasanquli Ahsaniy, Muhammad Tohir Eshon Xorazmiy, Ishratiy Buxoriylar tasavvufiy fikrlarni ijodlarida talqin etgan ijodkor shoir, mutafakkirlardir. Zamon, makon, jamoa, hayot sharoiti taqozosiga ko'ra, qanchalik qarama-qarshiliklarga duchor bo'lmasinlar, ular kelajakka umidvorlik bilan qarab, avlodlarga muhim ma'naviy xazinalarni qoldirdilar.

Yirik huquqshunos olim Nasriddin Buxoriy, musavvir, xattot Muhammad amin, "Oltin Kashmir" qalam sohibi Mavlono Xoja Yodgor kabi faylasuf olimlarning nomi tarixda saqlanib qolgan.

O'rta Osiyoda turkiy tilda so'zlashuvchi o'zbek aholisi va fors tilida so'zlashuvchi tojik aholisini, ularning turmushi, dunyoqarashi, madaniy an'analarini birlashtiruvchi o'zbek xonliklari edi. Fors va arab tillarining nufuzini kamsitmagan holda, maktab va madrasalarda Hofiz, Bedil, Navoiy, Fuzuliy ijodi, ularning ijtimoiy fikr taraqqiyotiga qo'shgan merosi o'rganilardi.

Sobir Sayqaliy Hisoriy o'zbek adabiyoti tarixida alohida iz qoldira olgan iste'dodli shoirlardan biridir. Uning qalamiga mansub "Bahrom va Gulandom", "Razzi ushshuhado", "Ahtamnoma", "Vaysulqaran", "Zaynularab" kabi asarlari mutafakkirning sermahsul ijodkor bo'lganligidan darak beradi.²⁸

²⁸ Ҳошимхонов М. Машраби мўътабар ўзум. –Тошкент: Ноширлик ёғдуси, 2019. –Б. 81.

“Bahrom va Gulandom”ning tojik tilida yaratilgan nasriy qissa holatidagi va doston shaklidagi xillari ham bor. Uning doston shaklidagi namunasi tojik shoiri Muhammad Amin (XVIII) tomonidan yaratilgan.

Sobir Sayqaliy qo‘lyozma asari orasida eng ko‘p tarqalgani – “Qissai Sayqaliy” asari²⁹.

Sayqaliy “Bahrom va Gulandom” poemasida tasvir etgan Rum shahzodasi Bahrom va Chin malikasi Gulandomning bir-birlariga bo‘lgan samimiy muhabbatini hayotbaxsh asosda kuylash bilan birga qahramonlik, mardlik, adolatparvarlik, odamiylik, do‘stlik kabi umumbashariy, xalqchil, insoniy g‘oyalarni ham, o‘z davri hayoti va ijtimoiy masalalari lavhalarini ham ifodalaydiki, bu uning afsonaviy-an‘anaviy mazmun bilan bog‘liq talqinlarni hayot haqiqatlari bilan uyg‘unlashtira olishida chinakam mahoratga egaligidan dalolat beradi.

XVII asrda Samarqand miniatyurasi Movarounnahrda emas, balki boshqa mamlakatlarda ham shuhrat qozongan edi. Samarqandlik musavvir Muhammad Sharif Samarqandiy 1616-yili Shayx Sa‘diyning “Bo‘ston” dostoniga ishlagan to‘rt miniatyuradan birini chizgan. Muhammad Darvish Samarqandiy 1618-yili o‘zining “Doston Zebo Zevar” asariga va Ali Yazdiyning yirik “Zafarnoma” asariga yettita miniatyura chizgan.³⁰

Xalq teatr san‘ati ham rivoj topdi. Movarounnahrning ko‘pgina shaharlarida qo‘g‘irchoq teatri XVII asr oxiridan boshlab tez rivojlandi. Musiqa sohasida usta sozandalar yetishib chiqdi. Mashhur muarrix va shoirlar Binoiy, Hofiz Tanish Buxoriy, shoirlardan Lutfiy, Hasan Ansoriy, xattot Mahmud Is‘hoq, tabib Mavlono Hasan Samarqandiy va boshqalar yetishib chiqdi.³¹

“O‘n ikki maqom” deb atalgan musiqa nazariyasi bo‘yicha ko‘pgina risolalar muallifi Mavlono Kavkabi, musiqa nazariyasiga oid risolalar mualliflari Xo‘ja Muhammad ibn Abul Hasan Samarqandiy, Darvish Alilar musiqa sohasida yirik

²⁹ Соилов С. “Қисси Сайқалий” достони ҳақида.// Ўзбек тили ва адабиёти. 2006, №6. –Б. 86.

³⁰ Ҳошимхонов М. Машраби мўътабар ўзум. –Тошкент: Ноширлик ёғдуси, 2019. –Б. 81.

³¹ Ҳошимхонов М. Машраби мўътабар ўзум. –Тошкент: Ноширлик ёғдуси, 2019. –Б. 81.

nazariyotchilar edi³². Bu davrda Movarounnahr shaharlarida o'ymakorlik, sangtaroshlik san'ati yuqori bosqichga ko'tarildi. Jez va kumushdan ishlangan idishlarga chekilgan nozik naqshlar o'zining yuksak san'ati bilan ajralib turar edi.

XVII-XVIII asrlarda qo'lyozma kitoblar bezak san'ati yuqori darajada edi. Ayniqsa, Buxoro o'zining nafis xattotligi bilan shuhrat qozondi. Abdulazizxonning xattoti Yodgor XV asrdagi mashhur Hirot xattotlaridan qolishmaydigan ajoyib san'atkor edi.³³

To'qimachilik ishlab chiqarishida turli nav va turdagi ip gazlama va shoyi gazlamalar, dasturxonlar, darpardalar ishlab chiqarish rivoj topdi. Buxoro bilan savdo qilgan rus savdogarlarining fikricha, xonlikda xilma-xil shoyi va ip gazmollar ishlab chiqarilgan. Filipp Yefremovning xotira daftarlarida quyidagilar qayd qilingan edi: "Bu yerda ipak qurti boqiladi, bundan ko'pgina ipak olinadi, ipakdan esa zarli va kumushli yo'l-yo'l parchalar, atlaslar, baxmallar, magremantlar to'qishardi, mayda-mayda zar solingan yo'l-yo'l kuntillar va boshqa xil parchalar to'qishadi"³⁴. Samarqandda zardo'zlar, Xorazmda gilam to'quvchilar mahallalari bo'lgan.

XVII-XVIII asrlarda Samarqand yog'ochsozligida turli uy jihozlari tayyorlangan, zargarlar esa xilma-xil oltin, kumush, misdan taqinchoqlar yasashgan. Bo'yoqchilik, sovun pishirish yanada rivojlangan. H.Vamberining yozishicha³⁵, Buxoro va Samarqand qog'ozi Turkistondagina emas, balki turli mamlakatlarda ham ma'lum va mashhur edi. O'sha davrda madrasaning o'quv dasturlarida tilshunoslik, mantiq, din qonunlari (fiqh), qonunshunoslik (shariat), falsafa o'qitilar edi. O'quvchilar hisob bo'yicha to'rt amal, algebra va geometriyaning boshlang'ich qismini ham o'rganishardi. O'qish muddati qat'iy belgilanmagan, 16 yoshdan boshlab, 8 yildan to 15 yilgacha va hatto 20 yilgacha o'qitilar edi. Madrasada juma va payshanba kunlari, ramazon va yoz faslida uch oy ma'ruzalar o'qilardi.

³² Муминова И.. История Узбекистана. –Ташкент: Наука, 1970. –стр. 408-410.

³³ Хошимхонов М. Машраби мўътабар ўзум. –Тошкент: Ноширлик ёғдуси, 2020. –Б. 42.

³⁴ Мўминов И. Самарқанд тарихи. 1-жилд. –Тошкент: Фан, 1971. –Б. 263.

³⁵ Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. –Тошкент, 1990. –Б. 94.

Bu davr boy adabiy jarayonlari haqida fikr yuritilganda, Namangan muzofoti bir qator yirik ilm-fan va ijod ahllarini kamol toptirdi. Yetuk donishmand, mutafakkir, ilohiyot va tasavvuf olimi, bilimdon mudarris va murabbiy Mulla Bozor Oxund XVII asrning ustozi komillaridandir. U o'zbek va fors tillarida she'rlar yozgan. Boborahim Mashrabga ustozlik qilgan.

Xalq og'zaki ijodi bilan yozma adabiyotning o'zaro ta'siri kuchaya borgan. So'z san'ati og'zaki turida ko'plab qo'shiqlar, ertaklar, rivoyatlar, latifalar yaratildi. Nasriddin Afandi latifalari yoniga Shoh Mashrab haqidagi rivoyat va latifalar qo'shildi.³⁶

Olimlarning tadqiqotlarida qayd etilishicha, O'zbekiston hududidagi xonlik va amirlar davrida fan, adabiyot, san'at, ma'rifat birmuncha rivojlangan. Ko'proq xon saroylari doirasida ham diniy, ham dunyoviy adabiy asarlar yozilgan. Bu davrda boshqa ko'plab tarixiy asarlar yaratilganki, biz ularni o'rganishimiz orqali o'tmishni to'g'ri tasavvur qila olish imkoniyatiga ega bo'lamiz... Jumladan, bu paytda Muhammad Yoqubning "Gulshan ul-muluk", Muhammad Mir Olimning "Tarixi amir Nasrullo", Mulla Ibodulla va Mulla Muhammad Shariflarning "Tarixi amir Haydar", Muhammad Hakimxon To'raning "Muntaxab ut-tavorix", Mulla Avaz Muhammadning "Tarixi jahonnomayi", Mulla Niyoz Muhammadning "Tarixi Shoxruhi", Abdurahmon Tolening "Abulfayzxon tarixi", Muhammad Vafo Kirmoniyning "Tuhfai xoniy" kabi asarlari diqqatga loyiqdir.³⁷

Mushfiqiy Buxoro amiri Abdullaxon saroyida "Malik ush-shuaro" unvoniga ega bo'lgan bo'lsa, Fazliy Namangoniy Qo'qon shoirlariga boshchilik qilgan. Umarxonning topshirig'i bilan Fazliy va Mushrif tomonidan "Majmuat ush-shuaro" to'plami tuziladi. Bu davrda ko'plab me'morchilik obidalari quriladi. Xudoyorxonning Qo'qonda qurdirgan saroy arki, Samarqand, Buxoro va Xivadagi turli obidalar shular jumlasidandir. Buxoroda 1753-1754-yillarda qurib bitkazilgan Shayx Jalol madrasasi, 1796-1797-yillarda bino qilingan domla Tursunjon madrasasi, Samarqanddagi Registon maydonining uzil-kesil shakllanishi,

³⁶ Хошимов К., Нишонов С., Ҳасанов М.Р. Педагогика тарихи. –Тошкент: Ўқитувчи, 1996. –Б. 223.

³⁷ Халилбеков А. Наманган адабий гулшани. Наманган: "Наманган" нашриёти, 2007. –Б. 45.

shuningdek, Sherdor va Tillakori madrasalarining bino qilinishi, “Devonbegi” madrasasi, Xivada Arabmuhammad madrasasi (1616), Muhammad Rizobek nomidagi madrasaning bunyod etilishi, yog‘och va misga o‘yib nozik naqshlar solish, sopol va chinni idishlar, yarog‘-aslahalar yasash, har xil matolar to‘qish, gilam to‘qish san’ati, kashtachilik va boshqa xalq hunarmandchiligining rivojlanganligi Markaziy Osiyo xalqlarining o‘qimishli, bilimdon, ilm-ma’rifat fidoiylari ekanligidan dalolat beradi.³⁸

XVII asrning II yarmida yaratilgan tazkiralardan biri shu davrning allomalaridan bo‘lmish Muhammadbade’ Maleho Samarqandiyning “Muzokir ul-as’hob” asaridir. Muhammadbade’ Maleho 1641-yilda Samarqandda tug‘ilib, zamonasining ilmlarini o‘rgangan shoir hamda adabiyotshunos sifatida shuhrat qozongan. Maleho yoshligidan tazkira yozishga intilib, nihoyat 1689-1692-yillar orasida o‘zining “Muzokir ul-as’hob” (“Suhbatdoshlar zikri”) asarini yozgan.

“Muzokir ul-as’hob”da 200 ga yaqin zamondosh shoirlar haqida so‘z yuritilgan. Maleho mazmunli va badiiy yuksak she’rlarni tushunuvchi adabiyotshunos hamda shu tazkiraning birinchi tadqiqotchisi professor A.Mirzoyev iborasi bilan aytganda, XVII asrning yetuk “she’rfahmi va suxansanji” sifatida ko‘rinadi³⁹.

Mutribiy “Tazkiratush-shuaro”da 1566-1605-yillar orasida O‘rta Osiyo, xususan, Samarqand va Buxorodagi madaniy hayotni yoritisa, Maleho Samarqandiy XVII asrning 90-yillarigacha bo‘lgan adabiy va madaniy hayotni yoritadi. Shunday qilib, bular zanjirday o‘zaro bog‘langan tazkiralar turkumini tashkil etadiki, bu tazkiralar turkumi XV-XVII asrlardagi adabiy va madaniy hayot haqida hamda shu davrda yashab ijod etgan 1200 ga yaqin shoir va adabiyot muxlislari to‘g‘risida ishonarli ma’lumotlar beradi, ularning asarlaridan namunalar keltiradi. Shu tufayli ham mazkur tazkiralar turkumi XV-XVII asrlardagi o‘zbek va tojik adabiyoti tarixini har tomonlama yoritishda o‘ta muhim manbalardir⁴⁰.

³⁸ Хошимов К., Нишонов С., Ҳасанов М. Р. Педагогика тарихи. –Тошкент: Ўқитувчи, 1996. –Б. 225.

³⁹ Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. –Тошкент: Ўзбекистон, 1993. –Б. 166.

⁴⁰ Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. –Тошкент: Ўзбекистон, 1993. –Б. 169.

Xojamnazar Huvaydo Boborahim Mashrabning ana shunday g‘oyalarini faol qo‘llab-quvvatladi, ammo ularning yaramas kirdikorlarini oshkora tanqid qilish yo‘lidan emas, balki ularning gunohlarini o‘z gunohlari sifatida fosh qilish yo‘lidan bordi.

Huvaydoga zamondosh Mashrab o‘z g‘azallari, muxammas, mustazod va murabba‘larini oddiy *avom* xalqning didi va saviyasiga mos uslub va tilda yaratdi. O‘z g‘azallarini *esa* qo‘lida sozi (tanbur) bilan xalq orasida kuyladi. Bu qo‘shiq va g‘azallarida Allohga bo‘lgan cheksiz muhabbatini, rostgo‘ylik, mehr-oqibat, hayo, halollik, insof, diyonat, insonparvarlik, odillik, iymon-e‘tiqodni sharafladi. Ayni vaqtda iymonsizlik, razolat, kabihlik, jaholat, ta‘magirlik, kibr, manmanlik, yolg‘onchilik singari illatlarni ayovsiz fosh qildi.⁴¹

Boborahim Mashrab o‘zining butun iste‘dodi, aql-zakovati va hayotini Allohning buyuk mo‘jizasi bo‘lgan hazrati insonning va butun bashariyatning dilini tavof qilishga bag‘ishladi, inson dilini tavof qilishni Ka‘bani tavof qilishdan muhimroq deb bildi. Zero, insonning pok qalbi Allohning makonidir: “Tavofi olami dil qil jahonda har bashardin sen, agar bir dilni buzsang sen yuzar Ka‘ba buzulmasmu?”⁴².

Yana bir ulug‘ alloma So‘fi Olloyorning dunyoviy mansab va hokimiyatdan yuz o‘girishi (o‘g‘liga qilgan nasihatlar⁴³) va hayotining keyingi yillarida Kattaqo‘rg‘ondan bosh olib chiqib, Surxondaryo, Qashqadaryoning tog‘li go‘shalarida yashashi zaminida Bahouddin Naqshband davridagi pok tariqat g‘oyalarini qayta tiklashga intilishini kuzatish mumkin.⁴⁴

So‘fi Olloyor naqshbandiya g‘oyalarini izchil davom ettirdi, ayni vaqtda Muhammad payg‘ambar sunnatlariga yot bo‘lgan soxta tariqatlar (*ravshaniya, xubbiya, abbosiya, avliyoiya, haloliya va h.k.*)ning yaroqsizligini fosh etdi.⁴⁵

⁴¹ Рўзматзода Қ. Хожамназар Хувайдо диний-мистик қарашларининг XVII-XVIII асрлар Марказий Осиё тасаввуфи ривожигаги ўрни. Фалсафа фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент, 2020. –Б. 26.

⁴² Машраб. Девон. –Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. –Б. 221.

⁴³ Сўфи Оллоёр. Саботул ожизин. –Тошкент: Чўлпон, 1992. –Б. 116-119.

⁴⁴ Рўзматзода Қ. Хожамназар Хувайдо диний-мистик қарашларининг XVII-XVIII асрлар Марказий Осиё тасаввуфи ривожигаги ўрни. Фалсафа фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент, 2020. –Б.27.

⁴⁵ Сирожиддинов Ш. Сўфи Оллоёр илоҳиёти. I қисм. –Тошкент: Жамият ва бурч, 2001. –Б. 49.

So‘fi Olloyorning naqshbandiyani ilk davriga qaytarishga bo‘lgan intilishlari Xojamnazar Huvaydoning faoliyati va ijodida to‘laroq ko‘zga tashlandi: u xonlik poytaxtidan olis Chimyon qishlog‘ida Boborahim Mashrab, So‘fi Olloyorning tasavvufiy g‘oyalarini keng targ‘ib etdi, ular g‘oyasini yangicha mazmun bilan boyitdi. Bir tomondan, Allohga bo‘lgan ishq alangasi, jozibasi, iztiroblarini bayon etdi. Zamondoshlarini Alloh ilmi, Payg‘ambar sunnatlariga sadoqatli bo‘lishga, halol, iymon-e‘tiqodli, diyonatli bo‘lishga undadi. Ikkinchi tomondan, Ibrohim Adham, Ibn Muborak, Robiya Adaviya singari so‘fiylarning ilohiy ishq yo‘lidagi jo‘mardligini keng targ‘ib qildi, Allohning karami, Muhammad Payg‘ambarning shafaotidan umidvor bo‘lishga, oxiratda Alloh huzuriga pok ruh bilan borishga, gunohlardan tavba qilishga undadi.⁴⁶

Xudoyorxon zodaning yozishicha, Qo‘qon xonligida Erdonaxon davridan (1751-1758) to Norbo‘tabiy (Abdulhamidxon) davri (1747-1798)gacha bo‘lgan 50 yil mobaynida “Farg‘ona o‘lkasi beasl va benasab bo‘lgan ko‘pgina shayx va sayyidlardan to‘lib ketdi. Har qanday jo‘g‘i, lo‘li yoki biror makkor boshqa joylardan kelib xodiy(yo‘ldan adashganlarga yo‘l ko‘rsatuvchi)lik va sayyidlikka da‘vo qilardi. Bechora nodon xalq bularning ablahona so‘z va nayranglariga ishonib, ularga murid va mulozim bo‘lib olgan edi. Oy va yillar o‘tib, ularning vafotlaridan keyin avlod-u axloflariga juda ko‘p izdoshlar qolib ketardi. Ular shariatga qarshi va noma‘lum bo‘lgan suluk va tariqatlarga erkak-u ayollarni nayrang va shirin so‘zlari bilan da‘vat qilib, tuzoqlariga tushirar edi... Ularning majlis va xilvatdagi o‘tirishlarida fahsh va inkor etilgan ishlar ko‘p sodir bo‘lar ekan. Nafsoniy lazzatlari-yu jismoniy ne‘matlarga berilib, o‘z vaqtlarini shunday komronlikda o‘tkazardilar. Yolg‘on so‘zlari va nayranglarini zamona ablahlari ko‘zi oldida qilu qol va hol deb ko‘rsatib, o‘zlarini oriflarning o‘rinbosarlari va vakillari, pir-u murshidi komil deb, odamlar oldida jilva berardilar”⁴⁷.

⁴⁶ Рўзматзода Қ. Хожамназар Хувайдо диний-мистик карашларининг XVII-XVIII асрлар Марказий Осиё тасаввуфи ривожигаги ўрни. Фалсафа фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент, 2020. –Б. 27.

⁴⁷ Худойорхонзода. Анжум ат-таворих (Тарих юлдузлари). – Тошкент: Фан ва технология, 2014. –Б. 161.

Islom dini asoslarini va tasavvuf tariqatlarini inqirozga mahkum etuvchi bunday illat faqat Xojamnazar Huvaydo yashagan davr uchungina emas, balki XVII asrdagi butun Markaziy Osiyo hududi uchun xos bo‘lib, bunday illatga qarshi Boborahim Mashrab va So‘fi Olloyorning murosasiz kurashganligidan guvohlik beruvchi bir necha adabiy dalillar keltirishimiz mumkin. Xususan, bu o‘rinda, Boborahim Mashrabning yolg‘onchi, sitamgar, ta‘magir sayyidlar, mullo va xoja (eshon)lar qatorida musulmon bo‘lishdan ko‘ra, insof-diyonatli kofirlarga rahnamo bo‘lishni afzal ko‘rishi bejiz bo‘lmaganligini ta‘kidlaymiz:

*Mazlum ellar ingrashib, kim parcha nong‘a zor esa,
Kufr elig‘a Mashrabidek rahnamo paydo bo‘lur.*⁴⁸

Shuningdek, Boborahim Mashrab bilan bir tarixiy davrda yashab, ijod qilgan So‘fi Olloyorning shariatga mutlaqo zid soxta tariqatlarga qarshi ekanligini, uning quyidagi misralari tasdiqlay oladi:

*Alar o‘zlarig‘a orif qo‘yib ot
O‘qurlar omilarga yaxshi abyot...*

Yoki So‘fi Olloyor bunday soxta tariqatchilar bir nechta ekanligini alohida ta‘kidlab yozadi:

*Bo‘lubdur ham taqi bir firqa paydo
Oti mo‘min, vale nafsiga shaydo.*

Xojamnazar Huvaydoning o‘ziga zamondosh bo‘lgan ta‘magir, yolg‘onchi, diyonatsiz va soxta shayxlarga qarshi ularning gunohlari va yomon kirdikorlarini xuddi o‘zining shaxsiy gunohlari sifatida fosh etishi naqshbandiya tariqati g‘oyalariga sodiq ekanlini tasdiqlovchi muhim dalil bo‘la oladi. E‘tibor qilamiz:

*Gunah aylab birikmagan kichikdin to qarig‘uncha,
Xudodin qo‘rqmagan, insofi yo‘q, yuzi qaro kulman.*⁴⁹

Huvaydo faqatgina bu bilangina kifoyalanib qolmaydi, balki u o‘z ilmiga amal qilmaydigan, ikki kunlik dunyo rohati, aysh-u ishrati yo‘lida ta‘magirlik, riyokorlik qiladigan shayx va mullolarni shayton deb ataganligini kuzatamiz:

⁴⁸ Mashrab. Devon. – Toshkent: Faqur Fulum nomiдаgi Adabiёт va san’at nashriёti, 1980. –B. 308.

⁴⁹ Xojamnazar Huvaydo. Devon. Ikkinchi nashr. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. –B. 186-187.

*Du ro'za izzati dunyo uchun, ey xojau mullo,
O'qib ilmingga qilmasang amal monandi shaytonsan.*⁵⁰

Xullas, Xojamnazar Huvaydo o'z zamonasining ilg'or farzandi va ijodkori sifatida tarixiy davr o'rtaga qo'ygan o'ta murakkab muammolarni hal etishga intildi. O'ziga yaqin zamondosh bo'lgan buyuk mutasavvif shoirlar Boborahim Mashrab, So'fi Olloyorning ilg'or tasavvufiy g'oyalarini ijodiy rivojlantirdi.⁵¹

Bu davr adabiyotida naqshbandiya g'oyalarining yana bir izlari Navoiy ijodiyoti, xususan, uning shayxlar tanqidiga qaratilgan g'azallariga javoban yozilgan o'nlab maxsus she'rlarning paydo bo'lganligida ko'rinadi.⁵²

Xorazm adabiy muhitining atoqli namoyandalari (Nishotiy, Munis, Ogahiy) asarlarining mohiyatan naqshbandiya ta'limoti bilan vobastalig' bilvosita — ular badiiy merosining Navoiy poetik an'analari bilan uzviy aloqadorligi, shuningdek, ularning har biri Navoiyni pir va ustod sifatida qayta-qayta e'tirof va ta'kid etganligi asosida idrok etish mumkin.

Xullas, Naqshbandiya tariqati besh asr davomida uzbek adabiyoti turli namoyandalarning ma'naviy tarbiyasi va adabiyotda pandnoma janrining o'ziga xos yo'nalish sifatida tarkib topishida muhim g'oyaviy zamin bo'lib xizmat qilgan.

1.2-§. Shoir ilmiy biografiyasini yangidan yaratishning manbaviy asoslari va adabiy merosi ko'lam

Milliy Mustaqillik va yangi O'zbekiston sharoitida yangicha siyosiy tafakkur sharofati bilan qaytadan o'rganilayotgan Xojamnazar G'oyibnazar o'g'li Huvaydoning boy va serqirra badiiy-poetik merosi mumtoz adabiyotimiz sahifalarida muhim ahamiyatga ega. Aslida u Mashrab dorga osib o'ldirilgandan

⁵⁰ Хожамназар Хувайдо. Девон. Иккинчи нашр. —Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. —Б. 180-181.

⁵¹ Рўздатзода Қодиркул. Хожамназар Хувайдонинг тасаввуфий қарашлари. Монография. —Тошкент: ZIOL BULOQ, 2019. —Б. 11.

⁵² Исоқов Ё. Нақшбандия таълимоти ва ўзбек адабиёти. — Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2002. —Б. 118.

so'ng olti yil o'tgach, 1717-yilda Chimyonda dunyoga kelgan va 1780-yilda shu yerda vafot etgan.

Xojamnazar G'oyibnazar o'g'li Huvaydoning asarlari shoir yashagan davrda ham u o'z zamondoshlari orasida ancha shuhrat qozondi. Huvaydoning qator zamondoshlari, o'z shajarasidan yetishib chiqqan bir qator shoir va shoiralar, shuningdek, so'nggi asrlardagi ijodkorlar ham uning asarlaridan keng ko'lamda bahramand bo'lishgan.⁵³ Biroq o'tgan asrning turli yillarda yaratilgan ayrim ilmiy ishlarda Huvaydoning keng qamrovli falsafiy-ruhiy, adabiy-badiiy dunyosiga, shoirlik mahoratiga ba'zi juz'iy tarzda fikrlar, ijodiy faoliyatiga biryoqlama baho berish holatlari yuzaga kelgan.⁵⁴ Uning shaxsiyati va adabiy merosiga bunday tarzda qarashning ta'siri yana boshqa adabiyotlarda ham ko'zga tashlandi.⁵⁵ O'sha davr adabiy jarayonidagi bunday holatlarni yana "O'zbek adabiyoti" ko'p tomligining uchinchi jildida⁵⁶ "Tanlangan she'rlari" to'plamida, umuman, shoirning alohida nashr qilingan⁵⁷ asarida hayoti va adabiy merosi haqida muxtasar ilmiy ma'lumotlar berilgan, tegishli fikr-mulohazalar bildirilgan boshqa adabiyotlarda ham kuzatildi⁵⁸.

Huvaydo nomi bilan she'r yozgan va keng omma orasida ma'lum bo'lgan shoir Xojamnazar G'oyibnazar o'g'lidir. Shoir XVIII asrda yashab ijod etdi.

Huvaydo Farg'ona vodiysidagi Chimyonda dunyoga kelgan. Maktab va madrasa tahsilini olgandan so'ng, o'zi maktab ochdi, uzoq yillar davomida dars berish bilan mashg'ul bo'ldi.

Huvaydoning qator asarlarining tili juda sodda, mazmundordir, iboralari va fikrlari o'ynoqi hamda jo'shqindir. Shoirida fantaziya va rang-baranglik zo'rdir. Huvaydoning dunyoqarashi ko'p jihatdan juda murakkab va ziddiyatlidir. U

⁵³ Ҳошимхонов М. Машраби мўътабар ўзум. –Тошкент: Ноширлик ёғдуси, 2019. –Б. 86.

⁵⁴ Климович Л.И. Хрестоматия литературы народов СССР. –Москва, 1947, –стр. 442; Брагинский И.С., Мирбадалова А.С. Хувайдо. История литератур народов Средней Азии в Казахстане, Изд – во Московского университета, 1960. –Стр.142; Ўткир Рашид. Уч шоира, –Тошкент,1955.

⁵⁵ Каримов Ғ., Долимов С., Ашрапов А. Ўзбек адабиёти (Ўрта махсус билим юртлари учун дарслик). – Тошкент: Ўқитувчи, 1972. –Б. 104.

⁵⁶ Ўзбек адабиёти, кўп томлик, учинчи том. –Тошкент: ЎзССР Давлат бадий адабиёт нашриёти, 1959. –Б. 353-407.

⁵⁷ Хувайдо. Танланган шеърлар. –Тошкент: ЎзССР давлат бадий адабиёт нашриёти, 1961.

⁵⁸ Жалолов Т. Бону. Тошкент: Ёш гвардия, 1961. –Б. 41-50.; Зоҳидов В., Ғаниева С. Хувайдо. Танланган шеърлар. –Тошкент, 1961. –Б. 3-5. Абдуллаев В.А. Ўзбек адабиёти тарихи, II китоб. –Тошкент: Ўқитувчи, 1964, –Б. 150-153.

deyarli hamisha osmon bilan yer orasida ikkilanadi: goh yerdan xafa bo‘lib osmonga yuz o‘giradi, osmonda osudalik, haqiqat, baxt topmoqchi va topganday bo‘ladi, goho yana yer go‘zalligi, real hayot jozibasi uni o‘ziga tortadi, yerga tushiradi, yer bilan chambarchas bog‘laydi. U, bir nafas ham shod yashamaganligidan falakning zulmidan faryod bilan zorlanadi.

Bunday holat Huvaydo yashagan davrdagi hokim g‘ayri insoniy va juda ziddiyatli sharoitlarda butunlay tabiiy edi.⁵⁹

Huvaydo XVIII asr tasavvuf adabiyoti yirik namoyandasi sifatida tanilgan uning tarjimai holiga e‘tibor qilsak, u Farg‘ona tumanidagi Chimyon qishlog‘ida tavallud topganligini ko‘ramiz. Faxriddin Eshon Xokiy (Huvaydoning chimyonlik chevarasi)ning “Nasabnomai eshon Huvaydo” asarida yozishicha, Huvaydoning ajdodlari asli o‘shlik bo‘lib, otasi G‘oyibnazar eshon o‘ziga pir tutinib, qashqarlik Ofoqxoja (vafoti 1695-yil) dargohiga borgan va o‘ttiz yil uning xizmatida bo‘lib, undan tasavvuf sirlarini o‘rgangan. So‘ng Ofoqxojaning marg‘ilonlik o‘g‘li Xoja Muhyi Ahmad (xalq orasida Poshsho pirim nomi bilan shuhrat topgan) huzuriga keladi. Chimyon qishlog‘ida uy-joy qiladi va uning xonadonida Xojamnazar dunyoga keladi⁶⁰.

Huvaydo o‘zining “Rohati dil” dostonining “Sababi nazmi kitob” bobida o‘zining tarjimai holi haqida quyidagi biografik ma’lumot bergan:

Kaminaning oti Xojamnazardur,

Atosining oti G‘oyibnazardur.

Nasabda O‘shi-yu mavludi Chimyon

*G‘arib-u xoksor-u dil parishon*⁶¹.

Shuningdek, shoir mazkur devonga kiritilgan bir g‘azalida: *Xojamnazar osiyg‘a qo‘ydim Huvaydoni laqab, bul g‘aribi mustamandni shahri Chimyondin tila...*, – deb yozadi.

⁵⁹ Ўзбек адабиёти. Учинчи том. Воҳид Зоҳидов таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон Давлат бадиий Адабиёт нашриёти, 1959. –Б. 353.

⁶⁰ Хожамназар Хувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 3.

⁶¹ Хожамназар Хувайдо. Роҳати дил. –Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1994. – Б. 16.

Afsuski, keyingi yillarda e'lon qilingan ayrim ilmiy maqola, darslik va qo'llanmalarda shoir ismini "Xojanazar", "Xo'jamnazar" tarzida xato yozish hollari uchrab turibdi.⁶² Tadqiqotchilar Huvaydoning tug'ilgan yili noma'lum, deb ko'rsatmoqdalar. Holbuki, Huvaydo ikki g'azalida necha yil umr ko'rganligiga ishora qilib, yozgan:⁶³

*Ellik yashab, oltmishga yetib, zarra amal yo'q,
O'lmak xush erur mangoki, dunyoga to'yibman.
Sochim oqarib, man na ish ettim, ey Huvaydo,
Ilgimni jahon raxtidin emdi yuvibman*⁶⁴.

Yoki:

*Ellik, oltmish yashadim, bir yaxshi toat qilmadim,
Qilg'onim bo'ldi gunoh, birdam ibodat qilmadim.*

Fikrimizcha, "Huvaydoning tug'ilgan yili noma'lum" degan mulohazani aytishdan ko'ra, hozirgacha qilingan va e'lon bo'lgan barcha ilmiy tadqiqotlar natijalariga tayangan holda, Huvaydodan keyin o'tgan olti avlodnig har biri o'rtacha 71-72 yil umr ko'rganligini inobatga olsak, shoir taxminan 1704-yili Chimyon qishlog'ida tug'ilgan, degan xulosaga kelamiz.⁶⁵

Huvaydoning shogirdi Noseh Chimyoniy ulug' ustozining vafotiga bag'ishlab yozgan ta'rix-marsiyasida:

Xirad ustodi ta'rix vafotin

Bitibdur "g'oyib o'ldi qutbi hodiy", – ya'ni Huvaydoning vafot yili hijriy 1195-(milodiy 1780) yil ekanligini aniq ko'rsatgan⁶⁶.

Shoir "Devon"ida berilgan ma'lumotlarga ko'ra, Huvaydo uning otasi G'oyibnazar XVII-XVIII asrlarda Markaziy Osiyo mintaqasida piri komil sifatida katta obro'ga ega bo'lgan. Hidoyatulloh shayx Yusuf o'g'li – Ofoqxojaning muridi, Farg'ona vodiysidagi xalifalardan biri bo'lgan. Kunlardan bir kun

⁶² Хожамназар Хувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 56.

⁶³ Хошимхонов М. Машраби мўътабар ўзум. –Тошкент: Ноширлик ёғдуси, 2019. –Б.86.

⁶⁴ Хожамназар Хувайдо. Девон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 4.

⁶⁵ Хошимхонов М. Машраби мўътабар ўзум. –Тошкент: Ноширлик ёғдуси, 2019. –Б.86.

⁶⁶ Хожамназар Хувайдо. Девон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 56.

Ofoqxoja (rahmatullohi alayhi) o‘z muridiga: “Sen farzand ko‘rsang, otini Xojamnazar qo‘y, mening nazarim andadur”, – deb xushxabar berdilar.

Yorkent va Jung‘oriya (oyratlar yoki qalmoqlar) davlatlarining amaldagi podshohi, eshon Ofoqxoja hazratlari 1693-yili vafot etadi. Oradan 5-6 yil o‘tib G‘oyibnazar o‘g‘il ko‘rib ismini Xojamnazar qo‘yadi. U paytda G‘oyibnazar O‘shda yashar edi. Keyinchalik u Farg‘onaning Chimyon qishlog‘iga ko‘chib kelib, madrasa va xonaqoh ochib mudarrislik bilan mashg‘ul bo‘lgan.⁶⁷

Shoir hayoti bilan bog‘liq ayrim xotiralarda ba‘zi olimlar xalq orasidan yozib olib, nashr ettirgan. Ulardan bittasini keltiramiz: Huvaydo qishloqma-qishloq kezib kelgach, beixtiyor otasi Xojamnazar G‘oyibnazar yo‘liqdi:

– Ha, keldilarmi? – deydi ota.

– Ustidagi bo‘z yaktakni qo‘li bilan g‘ijimlagan Huvaydo yerga tikilganicha turib qoldi. Yuzi qizardi. Otasi yoniga kelib, qo‘li bilan Huvaydoning orqasiga bir-ikki asta urib, so‘ng muddaoga ko‘chdi.

– Hechqisi yo‘q, o‘g‘lim. Ilhom to‘plab kelgan bo‘lsangiz, yangi g‘azallar yozaverasiz... qo‘riqdagi o‘zingiz o‘zlashtirgan yerga bug‘doy ekib qo‘ysangiz, yomon bo‘lmaydi. Don – non ekanligini yaxshi bilasiz, o‘g‘lim. Huvaydo ketmon, bug‘doy hamda choydishni olib, qo‘riqqa jo‘nadi.

Bepoyon qir-adirliklar... Yer betidagi katta toshlarni terib, chetga otdi. U yerga bug‘doyni ixlos bilan sepdi. So‘ng egat oldi. Chanqog‘ini bosish maqsadida choydishga suv to‘ldirib, toshlardan o‘choqcha yasadi. Yantoq, shuvoqlarni terib kelib, choydish ostidan o‘t qaladi va yana ishiga unnab ketdi. Bir zumda egatlarni olib bo‘ldi. Keyin suv taray boshladi. Suv jarlab ketmasligi uchun chim o‘yib, egat boshiga soldi.⁶⁸ Shu payt Huvaydoning ikki o‘rtog‘i kelib qoldi. Choyni birga ichish maqsadida Huvaydo qancha urinmasin, o‘choqdagi o‘t yaxshi yonmadi. Chunki yoqqudek o‘tin yo‘q edi. U noiloj qoldi. Birdan bo‘g‘ilgancha o‘zi o‘ygan bitta chimni olib, o‘choqqa tashlab dedi:

– Ey, chim, yon, chim yon!

⁶⁷ Икромиддин Остонакул. Авлиёлар султони Туронлик валийлар. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2004. –Б. 192.

⁶⁸ Узоқов Х., Дадахўжаев С. Ҳувайдонинг хазон бўлмас баҳори. //Маърифат, 2001 йил 26 май.

Tangrining vojibimi yo falakning gardishi bilanmi chim yonib ketdi. Buni kuzatib turgan o'rtoqlari dong qotib qolishdi... bir zumda choydishdagi suv qaynadi. Qishloqda bu voqea katta shov-shuv bo'lib ketdi. Oxiri qishloq nomi, Huvaydoning "*Chim yon, chim yon*" so'zi o'zaro qo'shilgan holda, "*Chimyon*" nomi bilan bog'lanib qoldi. Aslida o'sha chimda neft qazilmalari mavjud ekanligi aniqlandi. "Qora oltin" buloqlari ko'z ochdiki, bu hozir ham birday otilib turadi...⁶⁹

Huvaydo ta'lim-tarbiyani o'z otasidan olgan. So'ng Qo'qon madrasalarida tahsil olib, o'z qishlog'iga qaytib, mudarrislik qilgan, she'riy ijod bilan mashg'ul bo'lib g'azallar bitgan. Ayni kunlarda *endilikda* shoir devoni muxlislar tomonidan sevib o'qiladi, ajoyib g'azallari hofizlar tomonidan kuylanadi. Adabiyotshunoslik va falsafa fanlarida Huvaydo ijodi tasavvufiy hamda axloqiy jihatdan birmuncha o'rganilgan, ammo naqshbandiya tariqati piri va shoiri sifatidagi qarashlarga jiddiy e'tibor berilgan emas.⁷⁰

Bugungi kunda shoir asarlari to'lasincha o'rganilmoqda. Shoirning o'g'li Xolmuhammad eshon o'z davrining qutbi edi. U zotning o'g'li Mavlaviy Sirojiddin Sirojiy taxallusi bilan bayt-u g'azallar bitgan tariqat yo'lboshchisi edi. U kishining o'g'li Salohiddin Soqibiy hazratlari tariqat piri bo'lib, tariqat amaliyotiga bag'ishlangan risola va qo'lyozmalar yozib qoldirgan musannif alloma edi. Bu buzrukvorlar naqshbandiya tariqati davomdorligi uchun zahmatlar chekib, muridlarga ixlos bilan saboq va tarbiya berib kelganlar. Soqibiyning "Ma'muloti Soqibiy" (Soqibiyning joriy qilinadigan amallari) risolasi naqshbandiya suluki soliklari uchun qo'llanma sifatida yozilgan. Salohiddin hazratlari muridlarga vazifalar berar ekan, o'z fikrining isboti uchun Huvaydo g'azallariga ham ko'p o'rinlarda murojaat etgan.

Xojamnazar otasi G'oyibnazar o'shlik eshonlar avlodidan bo'lib, O'sh shahrida boshlang'ich diniy bilim olganidan so'ng, o'ziga komil pir izlab, ko'p shaharlarni kezadi va, nihoyat, qashqarlik Ofoqxojaning ta'rif-u tavsifini eshitgach, uning dargohiga borib, murid bo'ladi. O'ttiz yil uning xizmatida bo'lib, ma'naviy

⁶⁹ Узоқов Х., Дадахўжаев С. Ҳувайдонинг хазон бўлмас баҳори. //Маърифат, 2001 йил 26 май.

⁷⁰ Узоқов Х., Дадахўжаев С. Ҳувайдонинг хазон бўлмас баҳори. //Маърифат, 2001 йил 26 май. 193.

kamolotga erishgandan so'ng, pirning ijozati va tavsiyasi bilan uning Marg'ilonda eshonlik qilayotgan o'g'li Xoja Hasan Muhyiddin dargohiga keladi. Xoja Hasan Muhyiddin xalq o'rtasida Xojam Poshsho nomi bilan mashhur bo'lib, uning ixlosmand muridlaridan bo'lgan chimyonlik G'oyibnazarga qizini beradi. G'oyibnazar eshon Chimyonning "Ko'rik" mahallasida chimdan uy qurib, shu yerda eshonlik qiladi va 1693-yili Chimyonda birinchi masjid quradi.⁷¹

Xojamnazar Huvaydo o'z ustozlari Boborahim Mashrab, So'fi Olloyordan farqli ravishda ruhoniylar, so'fiy oilasida dunyoga keldi, bolaligidanoq otasi va Xoja Hasan Muhyiddindan barcha diniy ilmlarni puxta egalladi. Lekin madrasa ilmini olgan emas. Uning g'azallarida ana shunga ochiq ishoralar uchraydi: u "Aqoyidxonni ishq", ya'ni ilohiy ishq savodini mustaqil egalladi. Chimyonlik qiz bilan oila qurdi. Birinchi farzandi Xolmuhammad tug'ilganidan so'ng, Huvaydo ilohiy ishq yo'liga kiradi. Buning oqibatida barcha qavm-u qarindoshlari undan yuz o'girib, tamomi begonalar bo'lganligini ro'y-rost yozdi.

Xojamnazar Huvaydo boshlang'ich diniy maktab (dabiston)da toliblarga ilm beradi, hunarmandchilik bilan shug'ullanadi; rasululloh sunnatlari, naqshbandiya g'oyalariga to'la amal qilib, podsholarga yaqin bormay, xonlik poytaxtidan olisdagi chekka bir qishloq – (o'zining ta'biri bilan aytganda) "shahri Chimyon"da xuddi Bahouddin Naqshband singari faqirona hayot kechiradi. O'zining avliyolik sifatlarini odamlarga oshkor qilishni xohlamaydi. Kichik zamondoshi Noseh Chimyoniyning yozishicha, Xojamnazar Huvaydo har doim nafsni ammora va shaytonlarga qarshi murosasiz jang qiladi, Ibrohim Adham singari mard Xudo bo'lishga intiladi. Samarali ijod qilib, o'zidan boy meros qoldiradi. Hijriy 1194- (1780) yili olamdan o'tadi.⁷²

Shoir Huvaydo ijodi yuzasidan tadqiqotlar olib borilmoqda. Huvaydoshunoslik endilikda Amerika qit'asiga ham kirib bordi. AQSh Ohayyo shtati Toledo universitetining "Sotsiologiya va antropologiya" bo'limi rahbari –

⁷¹ <https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-mumtoz-sheriyati/huvaydo/?ysclid=m47h09vacc154536898>

⁷² Рўзमतзода Қ. Хожамназар Хувайдо диний-мистик қарашларининг XVII-XVIII асрлар Марказий Осиё тасаввуфи ривожигаги ўрни. Фалсафа фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент, 2020. –Б. 19.

hozirda Germaniyada yashayotgan doktor Natan Layt o'zining sharqiy Turkiston turk – uyg'ur adabiyotiga oid "Slippery Paths: The Performange and Canonization of Turkic Literature and Uyghur Muqam Song in Islam and Modernity"⁷³ (Sirpanchiq so'qmoqlar: turk adabiyotining taqdimoti va kanonizatsiyasi hamda islomiy va zamonaviy uyg'ur maqom qo'shiqlari) deb nomlangan tadqiqotida Markaziy Osiyo va Qashqardagi turkiy xalqlar adabiyoti va maqom san'atini tahlil etgan. Tadqiqotda Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab, Xojamnazar Huvaydo kabi allomalarning g'azallarini xalq sevib o'qishi va oxundlar tomonidan qayta-qayta kuyga solingani bayon qilingan. Tadqiqotning asosiy qismi turk – uyg'ur musiqa san'ati tahliliga bag'ishlangan. Ammo kuyga she'rlarni tahlil qilish uchun g'azallari xalq orasida eng ko'p tarqalgan shoirlarning ijodiy faoliyati ham keng o'rganilgan. Markaziy Osiyoning qo'shiqnavis shoirlari ijodiga bag'ishlangan. Navoiydan Huvaydogacha bo'lgan ko'plab markaziy osiyolik shoirlarning asarlari kitob uchun manba bo'lgan.⁷⁴

Markaziy Osiyoda XVII-XVIII asrlarda yashab ijod qilgan mutasavvif shoir va avliyolar: Boborahim Mashrab, So'fi Olloyorning tarjimai holiga doir ma'lumotlar birmuncha mavhum va munozarali bo'lgani singari Xojamnazar G'oyibnazar o'g'li Huvaydoning hayoti, tarjimai holiga doir ma'lumotlar ham juda oz va kam bo'lganligi uchun turli munozaralarga sabab bo'lib qolmoqda. Buning sabablarini quyidagi omillar bilan izohlash mumkin:

Birinchi omil: buyuk so'fiy – avliyolar o'zlariga ayon bo'lgan ilohiy ilm va ma'rifatni zamondoshlaridan sir saqlashga, Allohning rizoligi va xushnudligi yo'lida qilgan xayrli va savobli amallarini elga ko'z-ko'z qilmaslikka, kamtarona va faqirona hayot kechirishga intilganlar. Zero, el ko'zi oldida shuhrat qozonishni ofat, deb hisoblaganlar. Muhammad payg'ambar sunnatlariga, naqshbandiya tariqati g'oyalariga, og'ishmay amal qilgan So'fi Olloyor, Boborahim Mashrab

⁷³ Slippery Paths: The Performange and Canonization of Turkic Literature and Uyghur Muqam Song in Islam and Modernity. (Folklore, Indiana University, 1998. Henry Glassie, chair).

⁷⁴ Тоджиходжаев М. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари Мартин Хартманн таржимаси ва талқинида. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.–Тошкент: Баёз, 2016. – Б. 112.

singari Xojamnazar Huvaydo ham zamondoshlariga botiniy olamida ro'y berayotgan tug'yonlari va o'z "Men"ligini oshkor etishni aslo istamagan;

Ikkinchi omil: Huvaydo xonlik poytaxtidan ancha olisda – Farg'ona vodiysining Pomir – Oloy tog' etaklarida joylashgan Chimyon qishlog'ida diniy ilm va tasavvuf g'oyalarini targ'ib etdi va halol mehnati (hunarmandchilik) evaziga kamtarona hayot kechirdi. U Chimyon qishlog'ida muqim yashadi: o'ziga murshid – pir izlab, shaharma-shahar, yurtma-yurt kezmadi. Ehtimol, shu boisdan ham o'ziga tengdosh va zamondosh bo'lgan qashqarlik mashhur olim Muhammad Siddiq Rushdiy (1706–1785-90-yy.)ning "Tazkirat ul avliyoi turkiy" (382 sahifali) asariga kirmay qolgandir.⁷⁵

Uchinchi omil: XVIII asrda mamlakatda avj olgan ijtimoiy-siyosiy beqarorlik va parokandaliklar, zulm va qashshoqlik, ilmsizlik va jaholat ilm ahliga nisbatan loqaydlikni vujudga keltirgan: Huvaydoning o'z so'zlari bilan ifodalaganda "*mardi Xudolarning cho'pcha qadri bo'lmagan*".

To'rtinchi omil: mustabidlik ustiga qurilgan sobiq sho'ro tuzumi sharoiti ilm ahlining, ayniqsa, mullo va eshonlarni o'z yurtidan badarg'a qilish, diniy kitoblarni yo'q qilish siyosati hatto 60-yillargacha davom etgan bir sharoitda Xojamnazar Huvaydoning shaxsi, tarjimayi holi, asarlari haqida zamondoshlari tomonidan yaratilgan manoqiblar qabristonlarga ko'milgan yoki yo'qolgan bo'lishi ehtimoldan uzoq emas.

Beshinchi omil: baxtli tasodif tufayli Huvaydoning shogirdi Noseh Chimyoniy (vafoti taxm. 1798-y.) tomonidan Huvaydo vafotiga bag'ishlab yozilgan "Tarixi vafoti hazrat Eshon Huvaydo (navvarallohu taolo marqadahu marjahu)" asari, Huvaydoning chimyonlik chevarasi Faxriddin Eshon Xokiy (1832-1919) qalamiga mansub "Nasabnomai Huvaydo quddusa sirrihul aziz" asari, shuningdek, Xojamnazar Huvaydoning "Rohati dil", "Sulton Ibrohim Adham qissasi" va devoniga kiritilgan asarlarida berilgan o'z tarjimayi holiga doir

⁷⁵ Икромиддин Остонокул. Авлиёлар султони Туронлик валийлар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004. –Б. 27-37.

ma'lumotlar Huvaydoning tarjimai holini tiklashda asosiy tayanch manbalar hisoblanadi.

Oltinchi omil, tasavvuf an'anasiga ko'ra, buyuk avliyo, so'fiylarning qachon tug'ilganligi va qancha umr ko'rganligi emas, balki Ilohiy ruh bilan qo'shilgan, ya'ni vafot etgan yili, oyi va kuni manbalarda qayd etilgan. A.Knishning ta'kidlashicha, "Buxoro aholisi har yil bahorda Bahouddin Naqshband vafot etgan kunni "iydi guli surx" sifatida bayram qiladilar".⁷⁶

XIX asrda chop etilgan juda ko'p bayozlarda Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mirzo Abdulqodir Bedil, Muhammad Fuzuliy, Boborahim Mashrab singari ulug' shoirlarning asarlari qatorida Huvaydo g'azallariga alohida o'rin ajratilishi, Huvaydo g'azallari mashhur hofizlar tomonidan asrlar osha kuylab kelinayotganligi, xalqimiz o'rtasida navoiyxonlik, mashrabxonlik, bedilxonlik bilan bir qatorda huvaydoxonlik an'analari uzluksiz davom etib kelayotganligi sababli ham ulug' mutasavvif shoirning boy merosini keng qamrovda ilmiy tadqiq etish va undan xalqimizni to'laroq bahramand etish zaruriyati bugungi kunda nihoyatda dolzarb bo'lib turibdi.

To'g'ri, Sobiq ittifoq davrida Huvaydo merosini o'rganish va undan xalqimizni bahramand etishga imkon berilmadi. Shoirning ayrim g'azallarigina ilmiy to'plamlarga kiritilganligidan va ular biryoqlama, zamonaga moslab talqin etilganligidan ilmiy jamoatchilik xabardor, faqatgina milliy Mustaqillik tufayligina ulug' mutasavvif shoirning merosini to'la o'rganish, tadqiq etish, asarlarini chop etish va undan xalqimizni bahramand etish imkoniga ega bo'ldik. Xususan, 1996-yili "Farg'ona" nashriyotida adabiyotshunos olim Ismatulloh Abdullayev tahriri ostida Huvaydoning "Huvaydo qildi ishq" nomli tanlangan asarlari, 2005-yili Toshkentda "Yangi asr avlodi" nashriyotida Huvaydo "Devon"i chop etildi. Mamlakatimizda huvaydoshunoslik bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar e'lon qilinyapti. Iymon-e'tiqodli, ilm-ma'rifatli, yaxshi insoniy fazilatli barkamol shaxsni tarbiyalash, xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Shu boisdan ham hozirgi sharoitda Huvaydoning

⁷⁶ Aleksandr Knish. Musulmon tasavvufi. –Toshkent: Fan ziyosi, 2022. – B. 251.

tasavvufiy qarashlarini ilmiy asosda o'rganish, uning ilg'or g'oyalarini yoshlarimiz ong-u shuuriga singdirish masalalari milliy taraqqiyotimizning bugungi talablaridan biri bo'lib qoldi.

Huvaydo o'z davrining farzandigina emas, balki butun Sharq musulmon olamining ulug' mutafakkiri sifatida milliy ma'naviyatimiz tarixida alohida o'rin tutadi. Chunki uning asarlari xalqimiz tarixidagi eng og'ir va uqubatli davr bo'lgan XVIII asrda ro'y bergan mushkul muammolarni hal etishga, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy tanazzul asoratlarini bartaraf etishga bag'ishlangan edi.⁷⁷

Huvaydoning asarlari xalq orasida mashhur edi. Qashqar, Yorkent, Oqsu, Xo'tan, Balx, Buxoro, Xorazm, Farg'ona viloyatlarida keng tarqalgan. Huvaydo ustozlari g'oyalarini, dunyoqarashini tasdiqlagan, takomilga yetkazgan shoirdir. Uning asarlarida Navoiy, Mashrab, So'fi Olloyor kabi ijodkorlarning ta'sirini yaqqol ko'rish mumkin. Shoir she'riyatida, ayniqsa, mashrabona ruh ustuvor. Uning "O'tti", "O'zum", "Kuyar" radifli g'azallari qofiya va radif uchun tanlangan so'zlar jihatidan ham, badiiyati, mazmun, g'oya va falsafiy dunyoqarash jihatidan ham Mashrab asarlariga juda yaqin. Huvaydo ham olam va odamning mohiyatini teran anglaydi. O'zi bilgan haqiqatlar bilan zamondoshlarini oshno etishga harakat qiladi. Ularning o'z nafslaridan g'olib, kamtar, kamsuqum, qanoatli, muhabbatli ko'rinishni orzu qiladi. Huvaydo insoniyatni barcha ranj-u falokatiga sabab keng ma'nodagi nafs ekanligini e'tirof etadi. Shoir uning qilmishini ajdarhoga o'xshatadi:

Nafsing seni qattig' balo, albatta, urgil poy ang'o,

Har dam seni o'tqa solur, zinhor berma roy ang'o...

O'z royiga qo'ysang oni, bir damda ajdarho bo'lub

*Boshing yutarg'a o'g'ragay, erkingni berma boy ang'o.*⁷⁸

Huvaydodan bizga bir devon meros qolgan. Uning sulolasidan yetishib chiqqan Sirojiiy, Salohiddin Soqib, Samar Bonu kabi iste'dodli shoirlar adabiyotimiz tarixida yorqin iz qoldirdilar. Salohiddin Soqib bobosi merosini

⁷⁷ Хувайдо. Роҳати дил. Иброҳим Адҳам. –Тошкент: Наврӯз, 2011. –Б. 3-4.

⁷⁸ Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. –Тошкент: Фан, 2006. –Б.115.

mukammal devon holida shakllantirib, qayta ko‘chirtirib qoldirgan. Mazkur devon mutolaasidan so‘ng, bizning nazarimizda, Huvaydo g‘azal, mustazod, ruboiy, chiston kabi she‘r turlari, masnaviy singari katta nazm namunalarining mumtoz ustasi sifatida namoyon bo‘ldi. Huvaydo g‘azaliyoti, asosan, oshiqona, orifona ruhdagi g‘azallardan tashkil topgan. Oshiqona g‘azallarda ishqi komil yo‘lida insoniy kamolot sari sabot bilan intiluvchi oshiq kechinmalari va qiyofasi ta’sirchan tasvirlangan. Orifona g‘azallarda esa Huvaydo donishmand faylasuf siymo sifatida gavdalanadi. Bunday g‘azallar insonni ma’naviy kamol toptiruvchi so‘fiyona ma’rifat g‘oyalari bilan yo‘g‘rilganki, buning dalilini tadqiqotimizning keyingi bo‘limlarida alohida tahlil jarayonida kuzatamiz.

Po‘latjon domulla Qayyumovning “Tazkirai Qayyumiy” tazkirasida asli avlodi bo‘lgan Nosehni tazkiranavis muridi sifatida kitoblariga kiritgan: Noseh – bu kishi Farg‘ona shoirlaridan bo‘lub Chimyon qasabasidandur. Huvaydoning muridi ekani unga aytgan tarixidan ko‘rinadur. Vafoti ochiq ma’lum bo‘lmasa ham, Huvaydo bilan zamondosh ekani, bundan keyin qolgani Norbo‘taxon yana 18 yil turdi deganidan ma’lum bo‘lishicha, hijriy ila 1212 (1797-98) hayot ekani anglatiladur. Demak Olimxon vaqtida hayot ekani ehtimoldur.

Eranlar chokarig‘a qul bo‘lolmas

Shohi Chin birla Rumu Qaykubodi

Demas o‘z tab‘idin Noseh bu so‘zni

*Tili-yu qilmag‘uncha fozli hodi.*⁷⁹

Dunyoda Huvaydo nafasi urmasdi shodi,

Hayot, aning bag‘rida ko‘p xori sitam bor...

Ziddiyatlik Huvaydo ijodida keng o‘rin olgan bo‘lsa-da, har holda real insoniy hissiyotlarni tarannum qilish ustun turadi.⁸⁰

Akademik Vohid Zohidov Huvaydo she‘riyatini tahlil qilganida, quyidagilarni alohida ta’kidlaydi: “Huvaydo mamlakat va xalq hayotida amaliy jihatdan faol ishtirok etgan emas. U na saroy bilan bog‘liq bo‘ldi, na mamlakatni

⁷⁹ Қайюмов П. Тазкирайи Қайюмий. –Тошкент: ЎзРФА Қўлёзмалар институти тахририй нашриёти, 1998. –Б. 73

⁸⁰ Хувайдо. Танланган Шеърлар. –Тошкент: ЎзССР давлат бадий адабиёт нашриёти, 1961. –Б. 4.

idora etish ishlariga amaliy aralashdi, na u yoki bu siyosiy harakatlarda qatnashdi. Lekin bunga qaramasdan, u o'z qalami va badiiy ijodi bilan hayotni keng qamrab olishga, har bir muhim masalaga o'z munosabatini bildirishga va shunday qilib, o'z zamonining hozirjavob shoiri bo'lishga intildi. Haqiqatan ham, uning asarlari o'zbek xalqi va vatani tarixidagi ma'lum bosqichning anchagina jihatdan umumlashgan yaxlit badiiy ifodasidir desa bo'ladi. Uning ijodida insonning, xalqning oliyjanob xislatlaridan va vatan tabiati go'zalliklaridan tortib, to davr chirkinliklari, odam qiyofasidagi yovuzlarning razil qilmishlariga qadar butun voqelik o'zining barcha ziddiyatlari, ilg'or an'analari va zaifliklari bilan aks etdi".⁸¹

Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlamoqchimizki, Huvaydo ijodi bilan o'zining zamon zaifliklariga qaramay, qator masalalarda ancha faol uzluksiz rivojlanishda bo'ldi. Garchi u shaxsiy hayotda ba'zan hazin ingrasiya-da, o'z alamini ko'z yoshidan va xilvatdan olayotganday bo'lsa-da, lekin ko'pincha, g'am-anduhga, zulmat bilan qoplangan hayotga, undan dod-faryod qilish ovozlari cho'kib yo'q bo'lib ketmaydi, ijodiy jarayonda balo-yu falokat to'fonlari pishqirayotgan dengizda bir metin qoyadek qad ko'tarib turaveradi, zamon zarbalariga, zo'ravonlar hamlasiga, fitna-fujurlar va munofiqlar xurujiga tik turib javob beradi, o'rni kelganda ularni rad etadi. Ana shunday paytlarda u bo'g'ilgan, yaralangan va zanjirband arslondek na'ra tortib, davrni larzaga keltirganday bo'ladi, uning she'rlari olovga aylanadi.

Huvaydo yashagan tarixiy bir davrni o'zbek xalq tarixida eng zulmatli va qoloq, shafqatsiz va zulmkor davr deyishga muayyan asoslar bor: parokandalik va tarqoqlik, xonlarning, amir va beklarning boshboshdoqligi, tiyiqsiz va halokatli nizolari, jaholat va razolat juda kuchayib ketdi. Xalq va mamlakat ahvoli nihoyat darajada og'irlashdi va ular hayotidagi ijtimoiy fojia nihoyasiga chiqdi. Bularni Huvaydoning katta zamondoshi isyonkor Mashrabning:

Dili tig'i sitamdan pora bo'lgan xalqni ko'rdim,

⁸¹ Зоҳидов В. Ҳаётбахш бадият тароналари. –Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. –Б. 138.

*Tani dard-u alamdan yora bo'lgan xalqni ko'rdim*⁸², – deb nola qilishida, shoirning kichik zamondoshi Maxmurning:

Xalqni ko'rsang agar, o'lasi-yu, qoqu, xarob,

Ochligidan egilib qomati misli kamalak.

Ajrig' tomirini o'g'irda mayda tuyub,

*Qaynatib kunda ichar, otini derlar sumalak,*⁸³ – kabi misralar mazmunidan ham bilib olsa bo'ladi.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash lozim: Xojamnazar Huvaydo o'zining ma'naviy-intellektual salohiyati, badiiy mahorati va ilg'or ma'naviy-irfoniy qarashlari bilan milliy mumtoz adabiyotimiz sahifalariga yangicha mazmun va g'oya olib kirdi, uning ravnaqiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. U tasavvufning insonparvarlik, ma'rifatparvarlik g'oyalarini keng targ'ib etishda she'riyatning barcha imkoniyatlaridan mohirlik bilan foydalandi, komil inson shaxsini shakllantirishdek g'oyat muhim va murakkab masalaga, poetik ruhda yangicha yondashdi.

Huvaydoning badiiy-falsafiy merosi, tasavvufi shu qadar boy va ko'pqirraliki, buni adabiyotshunos To'xtasin Jalolov g'oyat o'rinli ta'kidlaydi, “uning ijodi to'g'risida yirik asar yaratmay turib, talabchan o'quvchini qoniqtirish amri maholdir”⁸⁴.

Huvaydoning ijodiy merosi XX asr boshlarida G'arb olimlarining e'tiborini jalb etgan va ana shu qiziqishning ilk samarasi sifatida nemis sharqshunosi Martin Xartmann⁸⁵, rus sharqshunosi M.F.Gavrilov⁸⁶larning tadqiqotlari dunyoga kelgan.

XX asr boshlarida Huvaydo kulliyotining “Kitobi eshon Huvaydoyi Chimyoniy” nomi bilan Istanbul, Qozon va Toshkent bosmaxonalarida ko'p marta nashr qilinishi va g'azallari barcha mo'tabar bayozlarga kiritilishi ham xalqimiz

⁸² Хожамназар Хувайдо. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. –Б. 23.

⁸³ Махмур. Девон. –Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. –Б: 29.

⁸⁴ Жалолов Т. Самар Бону. –Тошкент: Ёш гвардия, 1961. –Б. 12.

⁸⁵ Hartmann Martin. Huvaydoning chig'atoycha devoni / nemis tilida/. –Berlin, 1902.

⁸⁶ Гаврилов М.Ф. Среднеазиатский поэт и суфий Хувайдо. –Тошкент, 1927.

tomonidan Huvaydo g'azallarining katta qiziqish va tashnalik bilan mutolaa qilinganligidan guvohlik beradi.

Huvaydo o'zining hayoti va faoliyatida barcha zamondoshlarini, beva-bechora, miskinlar manfaatini himoya qildi, bir g'arib ko'nglini shod qilishni, mashaqqat chekib Ka'bani ziyorat qilishdan afzal deb bildi. Buni uning quyidagi misralaridagi mazmunidan ham kuzatamiz:

*Bir g'arib ko'nglini shod aylasang,
Yo'l bosib, Ka'ba sari bormoq abas.*⁸⁷

Huvaydo she'rlarini o'rganar ekanmiz, dastaval, ularda axloq-odob, ma'naviyat, ma'rifat va tarbiya masalalari alohida o'rin tutganligini, xususan, shoir halollik, poklik, rostgo'ylik, taqvodorlik, birovning haqiga xiyonat qilmaslik, yetim-yesir, kambag'al-miskinlarga shafqatli bo'lish, xayr-u saxovatli bo'lish kabi eng oliyjanob insoniy fazilatlarni targ'ib va tarannum etganligini kuzatamiz. Nopoklik, maishiy buzuvchilik, kazzoblik, firibgarlik, o'g'rilik, laganbardorlik, ayniqsa, kibr-u havo, mutakabbirlik, zinokorlik singari jirkanch illatlarni qattiq qoralaganligiga guvoh bo'lamiz. Huvaydo inson hayotidagi ijobiy va salbiy xususiyatlar haqida yozar ekan, ularning oqibatini ko'rsatish uchun Qur'on va hadislardan dalillar keltiradi.

Huvaydo so'fiy shoir, hayotini halol mehnati bilan, toat-ibodat bilan o'tkazgan valiy, komil, taqvodor inson.⁸⁸ Huvaydoning otasi – G'oyibnazar so'fiy o'z davrida Sharqiy Turkistonda – Qashqarda mashhur bo'lgan Hidoyatullo – Ofoqxoja eshonning muridlaridan biri bo'lib, oilasi bilan Chimyonga kelib qolgach, u yerda masjid va xonaqolar qurdirgan, eshonlik qilgan, – deb qayd etgan R.Orzibekovning ta'kidlashicha, Huvaydo eshonlar oilasida tarbiya oladi, avval ibtidoiy maktabda va keyin Qo'qonda madrasada tahsil ko'radi. Otasi vafotidan so'ng maktab va xonaqolarda maktabdor domla sifatida yoshlarga saboq o'rgatadi. Huvaydo eshon sifatida yuksak obro'-e'tiborga ega bo'ladi. Chimyon, Farg'ona, Vodil manzilgohlari aholisi, ayniqsa, keksalari orasida Huvaydoning avliyosifat

⁸⁷ Хожамназар Хувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. –Б. 3-4.

⁸⁸ Хожамназар Хувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. –Б. 31

xislatlari, pok e'tiqodi, ayrim karomatlari haqida ajoyib naqlar, rivoyatlar mavjud. Uning ta'lim-tarbiya sohasidagi ishlari to'g'risida zamondoshi Noseh yozib qoldirgan quyidagi misralar bu fikrlarni tasdiqlaydi:

*Tutib suhbat davom umri boricha,
Bayoron ta'lim erdi fikri yodi.
Dabistonda sa'y aylab tun-u kun,
Yozilgan necha tolibning savodi...*⁸⁹

Shoirning devonida axloqiy-didaktik mazmunidagi "Rohati dil" manzumasi ham berilgan. Huvaydo "Rohati dil" asarini avval nasrda yozib, so'ng nazmga aylantirganini alohida ta'kidlaydi:

*Kitobim oti erur "Rohati dil",
Erur har bir so'zi tanbehi g'ofil.
Ko'ngulning shahri sori azm qildim,
Kitobim nasr erdi, nazm qildim.*⁹⁰

Mazkur kitobning 143-varag'igacha, o'rta qismlarida Huvaydoning deyarli oshiqona, orifona, rindona g'azallar, mustazodlari keltirilib, so'ngra muxammas (143-146), musaddas (146-147), musabba (147-148), musamman (148-151), musta'i (151-152), muashshax (152-154), murabbaot (159-165), ruboiyot (165-169) hikoyatlari, jumladan, masnaviy shaklida ishlangan "Rohati dil" manzumasi darj etilgan.

Huvaydo devonining 25-betidagi: "*Chu mandin qolsa dedim yodgore, kitobim ketsa har shahr-u diyore*", – misralaridan ma'lum bo'ladiki, u o'z asarlarining aholiga keng qamrovda tarqalishini istagan. Shoir "Rohati dil" asarini tojikcha nazmda ham yoza olgan. Ammo o'zi yashab turgan muhitdagi Chimyonning aksari kishilari "turkixon" (o'zbekcha o'qishga moyil) ko'proq o'zbek tilida gaplashadigan odamlar bo'lganligi uchun o'z fikrlarini kengroq yoyish maqsadida manzumani ham o'zbek tilida yaratishlikni ma'qul ko'rgan:

Bu Chimyon shahrining pir-u javoni

⁸⁹ Орзибеков Р. Адабий меросимиз сеҳри. –Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2006. –Б.117.

⁹⁰ Хожамназар Хувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. –Б. 59.

*Tamomisi erurlar turki xoni,
Alar tojik so'ziga behunarroq
Dedim bo'lsa kitobim turki behroq.*⁹¹

Huvaydo adabiy merosining badiiyati mohiyatiga kelganda, shuni qayd qilmoq lozimki, u XVIII asr o'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos mavqega ega bo'lgan, dunyoqarashi va ijodi qarama-qarshi qutblardan iborat shoirlardan biri sanaladi. Uning asarlarida Xudo va payg'ambarlarga atalgan hamd va na't, chahoryorlarga e'tiqod, ro'za, namoz, toat-ibodat, haj, zakot kabi islom taomillariga, jannat va do'zax haqidagi diniy aqidalarga dildan ishonish kabi fikrlar anchagina o'rin olgan. U xuddi Boborahim Mashrab singari o'z maqsadiga erisholmay, halovat ko'rmay, notinch sharoitda umr o'tkazib, zolimlik va mazlumlik, davlatmandlik va xorlik, behudlik va beparvoliklarining ijtimoiy sabablarini axtarib topolmaganligi bois turli-tuman murakkab ijtimoiy voqealarning sinfiy mohiyatini anglay olmaydi, oqibatda, u xudojo'ylik, vaqti-vaqti bilan badbinlik mayllariga ham berilib ketadi. Uning ijodidagi bu noqis jihatlardan o'z manfaatlari yo'lida foydalanmoqchi bo'lgan hukmron ijtimoiy guruhlar Huvaydoni xalq ko'ziga islom aqidalarining maddohi, shayx-u zohid kuychisi, tarkidunyochi, tasavvuf adabiyotining barkamol namoyandasi sifatida ko'rsatishga, keng jamoatchilik o'rtasidagi shuhrati va obro'sidan foydalanishga harakat qilib kelganlar. Ular manfaati uchun hikmat izlagan shoirlar esa Huvaydoning diniy ruhda yozilgan g'azallariga nazira va tazmin muxammaslar bitgan (Haziniy Xo'qandiy, Muxlis, Shavqiy Namangoniy)⁹². Lekin, bizning nazarimizda, undagi bu ojiz tomonlarini, shoir yashab ijod etgan ijtimoiy-tarixiy sharoit tug'dirganligini, u islom dini ta'siri kuchaygan, darveshlik, qalandarlik kayfiyatlari ijtimoiy ongga o'z ta'sirini zo'raytirayotgan bir davrda hayot kechirganligini, dindorlar muhitida tarbiyalanganligi ta'sirida zohir bo'lganligini nazarda tutib izohlashga to'g'ri keladi. Ammo Huvaydo xalq orasida ham bo'lganligi bois, xalqning sermashaqqat hayot tarzi ham uning ko'z o'ngida

⁹¹ Хожамназар Хувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. –Б. 39.

⁹² “Баёзи Ҳазиний” типолитография. –Тошкент, 1911, 3-варақ. Баёз. Қўлёзма, ЎзФАШИ. Инв. № 4184, 184 – варақ: “Тухфатул Обидин ва унсул ошикин”, Баёз литография, 84-варақ.

gavdalangan. Zolim kim-u, mazlum kim? Adolatsizlik hukmron ekan, adolat zahmatdan qutqarib, ma'rifat, madaniyatga boshlash yo'llari bormikan, qabilidagi muammolar ham uni chulg'ab olgan, o'z tushunchalari doirasida ular haqida qalam tebratgan.⁹³

Shoir ilgari surgan, aytmoqchi bo'lgan fikrlarning eng yuqori cho'qqisi Ibrohim Adham hikoyatida mujassamlashgan. Undagi mazmun sayyor syujetga asoslangan. "Ibrohim Adham hikoyati"da – behad mol-dunyoga ega bo'lgan, boylik, toj-u taxt, rohat-farog'atda yashashdan voz kechib, faqirlik yo'lini tanlagan Balx hokimi qissasi hikoya qilinadi. O'zbek mumtoz adabiyotida bu mavzuni yorituvchi ko'p asarlar yaratilgan. Huvaydo ana shu an'anaviy hikoyatni o'ziga xos uslubda yangi tuyg'u va kechinmalar, yangi ruhiy manzaralar tasviri orqali ifodalashga erishgan. Unda faqat Ibrohim Adham emas, balki bir qancha timsollar ishtirok etgan. Ayoli Zulhayo va o'g'lining ham ichki iztiroblari tasvirga olingan. Qisqa satrlar orqali bo'lsa-da, cho'pon va tuyakash timsollari ham o'z chizgilariga ega. Qissa qahramonlarining tabiati ularning o'z so'zlari, dunyoqarash va hayotiy falsafalari vositasida yoritib berilgan. Jumladan, quyidagi bir bayt Ibrohim Adham tutgan maqom haqida tasavvur bera oladi:

*Seni deb taxt-u baxtimni kechibman,
Ki, men vahdat sharobidan ichibman.*

Bu so'zlardan Alloh yodi uchun taxt-u baxtidan voz kechgan, ilohiy birlikka musharraf bo'lgan muqaddas oshiq ma'naviyatini anglash mumkin.⁹⁴

Mustaqillik sharofati bilan qaytadan kashf etilayotgan xalqimiz ma'naviyatining azim va hayotbaxsh sarchashmalaridan biri Xojamnazar G'oyibnazar o'g'li Huvaydoning boy ijodiy merosidir.⁹⁵ Huvaydo o'zbek mumtoz adabiyotining yirik va serqirra ijodkorlaridan bo'lib, asarlari uning hayotligida ham, keyingi asrlarda ham xalqimiz orasida keng tarqalgan. Shoir Ahmad Yassaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy hamda Boborahim Mashrab kabi

⁹³ Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. III том. XVI асрдан XVIII асрнинг 70-йилларигача. –Тошкент, 1978. – Б. 371.

⁹⁴ Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. –Тошкент: Фан, 2006. –Б.121-122.

⁹⁵ Хожамназар Хувайдо. Девон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 3.

buyuk mutasavviflar an'anasini davom ettirib, ularning ijodidan ilhomlanib, tasavvufona asarlar yozgan.

Garchi Huvaydo hayotligida devon tartib etmagan bo'lsa-da, bu xayrli ishni uning avlodlari oxiriga yetkazdilar. Shoirning chevarasi Hoji Salohiddin Soqib va Mirza Hakim ibn Marg'iloniylar tartib etgan Huvaydo devoni boshqa mualliflar tuzgan devonlarga nisbatan to'liqroq va mukammalroq hisoblanadi. Bu devonga shoirning 351 g'azali, 28 ruboiysi, 41 to'rtligi, 3 muxammasi, 1 musaddasi va 3 masnaviysi kiritilgan⁹⁶. Ammo I.Abdullayev va Q.Ro'zmatzoda nashrga tayyorlagan Huvaydo devonida yozilishicha, Salohiddin Soqib tomonidan tartiblangan va Muhammad Shohmurod kotib ko'chirgan hamda Toshkentda 1907-yilda chop etilgan devonda shoirning 374 g'azali, 100 dan ortiq murabba va ruboiysi, 3 ta muxammasi, bir musaddasi, bir musammani hamda 2 mustahzodi jamlangan.⁹⁷

Huvaydo asarlari o'z vaqtida qo'lyozma shaklida keng tarqalgan, bayozlarga kiritilgan. Uning she'rlar devoni qo'lyozmalari respublikamiz va Yaqin Sharq mamlakatlari kutubxonalarida saqlanadi. Birgina O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida shoirning quyidagi raqamlardagi: 12312, 9927, 11513, 7522, 7486, 6957, 9817, 7154 yettita qo'lyozma devoni saqlanmoqda.

Shoirning avlodlarga qoldirgan boy merosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmay, tobora qadrlanib bormoqda. Uning g'azallari Markaziy Osiyo hamda turkiy xalqlar yashaydigan boshqa o'lkalarda sevib o'qiladi. Hozirda vatanimiz va xorijda ko'plab huvaydoshunos olimlar shoirning adabiy merosi yuzasidan tadqiqotlar olib bormoqdalar.⁹⁸

⁹⁶ Ўзбек адабиёти тарихи. 3-том. –Тошкент: Фан, 1978. –Б.370.

⁹⁷ Хожамназар Хувайдо. Девон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 13.

⁹⁸ Жумахўжа Н. Хувайдо меросининг маънавий-маърифий моҳияти. –Тошкент: Маънавият маркази, 1995; Жумахўжа Н. Хувайдо тасассуфий шеърларида фалсафий-бадий талкин.// –Тошкент: Шарқ юлдузи. №4, 1998; Зоҳидов В. Ҳаётбахш бадиият тароналари. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1995; Зоҳидов В. “Шоми ғариб”, шаккок ва исёнкор шоир.// “Ҳаётбахш бадиият тароналари”. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975; Худайбердиев А. Жизн и творчество Ходжаназара Хувайдо.// Ўзбек адабиёти тарихи, –Тошкент: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2006. –Б.114-126; Абдуллаев В. ва б. Хувайдо.// Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 3- жилд, –Тошкент: Фан, 1978. –Б. 370.

Huvaydo she'riyatidagi ilg'or axloqiy-didaktik g'oyalar, yuksak badiiy san'at vositalarining qo'llanishi, islomiy bag'rikenglik va umuminsoniy qadriyatlarning ulug'lanishi nafaqat Sharq adabiy olamida, balki G'arb ilmda ham turli tadqiqotlarga manba bo'lmoqda. Uning asarlari bir qator xorijiy tillarga o'girilgan.⁹⁹

Xojamnazar Huvaydoning Allohni dildan sevishni, uning oldida gunohkor bo'lib qolmaslikni tashviq etuvchi she'rlari bilan birga, real sevgini, oshiq-u ma'shuqalarning orzu-maqсадlarini, shirin xayol va iztiroblarini, insonning hayotdagi o'rnini go'zal tarzda ifodalovchi she'rlari ham ko'pdir. U XVIII asr Farg'ona vodiysidagi adabiy hayotda o'z davrida ro'y bergan voqealarga naqshbandiya qarashlariga tayangan holda, o'z ko'zi bilan qaragan, ham “dil ba yor, ham dast ba kor” yo'lida mushohada etgan zabardast shoir sifatida namoyon bo'ladi. Huvaydoning naqshbandiylik ruhi bilan sug'orilgan hayotbaxsh asarlaridagi sog'lom an'analar uning avlodiga mansub shoirlar hamda XVIII-XIX asrlarda Farg'ona vodiysida, undan tashqarida mashhur bo'lgan Amiriy, G'oziy, Muqimiy, Furqat, Muhyi, Kamiy, Yusuf, Saryomiy, Haziniy kabi iste'dodli shoirlar ijodida davom ettirildi.¹⁰⁰

Xojamnazar Huvaydo jamiyatdagi odamlarni ikki guruhga – odamiy va noodamiylarga ajratadi. Beg'arazlik bilan kishi aybini aytib, uni odobli va odil bo'lishga undovchilarning uzatgan qadahida “zahr” bo'lsa ham, bu xil kishilarning so'zini “qand-u asal” deb bilish kerak deydi:

Zahr oyog'in so'nsa, doim bil qand-u asal,

*Zahrdin batdar erur ichsang asal nodon bilan.*¹⁰¹

Aqlli, farosatli va oqko'ngil kishilar doimo odamlardagi nuqsonlarni aytib, uni xato qilmaslikka, rostgo'y bo'lishga tashviq qiladi, bundan to'g'ri yo'l ko'rsatgan kishilarning so'kishi ham, urishi ham foydali, chunki bu toifadagilar adashishdan saqlaydi:

⁹⁹ Тоджиходжаев М. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари Мартин Хартманн таржимаси ва талқинида. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.—Тошкент: Баёз, 2016. — Б. 111.

¹⁰⁰ Орзибеков Р. Адабий меросимиз сеҳри. —Самарқанд: Самарқанд Давлат университети, 2006, —Б.126.

¹⁰¹ Хожамназар Ҳувайдо. Девон. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. —Б. 21.

*Ursa, so 'ksa mardi dono, olma ko 'nglingga garon,
Chopsa nodon jondin o 'tgay bir guli xandon bilan.*¹⁰²

Bunda shoir nodon bilan dononi bir-biriga qarama-qarshi tasvirlab, odil va noodil kishilarning turli xarakterli belgilarini ochib beradi. Vaholanki, har kim o'z holiga qarab ish tutsa, pushaymon bo'lmaydi.

Shunday qilib, Huvaydo – mustaqil ovoz va uslubga ega bo'lgan talantli shoir. U badiiy ijodning bor imkoniyatlaridan foydalangani holda o'z asarlarida xalqparvarlik, vatanparvarlik kabi hayotbaxsh g'oyalarga umrbod sodiq bo'lib qoldi.

Bob bo'yicha xulosalar

1. Qo'qonning birinchi xoni Shohruhbiyning o'g'illari Abdurahmon va Abdukarimxon davri xonlik sarhadlarini kengaytirish uchun olib borilgan harbiy yurishlarning oqibatlari – mamlakatda oddiy avom xalq ahvolining og'irlashuviga, sayyid va xojalarning ma'naviy-axloqiy tubanlashuviga, ilmsiz, soxta shayxlarning mol-u dunyoga ruju qo'yishiga olib keldi. Huvaydo ana shunday inqiroz oqibatlariga jonli guvoh bo'ldi. O'sha tarixiy davr ziddiyatlari bo'lajak so'fiy shoirning shaxsi va dunyoqarashining shakllanishida chuqur iz qoldirdi; Huvaydo yashagan davr Movarounnahrda toj-taxt urushlari avj olgan, imonsizlik, ilmsizlik va jaholat urchigan, og'ir va uqubatli davrga to'g'ri keldi.

2. XVII-XVIII asrlar Movarounnahr ma'naviy hayotining o'ziga xos xususiyatlari o'tmish salafar ijodiyotini davom ettirishga intilish, zamondoshlar Boborahim Mashrab, So'fi Olloyor, Turdi Farog'iy, Saido Nasafiy, Mirzo Abdulqodir Bedil, Yusuf Qorabog'iy kabi mutasavvif va so'fiy allomalar ijodidan ilhomlanib, badiiyatning durdona asarlarini yaratishga bo'lgan intilish ko'zga tashlandi.

3. Xojamnazar Huvaydoning ijodiy faoliyatiga o'zbek mumtoz adabiyotining Ahmad Yassaviy, Muhammad Fuzuliy, Alisher Navoiy, Zahiriddin

¹⁰² Хожамназар Ҳувайдо. Девои. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 32.

Muhammad Bobur singari buyuk namoyandalarining badiiy-estetik qarashlari, san'at va mahoratlari kuchli ta'sir ko'rsatdi.

4. Xojamnazar Huvaydo naqshbandiya tariqati g'oyalari bilan birga mavlaviya, yassaviya, malomatiya, zayniyani keng targ'ib etdi; tariqat yo'liga kirgan soliklarni, avvalo, qol ilmiga, payg'ambar sunnatlariga amal qilishga, Allohning vasliga yetishish uchun vujud sahrosini bosib o'tishga undadi. Ayni vaqtda bu yo'lning og'ir, mashaqqatli va xatarli ekanligidan ogohlantirdi.

5. Xojamnazar Huvaydo o'zidan boy meros qoldirdi. Uning tasavvufiy she'riyatning barcha janrlarida yozib qoldirgan asarlari jami (12080) o'n ming ikki yuz sakson misrani tashkil etadi.

II BOB. XOJAMNAZAR HUVAYDO ADABIY MEROSINING TASAVVUFIY TALQINI

2.1-§. Shoir ijodida Naqshbandiya tariqati g'oyalarining badiiy ifodasi

Adabiyotshunos Nusratillo Jumaxo'janing doktorlik dissertatsiyasida¹⁰³ Huvaydo merosidagi so'fiyona dunyoqarash talqini va tahliliga alohida e'tibor qaratilgan. Shu mavzuga bag'ishlangan muallif maqolasi alohida chop etilgan¹⁰⁴. Mazkur olimning Huvaydoga bag'ishlangan ishlarida¹⁰⁵ shoirning islom va tasavvuf ta'limotidagi she'rlarida ma'rifat nurlari yolqinlanib turganligi, umuminsoniy hayotbaxsh masalalar orifona talqin etilganligi bir qator dalillar asosida ochib beriladi.

Huvaydoning she'riy merosi, "Rohati dil" qissasidan namunalar kiritilgan mukammal qo'lyozma devonining bir nusxasi chevarasi Salohiddin Soqib hamda Mirza Umid Marg'iloniy tomonidan kitobat qilingan. Devonning shu qo'lyozmasi hamda shu devon asosida XIX asrning mashhur xattoti Shohmurod kotib ko'chirgan devon O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanadi. Huvaydo devonining qo'lyozma va bosma nusxalari ko'p. Shohmurod kotib ko'chirgan devondagi saralangan she'rlaridan bir qismi 1961-yili Toshkentda "Tanlangan she'rlar" nomida chop etildi. Huvaydoning qo'lyozma devonida 351 g'azal, yetmishga yaqin ruboiy – to'rtliklar, muxammas, musaddas, musamman, mustahzod namunalari bor.¹⁰⁶ Adabiyotshunos R.Orzibekov Huvaydo she'riyatini teran o'rgangan olimdir.

XV asr o'zbek adabiyotida sirli she'r janrlardan muammo, lug'z – chiston namunalari mavjud edi. Alisher Navoiy va uning zamondoshlari muammolar, chistonlar yaratganliklari ma'lum. XVI asrning birinchi yarmi shoirlaridan Shayboniy – Shaboniy, Bobur, Ubaydiy ham, xususan, muammoda iqtidor

¹⁰³ Жумахўжа Нусратилло. Филология фанлари бўйича фан доктори (DSc) диссертацияси автореферати, – Тошкент, 1996.

¹⁰⁴ Нусратулло Атаулло ўғли Жумахўжа. Хувайдо тасаввуфий шеърларида фалсафий-бадий талқин. // Шарк юлдузи, 1998, №4.

¹⁰⁵ Жумахўжа Нусратилло. Хувайдо меросининг маънавий-маърифий аҳамияти. –Тошкент: Ўқитувчи, 1994.

¹⁰⁶ Орзібеков Р. Ўзбек адабиёти тарихи. XVII-XIX (ярми) асрлар. –Тошкент: Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2006. –Б. 116-117.

ko'rsatganlar. Biroq XVII-XVIII asrlar o'zbek adabiyotida bunday sirli she'rlar yaratilgan – yaratilmaganligini hozircha bilmaymiz. Biz XVIII asr o'zbek she'riyatida faqat Xojamnazar Huvaydo qalamiga mansub bir chiston – muammoni uchratdik. Huvaydoning yetti baytli bu g'azal – chistonidan abjad hisobi bilan "Zulfi ishq" nomi chiqadi: Bu kichik asarni tahlilga jalb etamiz:

*Bir pari ro'yi ko'zumdin o'tmishin ko'rdum bukun,
Telba aylab, aqlim olib ketmishin ko'rdum bukun.
Boshi – yetmish, yuz – oyog', uch yuz badanlik qush kelib,
Tan tuzida murg'il jon sayd etmishin ko'rdum bukun.
Bir qalandar hindu bachcha xirman o'lturmishin ko'rdum bukun.
Rumig'a mehmon bo'lib o'lturmishin ko'rdum bukun.
Bir qaro qush ul zamon uchqonda gulzor ustidan,
Ikki ohu sahni gulzor tuzmushin ko'rdum bukun.
Yetti bosh o'ttiz – badan, sakson oyog'mori siyah,
Xam bo'lub gul ustida talpinishin ko'rdum bukun
Yor bazmida Huvaydo erdi rashk aylab raqib,
Oshiq ahli g'unchadek qon yutmushin ko'rdim bukun.*

Bu chistonning ikkinchi baytida keltirilgan 70, 100, 300 sonlari arab alifbosidagi ayn(i), qof(q) hamda shin(sh) harflarini anglatadi. Bu o'rinda shoir "boshi–yetmish" (boshidagi yetmish) deb (ayn (i)ni, "uch yuz badan"(o'rtasidagi uch yuz) deb shin (sh)ni, "yuz–oyog" (pasti, oxiridagi yuz)deb qof (q)ni nazarda tutgan. Bularni joy-joyiga joylashtisak, natijada ularning qo'shiluvidan "ishq" so'zi hosil bo'ladi.

Shunga o'xshash beshinchi baytning birinchi misrasidagi 7, 30, 80 sonlari arab alifbosidagi ze(z), lom(l), fe(f) harflarini ifodalaydi. Shoir "yetti–bosh" (boshidagi yetti) deb, ze(z)ni, "o'ttuz–badan" (o'rtasidagi o'ttiz) deb lom(l)ni, "sakson oyog" (pasti, oxiri sakson) deb fe (f) harflarini nazarda tutgan. Bu harflar birikmasi oxiriga izofiy birikma ko'rsatkichi bo'lgan "i" qo'shilsa, "zulfi" so'zi kelib chiqadi. Demak, Huvaydoning bu chistonida abjad yo'li bilan "Zulfi ishq" so'zlari yashiringan. Huvaydoning bu chiston g'azali muammo janriga xos poetik

xususiyatlarga ham ega. Nazarimizda, Huvaydo ramziy yo‘l bilan tasavvufiy ishqqa aloqador kechinmalarini tasvir etgan.¹⁰⁷

Naqshbandiya ta’limoti va harakatini o‘rganish natijasida erishilgan har bir ilmiy xulosa va yutuqdan shubhalanish paydo bo‘lgan joydagina yangi ilmiy izlanishlar uchun zarurat va ishtiyoq paydo bo‘ladi. Lekin bundan shubhalanish, olingan ilmiy natijani nigilistlarcha inkor etish emas, balki muammoga boshqacha nuqtayi nazardan yondashish, ilmiy nazariyani tanqid qilish, tekshirib ko‘rish imkoniyatining mavjud bo‘lishidir. Ilmiy asarni diniy asardan, falsafani, badiiyatni ilohiyotdan farqlovchi eng muhim mezon, olingan ilmiy natijalardan shubhalanish va unga tanqidiy yondashishdir.¹⁰⁸

Naqshbandiya tariqati Bahouddin Naqshbandning podsholar dasturxonida o‘tirish, shubhali taomlarni iste’mol qilishni man etish, biror kasb bilan halol yashab, qalbni Alloh bilan, qo‘lni mehnat bilan bog‘lashdan to podsholar bilan yaqinlashish, siyosiy hokimiyatni egallash, “Haqparast emas, balki dunyoparast bo‘lish”gacha, jamiyat va xalqqa rahnamolik qilishdan to mamlakat va xalqni umumiy inqiroz va parokandalikka mahkum etishgacha bo‘lgan g‘oyat murakkab va ziddiyatli yo‘lni bosib o‘tdi.

Ma’lumki, naqshbandiya o‘zidan rosa yuz yil muqaddam shakllangan xojagon tariqatining nomi xojagon – nashbandiya tariqati deb ataladi. Hatto barcha naqshbandiya pirlarining ismlari oldiga “Xoja” iborasini qo‘llash an’anasining mavjudligi ham uning xojagon tariqatining vorisi ekanligidan dalolat beradi.¹⁰⁹

Naqshbandiya – islom sivilizatsiyasining shakllanishi va gullab-yashnashini ta’minlagan musulmon tasavvufining ajralmas tarkibiy qismidir, ya’ni umumiylikning bir bo‘lagidir. Naqshbandiya milliy, mintaqaviy emas, balki umumbashariy ta’limot va ma’naviy qadriyatdir. Uning shakllanishi va rivojlanishi

¹⁰⁷ Орзибеков Р. Ўзбек адабиёти тарихи. XVII-XIX (ярми) асрлар. –Тошкент: Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2006. –Б. 122.

¹⁰⁸ Рўзматзода Қ. Хожамназар Хувайдо диний-мистик қарашларининг XVII-XVIII асрлар Марказий Осиё тасаввуфи ривождаги ўрни. Фалсафа фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент, 2020. –Б. 146.

¹⁰⁹ Рўзматзода Қ. Хожамназар Хувайдо диний-мистик қарашларининг XVII-XVIII асрлар Марказий Осиё тасаввуфи ривождаги ўрни. Фалсафа фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент, 2020. –Б. 148.

milliy hudud va mintaqalarning tarixiy, madaniy va etnik xususiyatlari bilan uzviy bog'liq ravishda ro'y berdi: Hindistondagi naqshbandiyani Turkistondagi naqshbandiya bilan taqqoslab bo'lmaydi.

Qodirqul Ro'zmatzodaning bu fikrlariga qo'shilmasdan bo'lmaydi. Chunki Huvaydo she'riyati betakror she'riyat va unda tasavvufiy g'oyalari ilgari surilgan.

Xojamnazar Huvaydoning ijodiy qarashlarida, bir tomondan, tasavvufning ko'p asrlik an'analari izchil rivojlantirildi, ikkinchi tomondan, jamiyat duch kelgan ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy inqiroz alomatlari ham sezilarli darajada o'z ifodasini topdi, naqshbandiyani ilk davriga qaytarishga bo'lgan intilishlari. Huvaydo ijodida Abdulxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, So'fi Olloyor, Boborahim Mashrab singari mashhur mutasavviflarning g'oyalari yanada rivoj topdi, ularning asarlariga xos insonparvarlik, yuksak badiiylik yangicha mazmun, ahamiyat va jozibadorlik o'rinni egalladi:

“Kishi bo'lmasa ma'nidin xabardor,

Ani odam dema, de naqshi devor”,¹¹⁰ – deb yozdi, ulug' alloma shoir.

Huvaydoning ta'lim berishicha, xarisi zikri Haq bo'lish, ya'ni Allohning zikrini tun-u kun qilishga zo'r berish bandalikning nishonidir, ammo boylikka hirs qo'yish bandalikka munosib emas, balki bandalari ruhining “al-Miysoq” kuni qilgan ahdini bajarishini sinash uchun yubordi. Agar Xudoga yetishmoqchi bo'lsang, it nafsingni och tutib, mudom Xudoning zikrini qil: tanani tarbiyat qilish bandalikka munosib emas.¹¹¹

Xojamnazar Huvaydoning tasavvufiy ta'limotida insoniy xalqlar va millatlar o'rtasida do'stlik va qardoshlik munosabatlarini qaror toptirish muhim o'rin egalladi. Uning fikricha, har bir notanish kishini xuddi do'st Xizrni ko'rgan kabi tavof qilish, yetmish ikki millat xalqi bilan do'st bo'lish komillik belgisidir: “Agar

¹¹⁰ Хувайдо. Роҳати дил. Иброҳим Адҳам. –Тошкент: Наврўз, 2011. –Б. 51.

¹¹¹ Рўзматзода Қ. Хожамназар Хувайдо диний-мистик қарашларининг XVII-XVIII асрлар Марказий Осиё тасаввуфи ривожигаги ўрни. Фалсафа фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент, 2020. –Б. 28.

har kimni ko‘rsang, Xizr bo‘lg‘oy deb tavof aylab, Ki havtodu du millat xalqi birla oshno bo‘lg‘il’.¹¹²

Xojamnazar Huvaydo avomning diniy savodxonligi va ma‘rifatini yuksaltirmay turib, din va tasavvufni inqirozdan qutqarib bo‘lmaydi, deb hisobladi. Yana muhimi, Boborahim Mashrab va So‘fi Olloyordan farqli ravishda, avvalo, ilmsiz avomning o‘lik qalblarini tiriltirishni, islom dinining muqaddas qonunlari, Qur‘on oyatlari, Rasululloh sunnatlari mohiyatini sodda, lo‘nda qilib bayon etish zarur va muhim, deb hisobladi. Shu maqsadda “Rohati dil” manzumasi va “Hikoyati sulton Ibrohim Adham” asarini yaratdi.¹¹³ Huvaydoning bu asarlarini oddiy el-ulus juda yaxshi qabul qildi.

Huvaydo XVIII asr o‘zbek adabiyotida naqshbandiylik tariqati yo‘li va g‘oyalariga kuchli e‘tiqod qo‘ygan shoirlardan biridir. Uning aksar g‘azallari, shu jumladan, ayniqsa, “Ichinda” radifli orifona g‘azalida biz dildan Xudoga oshiq bo‘lgan, uning visoliga erishmoq uchun barcha riyoziyotlarga chidashga tayyor solih inson e‘tiqodini ko‘ramiz. Uningcha, odam Allohning bir zarrasi, Allohni tanishga intilish, uning yo‘lida riyozat chekish insonni murodga yetishtiradi. Bu tasavvufiy g‘azalda oshiq intilgan yorug‘lik – Alloh nigor obrazi orqali jilvalanadi:

Darding erur nigorim ishqing bag‘rimda jon ichinda,

Paykoni tiyra ishqing bag‘rimda qon ichinda.

Arzu samoni kezdim, emdi tan ichra keldim,

*Topding nigohi qurbing mir‘oti jon ichinda.*¹¹⁴

Huvaydo fikricha, insonni e‘zozlash, Allohni e‘zozlash qadar xayrli amaldir. “Yo‘l bosib Ka‘ba sari bormoq”qa imkon topolmagan mo‘min g‘ariblar ko‘nglini shod aylash bilan mashg‘ul bo‘lar ekan, Tangriga muhabbat va sadoqatini bevosita emas, bilvosita izhor etadi. Unga Tangrining rahmat nurlari ham o‘sha g‘ariblarni siylagani uchun yog‘iladi¹¹⁵.

¹¹² Хувайдо. Роҳати дил. Иброҳим Адҳам. –Тошкент: Наврўз, 2011. –Б. 154.

¹¹³Рўзमतзода Қ. Хожамназар Хувайдо диний-мистик қарашларининг XVII-XVIII асрлар Марказий Осиё тасаввуфи ривождаги ўрни. Фалсафа фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент, 2020. –Б. 29.

¹¹⁴ Хожамназар Хувайдо. Девон. 2-нашри. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. –Б. 98.

¹¹⁵Нусратулло Атаулло ўғли Жўмахўжа. Хувайдо тасаввуфий шеърларида фалсафий-бадий талкин. // Шарқ юлдузи, 1998, №4. –Б.180.

Huvaydoda may mavzusida she'rlar bor. May Alloh jamoliga bo'lgan ishqning g'alaboti deyiladi. Huvaydodagi may madhi, uni yigitlikda ichishga chorlashni qarigan chog'da emas, yoshlikda ishq haqiqiy mayidan mast bo'lishlikni, Xudovand ishq omonatini bandasiga mayxonada beradi, degan tasavvufiy aqidani uqtirishlik deb anglash kerak. Bu mayxona shunday bir mayxonaki, unda dunyoviy g'am-tashvishlardan xoli bo'lib, yolgiz Alloh ishq bilan yoniladi.

Mumtoz adabiyotimizga xos bo'lgan zulma'nayn hodisasi-zohiriy va botiniy ma'nolar chatishuvi Huvaydo qalamiga mansub aksar g'azallarning irfoniy xususiyatidir. Shoirning g'inoiy-lirik she'riyatida zohiriy-majoziy ma'nolar zamirida yuksak mahorat bilan botiniy-orifona tafakkur va irfoniy falsafa yashiringan. Huvaydoning quyidagi she'riy misralari bunga guvohlik beradi:

Siynani sadpora qilding, ey pari qoshi qaro,

*Tiyr mujgoning bila qilding yurak bag'rim yaro...*¹¹⁶

Huvaydo oshiq shoir, lekin undagi ishq tasavvufiy, Allohga bo'lgan ishqdir. Bu yo'lda shoir cheksiz jabr-u jafolarga giriftor bo'ladi, azob chekadi, cho'l-u biyobonlarni kezadi, saharlar oh urib, ko'z yoshi to'kadi, nola-yu faryod qiladi: oh urganida oh o'ti osmon shiftiga yetadi, uning shiddatlari bois osmon sado qilib, bulutlar yig'laydi, do'zax chidolmay faryod chekadi:

Oh ursam, saqfi gardunga tegar ohim o'ti,

*Shiddatidan o't chiqib, aylar sado, yig'lar sahob.*¹¹⁷

Yoki:

Fazab aylab, Huvaydoni agar solsang tamug' ichra,

*Fig'on-u nolama do'zax chidolmay aylagay faryod.*¹¹⁸

Huvaydo she'riyatida may, mayxona, may suzadigan va aylantiradigan soqiy obrazlari ko'p uchraydi. Bu holat mumtoz adabiyotimizga xos xususiyat bo'lib, bunday she'rlarni yozgan Navoiy, Mashrab, So'fi Olloyor, Huvaydo va boshqalarning hech biri ayni hayotda va kundalik faoliyatda may ichuvchi

¹¹⁶ Хувайдо. Кўнгил дарди. –Тошкент: МЕРИЮС, 2009. –Б. 4-5.

¹¹⁷ Хожамназар Хувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. –Б. 8.

¹¹⁸ Хожамназар Хувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. –Б. 8.

bo‘lmagan, shariat harom qilgan narsani hatto qo‘llariga ham olmaganlar. Bunday mutasavvif shoirlar asarlaridagi “may”, “mayi vahdat” – Alloh nomini zikr qilish, uning muqaddas nomi bilan sarmast bo‘lib yurish va shu orqali tasavvufning og‘ir, mashaqqatli yo‘llarini bosib o‘tib, Allohning vasliga yetish, uning diydoriga musharraf bo‘lish timsolidir. Mumtoz shoirlar she’riyatidagi mayni xuddi ana shu ma’noda tushunish kerak.

Huvaydo asarlari poetikasi g‘oyatda pishiq-puxta, ularda turli-tuman badiiy san’atlardan mohirona foydalanish, til bezaklari, so‘z o‘yinlari, Qur’on va hadislardan o‘rinli foydalanish, arab harflari yordamida turli majoziy obrazlar yaratish ko‘zga yaqqol tashlanib turadi. Shoirning arab, fors va o‘zbek adabiy tilini qanchalar yaxshi va puxta bilganligi uning badiiy mahoratida aksini topgan¹¹⁹.

Huvaydo so‘fiy shoir, hayotini halol mehnati bilan, toat-ibodat bilan o‘tkazgan valiy, gunohlardan tamom xoli, komil, parhezkor inson. Lekin shoir o‘zini tamom gunohkor, hammadan past, umrida savob ish qilmagan, toat-ibodatsiz o‘tgan osiy banda deb hisoblaydi:

*Xayf umrim foniyl dunyoda deb ado qildim g‘alat,
Bilmadim gavharni qadrin, kam baho qildim g‘alat...
Xayr-u ehson toat aylab, Haq rizosin topmadim,
Hosil aylab maqsadim, nafsım rizo qildim g‘alat.*¹²⁰

Huvaydo o‘z she’rlarini mumtoz o‘zbek tilida yozgan. Uning tasavvufiy iboralari, she’riy uslubi ko‘proq Ahmad Yassaviy va Mashrab yo‘lini tutganligidan darak beradi. Shoir “Mano” radifli g‘azalini Ahmad Yassaviyga nazira qilib yozgan bo‘lsa, bir qancha g‘azallarini Mashrabga nazira qilib yozgan: “Kuyar”, “Kuygay” radifli g‘azallari (Mashrabda “O‘rtar” radifida yozilgan), “O‘zum” radifli she’ri (Mashrabda “O‘zum” radifli ikki g‘azal va muxammas mavjud), “Uchrabman” radifli g‘azali kabilarni ko‘rsatish mumkin¹²¹.

Huvaydo she’riyatidagi tasavvufiy g‘oyalar xalqchilligi va betakrorligi bilan qimmatlidir. Xojamnazar Huvaydoning Markaziy Osiyo tasavvufi tarixidagi buyuk

¹¹⁹ Хожамназар Ҳувайдо. Девон.—Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. —Б. 7.

¹²⁰ Хожамназар Ҳувайдо. Девон. —Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. —Б. 261

¹²¹ Хожамназар Ҳувайдо. Девон.—Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. —Б. 10.

xizmati, ishonch bilan aytish mumkinki, farzandni maktabga berish va ilmli qilish musulmon ota-onalarining burchi, farzandi oldidagi qarzi ekanligi masalasini Rasululloh hadisini dalil sifatida keltirib, kun tartibiga qo'yganligidadir.

Xojamnazar Huvaydo hayot va o'lim haqida mushohada yuritar ekan, umrni qadrlash, uni zoye o'tkazmaslikni, o'zidan keyin yilqida mingta ot qoldirishdan ko'ra, o'chmas nom qoldirish afzal ekani, Xudoni sevish barcha g'am-g'ussalardan ozod bo'lishning shifosi ekanligini alohida ta'kidladi:

*“Saqlagil bir yaxshi ot, o'zingga hargiz o'lmasun,
Ey Huvaydo, saqlaguncha yilqida ming yaxshi ot”¹²².*

Nemis olimi Martin Xartmann Huvaydo asarlaridagi Sharq she'riyatiga xos umumiy jihatlarini idrok etdi. Fors adabiyotida sevimli motivlardan bo'lgan dashti Karbalo, imom Hasan va imom Husayn, Yazid shahidlari kabi majoziy ma'no anglatuvchi tushunchalarni Xartmann birinchi bo'lib, Huvaydo g'azallarida uchratdi. Yevropa islomshunoslari tomonidan targ'ib qilingan “Islom dinidagi sunniylar va shialar o'rtasida azaliy muxoliflik qonuniyatlari” haqidagi nazariyasi Huvaydo g'azallaridagi umuminsoniy mushtaraklikni anglatuvchi g'oyalar bilan qat'iy rad etildi.

Huvaydo she'riyatiga murojaat Xartmann uchun Navoiy va Mashrab g'azallari tarjimasiga kirishishdan avvalgi tajriba maktabi bo'ldi. Huvaydo g'azallarida in'ikos topgan ko'plab badiiy va falsafiy obrazlarning “Devoni Mashrab”da ham uchrashi Xartmannga Huvaydoning Navoiy va Mashrab izdoshlaridan bo'lganini anglatdi.

Olim Huvaydoning xorijda, jumladan, Istanbulda chop qilingan devonini to'liq tasnif etib, nashriyot tomonidan yo'l qo'yilgan ko'plab xatolarni tuzatdi. Bu esa klassiklarimizning xorijda chop qilingan devonlarini qayta-qayta tahrirdan o'tkazishimiz va ularga matnshunoslik nuqtayi nazardan baho berishimiz lozimligini anglatadi.¹²³

¹²² Хожамназар Ҳувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. –Б. 11.

¹²³Тоджиходжаев М. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари Мартин Хартманн таржимаси ва талқинида.– Тошкент: Баёз, 2016. –Б.163.

Xartmann Huvaydo devonidagi munojotda, devondagi boshqa ko‘plab g‘azallarda Qur‘ondan olingan suralarga ishora yoki oyatlarning to‘liq keltirilgani, shuningdek, hadislarning, hikmatlarning ma‘nosini baytlar zamiriga singdirilganini to‘g‘ri idrok etib, g‘azal mohiyatini aynan qayta yarata oldi. Matnosti izohlarida esa u yoki bu baytdagi iqtibos san‘atini keltirib chiqargan oyatlarning Qur‘ondagi raqamini qayd etgan va mazmunni izohlagan. Izohlarda Qur‘on va Hadis kabi muqaddas kitoblarning yevropalik tarjimonlari ham ko‘rsatilgan. Shuningdek, izohlar Xartmann Qur‘onning mohir tarjimoni ekanini ham ko‘rsatdi.¹²⁴

Huvaydo tasavvufda yangi tariqat yaratmadi, balki naqshbandiya tariqati atrofida tasavvufning ilgaridan shakllangan ilg‘or g‘oyalarini uyg‘unlashtirishga, jamiyatni inqiroz va parokandalikdan qutqarish, iymon-e‘tiqodli komil inson shaxsini shakllantirishning yangi qirralarini izlab topishga harakat qildi. Uning ijodida Imom G‘azzoliy, Abduxoliq G‘ijduvoni, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab, Fuzuliy, So‘fi Olloyor singari mashhur mutasavviflarning g‘oyalari alohida o‘rin egalladi. Ularning asarlariga xos majoziylik va badiiylik, insonparvarlik, ma‘rifatparvarlik va adolatparvarlik g‘oyalari bilan uyg‘unlashdi va yangicha ahamiyat kasb etdi.¹²⁵

Huvaydo jamiyatning ma‘naviy hayoti va taqdiri uchun mas‘ul bo‘lgan ahli xoslar (din, ilm-ma‘rifat ahli, hukmdorlar)ni hidoyat va Haq yo‘ldan adashmaslikka da‘vat etdi. Bu dunyoning bevafo va o‘tkinchi ekanligini, ma‘naviy ganj hech qachon o‘lmasligini, chinakam insoniy baxt qalbni poklash, Allohni sevish, xalqqa sidqidildan xizmat qilish, o‘zingdan yaxshi nom qoldirishda deb bildi.

Huvaydo tasavvuf g‘oyalarini targ‘ib etishda malomatiya tariqati g‘oyalaridan o‘rinli foydalandi va bu bilan o‘z salaflaridan ancha ilgarilab ketdi: zamondoshlarining kamchilik va nuqsonlarini, ayb va gunohlarini o‘zining shaxsiy kamchiliklari sifatida deb bildi. Ayni vaqtda ahli ummiy (avom) o‘rtasida islom

¹²⁴Тоджиходжаев М. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари Мартин Хартманн таржимаси ва талқинида.—Тошкент: Баёз, 2016. —Б.164.

¹²⁵Хожамназар Хувайдо. Роҳати дил. Иброҳим Адҳам. —Тошкент: Наврўз, 2011. —Б. 7.

dini ta'limotini, Hadis hikmatlarini ibratli diniy rivoyat va hikoyatlar orqali targ'ib qilishga, ularning diniy bilim va saviyasini ko'tarishga, shariat ahkomlarini sodda va tushunarli tilda bayon etishga, odamlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilik sari takomillashtirishga harakat qildi.¹²⁶

Huvaydo naqshbandiylikdagi tasavvufning insonparvarlik, bag'rikenglik, ma'rifatparvarlik, jo'mardlik g'oyalarini targ'ib etishda so'z san'atining an'anaviy majoz, ramz va boshqa badiiy vosita hamda imkoniyatlaridan mohirona foydalandi. Shogirdi Noseh Chimyoniy ta'kidlaganidek, she'riyat Huvaydo uchun asosiy maqsad emas, balki tasavvufiy g'oyalarini yoyish, inson qalbini ma'rifat ziyosi bilan charog'on etish, odamlarni g'aflat uyqusidan uyg'otish, "oqillarga ishora, g'ofillarga tanbih" vositasi edi.

Allohnigina suyish, Allohdan o'zgaga mehr qo'ymaslik, tasavvuf ta'limotiga ko'ra, komil mo'minlikning garovlaridandir. So'fiylar ba'zilarining Allohga imon va toat bilan birga dunyo ne'matlariga, orzu-havaslariga, mansab-martabasiga, shon-shuhratiga ham mehr bog'lashini qabul qilisha olmaydi. Ularning nazarida, bundaylar dunyo yutuqlariga erishgan sari hoy-u havaslari ham kuchayib ketadi, dunyo g'amini unutishadi, dunyoga muhabbatlari rag'batlanib, Allohga muhabbatlari susayadi. Xullas, bora-bora dunyoning naqd manfaatlariga fido bo'lib, Xudoga baxshidalikni nasiyaga qoldirishadi. Va oxir-oqibatda nopok, tamagir, riyokor kimsaga aylanib baroyotganliklarini sezmay ham qolishadi.¹²⁷

Yassaviy, Navoiy, Mashrab, Huvaydolar dunyoqarashiga ko'ra, bunday kimsalarning iymonida manfaatparastlik, tama' bordek, go'yoki ular jannatga tamagirlik, jannatiy huzur-halovat manfaati bilangina Tangriga ibodat qiladilar. Holbuki, Huvaydo maslagidagi so'fiylarni na jannat va undagi hur-u, huzur-halovatlar, na hafzi kavsar, na boshqa manfaatlar qiziqtirgan. Ular faqat va faqat Alloh muhabbati, visoli orzusi bilan yashaganlar:

Hur ila jannating netay, anda yuzingni ko'rmasam,

¹²⁶Хожамназар Хувайдо. Роҳати дил. –Тошкент: Наврўз, 2011. –Б. 7.

¹²⁷ Нусратулло Атоулло ўғли Жумахўжа. Хувайдо тасаввуфий шеърларида фалсафий-бадий талқин. // "Шарқ юлдузи" журнали, 1998. №4. –Б.178 .

*Xasta Huvaydo ohiga havz ila kavsaring kuyar.*¹²⁸

Riyosiz ham tamasiz ham taqvoga intilish, Alloh muhabbatini dilga naqshlab, sidqidildan ibodat qilish Huvaydo dunyoqarashining asosiy mezonlaridan edi. Ma'lumki, riyokor va tamagir taqvodorlarni Alisher Navoiy riyo dengizida tama kemasiga tushib olib suzayotgan shayx timsoli vositasida tanqid qilgan edi. Boborahim Mashrab esa soxta taqvodor suvratini bunday chizadi:

Namoz-u taqvodin zohid qilur olamaro mashhur,

*O'gurub subhasin tinmay, ishi doim riyo ermish.*¹²⁹

Demak, namozxonlik, tinmay tasbeh o'g'irish hali imonning yuzaki ko'rinishi bo'lib, shu bilangina cheklanilsa, riyo bo'lib qolar ekan. Huvaydo ustozlarining fikrini rivojlantirib, aytadi:

Yorni istar ersang, maxfiy ibodat qila ko'r,

*Xudnamoliq bila bu qilg'on ibodat ne bo'lur?*¹³⁰

Huvaydo o'z dunyoqarashini takomillashtirish maqsadida tasavvufning eng yetakchi tariqatlari: yassaviya hamda naqshbandiya ilg'or insonparvar xususiyatlarini uyg'un ravishda mujassamlashtirishga harakat qilgan. G'ariblarning dillarini og'ritmaslik yassaviyada asosiy g'oyalardan bo'lsa, ko'ngil zikri, ko'ngil ziyorati naqshbandiyaning mohiyatini belgilovchi xususiyatlardandir. Bu maslakdagilar e'tiqodicha, inson ko'ngli Allohga muhabbatning muqaddas oshyonidir. Shuning uchun ko'ngilga munosabat – Ka'baga munosabatday baholanadi. Alisher Navoiy Allohning muhabbati barhayot ko'ngilni shod etish savobini bunday ulug'laydi:

Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod aylagay,

*Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay*¹³¹.

Alisher Navoiy e'tiqodicha, g'amgin bir inson ko'nglini shodlikka to'ldirish savobi shu qadar ulug'ki, uning savobi muqaddas ziyoratgoh Ka'ba buzilib qolsa, o'shani qaytadan barpo etish bilan barobardir.

¹²⁸ Хожамназар Хувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. –Б. 22.

¹²⁹ Хожамназар Хувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. –Б. 25.

¹³⁰ Хожамназар Хувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. –Б. 45.

¹³¹ Хожамназар Хувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. –Б. 17.

Mashrab dunyoqarashicha, jahonda ko‘nglida Alloh yodi bilan yashaydigan har inson dilini tavof etib yurish kerak:

*Tavofi olami dil qil jahonda har bashardin sen,
Agar bir dilni sen buzsang, yuzar Ka’ba buzilmasmu?*¹³²

Bir mo‘min dilini buzish yuzlab Ka’balarni vayron etishdek gunohi azimdir. Zotan, bir inson dili jarohatlanishidan yuzlab yuraklar larzaga keladi.

Huvaydo ham ulug‘ savobli ibodat – Ka’ba ziyorati, haj safarining yaqin va o‘ng‘ay yo‘lini ko‘rsatadi:

*Bir g‘aribning ko‘nglini shod aylasang,
Yo‘l bosib Ka’ba sari bormoq abas.*¹³³

Xojamnazar Huvaydodan uch yuz yil ilgari yashab o‘tgan va naqshbandiya tariqatiga asos solgan Bahouddin Naqshband ta’limotining tub falsafiy mohiyati va bu ta’limotning Xojamnazar Huvaydo ijodi hamda faoliyatiga ta’sirini o‘rganishga harakat qilgan.

Muallifning ta’kidlashicha, naqshbandiya ta’limoti Markaziy Osiyoning tarixiy, madaniy va siyosiy markazlaridan biri bo‘lgan Buxoro shahrida XIV asrning ikkinchi yarmida xojagon tariqatining vorisi sifatida dunyoga keldi. Shuhratparastlikni inson va shaxs kamoloti yo‘lidagi ofat deb bilgan xojagon – naqshbandiya pirlari ilmni Allohning omonat ehsoni, buyuk marhamati sifatida keyingi avlodlarga berishni, ilm ziyosi bilan zulmatni yoritish, jaholat, nodonlik va qashshoqlikni bartaraf etishni o‘z oldilariga asosiy maqsad qilib qo‘yganlar.¹³⁴

Bahouddin Naqshband ta’limotining Xojamnazar Huvaydo dunyoqarashiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan muhim g‘oyalar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: Xoja Alouddin Attorga ko‘ra, Bahouddin Naqshbandning tariqat (yo‘l)lari faqir, tarki dunyo, xaloyiqdin kechish, to‘liq (ma’naviy) yolg‘izlik, mosuvoning

¹³² Хожамназар Хувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. –Б. 56.

¹³³ Хожамназар Хувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. –Б. 36.

¹³⁴Рўзमतзода Қ. Хожамназар Хувайдо диний-мистик қарашларининг XVII-XVIII асрлар Марказий Осиё тасаввуфи ривождаги ўрни. Фалсафа фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент, 2020. – Б. 21.

inkoridan iborat edi. Ularning muqaddas soʻzlari faqirning isboti va fuqaroning muhabbati edi.¹³⁵

– Naqshbandga koʻra, darvish (soʻfiy)lar jamiyatning maʼnaviy hayoti uchun masʼuldirlar: Xudo avliyolari xalq yukini koʻtarish uchun yaratgan. “Ulamo olam yukini oʻz yelkalariga oladilar, hamisha xalq gʻami bilan yashaydilar”¹³⁶.

– Vaqtiki, odam farzandlari yer yuziga yoyilib, tarqalib koʻpaydilar, ularning ichidan solihlari boshqalarni Alloh yoʻliga chorlab, amri maʼruf va nahi munkar qildilar, gunoh ishlardan qaytardilar. Natijada, ularni xalq tanib bildi – huvaydo boʻldilar. Alloh ishqini ularni el koʻziga oshkora qildi. Ruhlarini dunyoni koʻrgani kelib, kech qolib ketgan bandalar esa yorugʻ dunyoda mol-mulk, bogʻ-roʻgʻlarga muhabbat qoʻydi, bu narsalarga egalik qilishga urindi, bu yoʻlda kim ularga xalaqit bersa, zulm qildi, urdi, qiynadi, oʻldirdi. Ruhlarini jannatni koʻrgani borib, kech qolib kelgan bandalar esa yorugʻ dunyoga kelganda dunyoparast qavmlar xizmatini qilib azob-uqubat chekib, Allohning adolatidan umid qilib yashab oʻtdilar.

Demak, huvaydo boʻlish lomakondan vujud olamiga kelishni ifodalaydi. Tugʻilish yoʻqdan bino boʻlish emas, balki baqo olamidan fano olamiga kelishdir. Baqo olamidan yana baqo olamiga oʻtish uchun dunyoga kelish, yashash, amal daftariga sohib boʻlish darkor. Haziniy aytganidek:

Roboti koʻhnaga kelgan hama musofirmiz,

*Yoʻlovchimiz – ketamiz, jahon – chorgoh guzari.*¹³⁷

Xojamnazar Huvaydo naqshbandiya tariqati atrofida tasavvufning avvaldan shakllangan ilgʻor anʼanalarini uygʻunlashtirishga, maʼnaviy kamolotga erishishning yangi qirralarini izlab topishga, shular orqali odamlar oʻrtasidagi munosabatlarni moʻtadillashtirishga harakat qildi. Tasavvufning tavhid taʼlimotini

¹³⁵Абул Муҳсин Муҳаммад Боқир ибн Муҳаммад Али. Баҳоуддин Балоғардон (Мақомоти ҳазрати хожа Нақшбанд .) –Тошкент: Ёзувчи, 1993. –Б. 55.

¹³⁶ Рўзматзода Қ. Хожамназар Хувайдо диний-мистик қарашларининг XVII-XVIII асрлар Марказий Осиё тасаввуфи ривожигаги ўрни. Фалсафа фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент, 2020. – Б. 22.

¹³⁷ Иқромиддин Остонакул. Авлиёлар султони Туронлик валийлар. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2004. – Б.192.

asoslashda, Allohga vosil bo'lish yo'llarini belgilashda Xojamnazar Huvaydo o'z salafalaridan ilgarilab ketdi.

Xojamnazar Huvaydo ijodida shaxs ma'naviyati muammosi asosiy o'rinni egalladi:

Kishi bo'lmasa ma'nidin xabardor,

*Ani odam dema, de naqshi devor*¹³⁸, – deb hisobladi.

Shuning bilan birga, uning asarlarida Xudo va payg'ambarlarga atalgan hamd va na't, chahoryorlarga e'tiqod, ro'za, namoz, toat-ibodat, haj, zakot kabi islom taomillariga, jannat va do'zax haqidagi aqidalarga dildan ishonish kabi fikrlar ham hiylagina o'rin olgan. U xuddi Boborahim Mashrab singari o'z maqsadiga erisha olmay, halovat ko'rmay, notinch sharoitda umr o'tkazib, zolimlik va mazlumlik, davlatmandlik va xorlik, bexudlik va benavolarning ijtimoiy sabablarini axtarib topolmay, turli-tuman murakkab ijtimoiy voqealarning mohiyatini anglay olmay, vaqti-vaqti bilan badbinlik mayllariga ham berilib ketadi.¹³⁹

Darhaqiqat, shoir aksar hollarda dunyoviylik va mistiklik, isyonkorlik va umidsizlik, gumanizm va konservatizm, erkin fikrlilik va xudojo'ylik orasida ikkilanadi. Bu qoloqlik va qarama-qarshiliklar, zulmat va ziyo olishuvlari natijasida edi, Haq va haqiqat uchun kurashuvchi, baxtga intiluvchi, lekin bundan hech narsa chiqara olmay diniy, pessimistik kayfiyatlarga berilgan, umidni "fano-yu, faqirlik" va narigi dunyoga bog'lagan ming-ming oddiy odamlar olamining ma'naviy ifodasi edi. Axir huvaydolar kabi shoirlar she'riyati o'z davri va zamondoshlari talabi hamda ovozining aks sadosidan boshqa narsa bo'lmaydi va bo'lolmaydi ham. Lekin qanday bo'lmasin, Huvaydo ijodida dunyoviylik, optimizm va isyonkorlik, ko'pincha va ko'pgina masalalarda birinchi o'rinda turadi.¹⁴⁰

¹³⁸Хувайдо. Роҳати дил. Иброҳим Адҳам. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 67.

¹³⁹Орзибеков Р. Адабий меросимиз сеҳри. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2006. –Б. 118-116.

¹⁴⁰Зоҳидов В. Ҳаётбахш бадият тароналари. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. –Б. 140.

Huvaydo goh islom e'tiqodlariga chindan beriladi, din, uning Xudosi, muqaddas deb bilingan kitobi va aqidalariga chuqur hamda samimiy ishonadi, payg'ambarni ko'klarga ko'taradi, jannat va jahannamni haqiqat deb targ'ib qiladi; goh islomga oppozitsiyada bo'lgan, islom peshvolari tomonidan ta'qib va tahrir etilgan tarki dunyochi tasavvuf yo'liga kirib ketadi, "asil" haqiqat jamolidan va mohiyatga vosillikdan boshqa narsani tan olmay qoladi. Goh tarki dunyo va dayri fano, goh dayri mug' va bog'aro, rind zunnori va aysh-ishrat kayfi, goh so'fiy kulohi va Iloh jilosi yoki yer va undagi real hayot bilan bo'lish, o'z taqdirini, baxt-saodatini shu yer va undagi hayot bilan chambarchas bog'liq ko'rish – shoir deyarli hamisha mana shu ikki olov orasida azobda, axtarishda bo'ldi, shu ikki bir-birini istisno etadigan qarama-qarshi qutblar o'rtasidagi kurash asirligida hatto o'voralik uqubatini tortdi. Axir hamisha katta axtarish, adashish, topish, yana qoqilish zulmat hokim bo'lgan bo'g'iq mavjud sharoitlardagi ilg'or shaxslar uchun qonuniy hamda muqarrar bir holat edi!¹⁴¹

Mutasavvifning ta'kidlashicha, tasavvuf yo'li – Allohning vasliga olib boradigan yo'l qorong'u, xatarli bo'lib, solik bu yo'ldan toymasligi, adashmasligi va dovon ostida qolmasligi uchun, avvalo, o'ziga munosib asokash (pir) tanlashi, ilmi zohir, ya'ni shariat ilmini egallashi zarur.

Huvaydo ilohiy va majoziy (insoniy) ishqni bir-biriga qarshi qo'ymaydi, balki majoziy ishq iztiroblarini his etmay, Allohning bandalarini sevmay turib Ilohiy ishq mohiyatiga yetib bo'lmaydi, deb hisobladi. Ko'p g'azallarini majoziy ishq tavsifiga, chimyonlik sho'xning noz va istig'nolari ta'rifiga bag'ishladi.

Huvaydo mazmun-mundarija jihatidan ham, shakliy-badiiy jihatlardan ham mukammal mustazodlar yaratgan. Ushbu baytlar bilan boshlanuvchi asar shoirning mustazod bitishidagi mahoratini ko'rsatadi:

Ko'rdum tuno kun ko'chada bir mahluqoni, hayron bo'la qoldim.

Husnidin ani ko'nglum uyi topdi ziyoni, raxshon bo'la qoldim.

Aydim: "Ey pari, qayda borursan jadal aylab?", achchig'lanib aytur:

¹⁴¹ Зоҳидов В. Ҳаётбахш бадият тароналари. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. –Б. 141.

“*Sho‘xim, na so‘rarsan, na ishing bor bu zamoni?*”, *pazmon bo‘la qoldim.*¹⁴²

“Nasoyim ul-muhabbat”da Navoiy yozadilar: “Yana (Naqshbandiydan) so‘rdilarki, sizning tariqingiz binosi ne ishdur? Dedilarki, anjumanda xilvat: zohir yuzidin xalq bila va botin tarafidin Haq subhonahu va taolo bila. Bayt:

*Az darun oshnovu va – z berun begonavash,
Inchunin zebo ravish kam mebunand andar jahon*”¹⁴³.

Mazmuni: “Ichki tomondan mahbub bilan oshno bo‘lgil va lekin tashqi tomondan o‘zingni begonavash tutgin”. Ya’ni, sevikli bilan ichki ittifoqda bo‘lmog‘ing kifoya, muhabbatingni elaro namoyish etishing odobdan emas. Shunday go‘zal xulq-atvor olam ahlida kamdan-kam uchraydi.

Huvaydo bu baytiga pirning muridga ana shunday sabog‘ini singdirgan. Huvaydo ruboiyoti ham badiiy-ramziy ma’nolar bilan sug‘orilgan:

*Ey bog‘i nazokatda qadi sarv, yuzi gul,
Ul yuzdin erur ishq eli chun qumri-yu bulbul.
Rayhon-u binafsha xati zulfingni asiri,
Shamshod-u sanubar qading oldida ikki qul*¹⁴⁴.
Ishq elini qumri-yu bulbuldek nola chektirgan ul yuz – ilohiy tal‘at

*timsoli.*¹⁴⁵

Sharqda qadimdan “shomi g‘arib” degan g‘oyat katta fojea va fojeali holatdan, shunday vaqt va kayfiyatdan darak beradigan simvolik, chuqur ma’noli va sirli ibora bor. U, o‘ta g‘amgin va ilojsizlik vaziyatidagi odam, kimsasiz va notavon shaxs ahvolini eslatadi, “tomi osmon, to‘shagi somon” ahvalidagi bechora va bevatanlar (o‘z yurtida musofirlardan ham battar kun kechirganlar), yolg‘izlik azobini chekkan va bosib kelayotgan zulmat xuruji tahdidi ostida bo‘lgan benavolarni, ularning ayanchli holatini ko‘z o‘ngiga keltiradi. U, yoqasi choklarni,

¹⁴²Нусратулло Атоулло ўғли Жумахўжа. Хувайдо тасаввуфий шеърларида фалсафий-бадий талқин. // “Шарқ юлдузи” журнали, 1998. №4. –Б.176.

¹⁴³Алишер Навоий. Асарлар. 15 томлик. Ўн бешинчи том. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1968. –Б. 78.

¹⁴⁴Хожамназар Хувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. –Б. 23.

¹⁴⁵Хожамназар Хувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. –Б. 177.

ohining dudi osmonga chiqqan, dardi dunyodan ham katta bo‘lib ko‘ringan xoksozlarni va, shu bilan birga, dili, g‘oyasi, ezgu orzularini koinotga ham sig‘dira olmaydigan osiylarni eslatadi. U qafasda bo‘g‘ilgan, mungli ingragan va, ayni zamonda, shu qafasni yorib chiqib ketishga uringan, ozodlikka intilgan, lekin bunga erisholmayotgan tutqun qushni yodga soladi. XVIII asr avvallarida, ba‘zi ma‘lumotlariga ko‘ra, Farg‘ona vodiysidagi Chimyonda, boshqalar aytishicha, O‘sh shahrida tavallud topgan va deyarli hamisha shu yerda yashagan, maktabdorlik, hunarmandlik va she‘r ijod etish bilan mashg‘ul bo‘lgan Xojamnazar G‘oyibnazar o‘g‘li Huvaydo ana shundaylardan biri edi, – ana shunday o‘ta fojiali va ziddiyatli, ham zamonasi, ham isyonkori hisoblangan nafosatchilardan biridir. Mana shunday qarama-qarshilikli pozitsiyada turib ijod etgan, o‘zbek adabiyoti tarixida hamda xalq hayoti va avlodlar dilida o‘ziga xos chuqur iz qoldirgan san‘atkorlardan biridir. U, bir necha juda muhim, kardinal masalalarda o‘zbek badiiy madaniyati va falsafiy ongi tarixida katta o‘rin egallagan ijodlardan biridir.¹⁴⁶

Ammo, afsuski, uning boy, serbo‘yoqli, ko‘p qirrali ijodi hamon maxsus va jiddiy tadqiq etilmay, qariyb o‘rganilmay kelayotir. Bunga asosiy sabab, shu ijodning nihoyat darajada murakkab va muammoli ekanligi bo‘lsa kerak.

Solikning botiniy olamiga murojaat qilish, qalb uyini poklash Huvaydo badiiyatining muhim jihatidir. U Imom G‘azzoliyning insonning mohiyati to‘g‘risidagi qarashlarini ijodiy rivojlantirar ekan, Alloh har qanday qalbdan emas, balki pok qalblardagina makon tutishini ta‘kidladi va solik, avvalo, qalb uyini hoy-u havas, nafs, ta‘ma, kibr-u havo singari g‘uborlardan tozalashi zarur, deb hisobladi:

Jon uyini pokiza qilg‘il, qolmasun gard-u g‘ubor,

Man eshittim g‘aybdin: pokiza dil ma‘voyi do‘st¹⁴⁷.

¹⁴⁶ Зоҳидов В. Ҳаётбахш бадийят тароналари. –Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. –Б. 142.

¹⁴⁷ Зоҳидов В. Ҳаётбахш бадийят тароналари. –Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. –Б. 53.

Darhaqiqat, Huvaydo dunyoni behad sevdi – ko‘klam kabi ko‘rkam, osmoni charaq yulduzlar bilan bezangan, yeri oftob bilan nafas oladigan, har joyida ilhombaxsh go‘zallik va hayotbaxsh osudalik mavjud bo‘lgan, sof sevgi safosi, vafodor yor vasli, ajoyib may kayfi, chechak chiroyi, tanbur navosi, she‘r nash‘asi, fidoyi do‘stlar doirasi, suhbat, xullas, haqiqiy insoniy hayot va go‘zal turmush bilan to‘la dunyoni sevdi, ardoqladi. To‘g‘riroq aytganda, shoir shunday dunyoni orzu qildi va shu orzuni kuyladi, e‘zozladi. Lekin shoirning ko‘z o‘ngida ko‘zini o‘yib olayotgan dunyo esa, uning orzusiga tamomila zid edi, oddiygina zid emas, aksincha, shu orzuni o‘zining barcha og‘irligi va g‘addorligi, insofsizligi bilan toptalar va ajdaho hamlasi bilan yutib turar, orzu egasini esa, tahqirlab, dilini parcha-parcha qilib turar edi. O‘zi esa, kattakon hamda shafqatsiz, dahshatli g‘amxona bo‘lib, qabohat va talon-tarojlikni, murdorlik va munofiqlikni, makr va riyokorlikni daxlsiz qonun darajasiga ko‘targan edi, umuman, xalqni ham moddiy, ham ma‘naviy tomondan qashshoqlashtirishni va mamlakatni xarobaga aylantirishni, inson erki va qadr-qimmatini yirtqichlarcha oyoqosti qilishni “muqaddas” prinsipga aylantirgan edi:

Bu dunyo siflaparvardir, ayo yor,

*Tamomi yaxshilar dunyodadur xor...*¹⁴⁸

Shular tufayli Huvaydo shu dunyoni nafratlaydi, rad etadi, uning shunday olchoq ekanligini fosh etadi. Buni shoir har xil vosita, yo‘l va xulosalar bilan qiladi. Ba‘zan tarki dunyochilikni targ‘ib qiladi, ba‘zan dunyo ishlaridan etak silkib, passiv yashash bilan mashg‘ul bo‘lishni tashviq qiladi, ba‘zi vaqtlarda esa o‘zining yuqoridagi umumiy oddiy ahamiyatga ega bo‘lgan go‘zal dunyo haqidagi orzusiga behad berilib ketadi, uni o‘sha mash‘um hamda mashaqqatli dunyoga qarama-qarshi qo‘yadi va shu orzuni amalga oshirish, umuman, dunyodagi go‘zalliklardan foydalanish zarurligini tarannum etadi.

Huvaydo dunyonigina emas, undagi hayotni ham nihoyat darajada zo‘r muhabbat bilan sevdi – bu insonga suv va havodek zarur bo‘lgan moddiy

¹⁴⁸ Зоҳидов В. Ҳаётбахш бадият тароналари. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. –Б. 142.

ma'murlik, ma'naviy boylik, tozalik va shodiyonalikdan iborat bo'lgan hayot edi, shu haqdagi ulkan orzu edi. Zotan, cheksiz muhtojlik, dil o'rtovchi kulfat va og'uli alam millionlar hayotida hokim edi, xalq tanasiga hech ajralmas zulukdek yopishib olgan edi, u vaqtlarda buning chorasini ham yo'q edi. Shu tufayli bu holatlar shoirni qon yig'latdi va har xil xulosalarga olib keldi: ba'zan hayotdan, umuman, voz kechish va faqir – fanolikni tashviq etdi shoir, ko'pincha esa zulmat hokim hayotga qarshi qo'ydi, o'zining yuqoridagi hayot haqidagi yuksak orzusini va chuqur ulug'vor fikrlarni bayon etdi, uni ovozi boricha kuyladi.¹⁴⁹

Huvaydo dunyoqarashi va ijodi qarama-qarshi qutblardan iborat shoirlardan biri sanaladi. Uning asarlarida Xudo va payg'ambarlarga atalgan hamd va na't, chahoryorlarga e'tiqod, ro'za, namoz, toat-ibodat, haj, zakot kabi islom tamoyillariga, jannat va do'zax haqidagi diniy aqidalarga dildan ishonish kabi fikrlar hiylagina o'rin olgan.¹⁵⁰

Shoirning g'azallarida tavba-tazarru qilishga da'vat etiladi. Bu g'oya Huvaydoning:

Tun-u kun aylabon gunoh, qilmag'an hech savob o'zum,

*Parvarish aylabon badan, qilg'uchi xo'rdu xob o'zum*¹⁵¹, – deb

boshlanadigan g'azalida o'z aksini topgan.

Huvaydo din aqidalarini, shariatni mukammal egallagan, tasavvuf ta'limoti g'oyalarini ijod va hayot yo'lida dasturamal deb bilgan shoir. Ulug' mashoyixlarimiz qisqa qilib: “Tasavvuf o'zingdan o'lib, Alloh bilan tirilmoqdir”, – deya ta'rif berishgan. Bunday maqomga erishish vositasi esa – ishq. Ishq yo'li – ko'ngil yo'li. Ishqqa giriftor oshiq jondan, o'zlikdan kechmaguncha mushkuli oson bo'lishi dushvor:

Ignada choh qozg'ondan oncha mushkul kori ishq,

*Toki jondin o'tmaguncha kori oson topmadim.*¹⁵²

¹⁴⁹ Зоҳидов В. Ҳаётбахш бадийят тароналари. –Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. –Б. 145.

¹⁵⁰ “Баёзи Ҳазиний” типолитография. –Тошкент, 1911, 3-варақ, Баёз, кўлёзма.

¹⁵¹ Хожамназар Ҳувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. –Б. 28.

¹⁵² Хожамназар Ҳувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. –Б. 13.

Huvaydoning turli oshiqona gʻazallarida turli darajalardagi ishq shiddati oʻz ifodasini topgan. Ayrim gʻazallarida, falsafiy-ramziy maʼnolar bilan sugʻorilgan ruboiylarida ishq va oshiqlik sokinlik bilan sharhlangan:

Gulzor kerak yo ‘q, manga gul ro ‘ying bas,

Gulzor yuzingsiz manga monandi qafas.

Na ayb, bu bog ‘ ichra yuzing olida

*Gar aylamasam bihisht bog ‘ini havas.*¹⁵³

Ayrim asarlarida esa ishq eng yuqori – jununvor pardalarda, mashrabona uslubda kuylanadi. “Kuyar” radifli gʻazali xuddi shunday asardir. Undagi lirik qahramon ishq otashiga aylangan. Oʻz mahbubasi vasliga erishish uchun toʻsiq boʻlishi mumkin boʻlgan barcha xilqatni barbod etishga tayyor. Uning uchun Allohdan oʻzga mavjudlik yoʻq. Faqat Alloh bor. Qolgan hamma narsa tanazzulga mahkum. Hatto qalandarlar kiyimi – dolq ham, kuloh-u janda ham uning uchun tashqi zebu zabar. Ularni ham rad etadi. Ushbu gʻazal Huvaydo ruhiy parvozinining eng yuqori choʻqqisi deyish mumkin. Lirik qahramonni hur-u jannat, havzi kavsar ham qiziqtirmaydi. Uning maqsadi bitta – ilohiy vasl:

Chiqsa tanimni uchquni, tushsa jahonni mulkiga,

*Vahsh-u¹⁵⁴ tayur-u¹⁵⁵ dev-u jin, mo ‘min-u kofaring kuyar.*¹⁵⁶

Islom taʼlimotidan, Navoiy va Mashrab anʼana-tajribalaridan oziqlana borib, Huvaydo ulugʻ insonparvar shoir darajasiga koʻtarildi. Huvaydo insonparvarligining haddi aʼlosini koʻrsatuvchi shohbaytlardan yana biri quyidagicha:

Gʻaribni ko ‘nglini buzmak gunohi beadam ermish,

*Kafforat bo ‘lmag ‘ay yuz Ka ‘bani qaytib bino qilsang.*¹⁵⁷

Ishq yoʻliga kirgan oshiq jondan kechmasa, jonon visoliga muyassar boʻlolmaydi:

Tariqi ishq aro qo ‘ysang qadam, jondin guzar aylab,

¹⁵³ Адизова И Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. –Тошкент: Фан, 2006. –Б. 118.

¹⁵⁴ Vahshiy, hayvonot.

¹⁵⁵ Qushlar.

¹⁵⁶ Хожамназар Ҳувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. –Б. 89.

¹⁵⁷ Хожамназар Ҳувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. –Б. 26.

Xojamnazar Huvaydoning munajat – hamd g'azalida o'ndan ortiq badiiy san'atlar qo'llangan. G'azalning Allohga hamdligi tufayli unda iqtibos va talmeh san'atlaridan mohirona foydalanilgan. Mazkur san'atlar o'tmish adabiyotimizda barcha ijodkorlar tomonidan qo'llanilgan. Shoir har bir muslim bilishi va amal qilishi lozim bo'lgan islomiy vazifalarni badiiy san'atlar yordamida o'ziga xos dars uslubida o'z muxlislariga yetkazish niyatida bo'lgan. Qur'oni karim oyatlarining mazmun va mohiyatlarini ochib berish san'atiga e'tibor qilinsa, shoirdagi Vatan va millat oldidagi yuksak ma'naviy va ma'rifiy mas'uliyatni va shuning bilan birga nozik badiiy-estetik ta'bni sezish mumkin¹⁵⁹.

Namanganlik Muso Tadjixojayev Huvaydo asarlari tarjimasi bilan shug'ullangan tadqiqotchi. Huvaydo she'riyatidagi ayrim she'rlarni sharhlagan. Tarjima jarayonida she'riy asarni nasriy bayon qilish usuli qo'llangan. Tahlilga tortilgan jami 11 ta g'azalning barchasi ma'no jihatdan asliyatga muvofiq o'girilgan. Ayniqsa, munajat muvaffaqiyat bilan nemischalashtirilgan. G'azal badiiyatini qayta yaratishda ham muvaffaqiyatga erishilgan. Xususan, shoir eng ko'p qo'llagan iqtibos san'ati mutarjim tomonidan to'liq qabul qilingan va tarjimada ham qayta yaratilgan. Mutarjim tarjimada bandaning Allohga murojaati paytidagi holati va do'zax tasvirini qayta yaratishda ham muvaffaqiyatga erishgan. Ikkinchi va uchinchi baytlarda qo'llangan o'xshatish san'ati ham tarjimada aniq o'tkazilgan.

Sharq va G'arb she'riyatida ko'plab o'xshashliklar bo'lgani kabi farqli tomonlar ham bor. Markaziy Osiyo shoirlari ijodida urf bo'lgan shir-u shakar, shahd-u shir-u shakar usullari, mulamma san'ati Yevropa she'riyatida ham qo'llansa-da, ammo bu hol urf emas. Sharq she'riyatidagi, xususan, Huvaydoning munajat g'azalidagi shunday holatlar tarjimada tushirib qoldirilgan. Asliyatdagi turkiy-o'zbek tiliga o'zlashgan xorijiy so'zlar bilan (varvarizmlar) tarjimada nemis

¹⁵⁸ Хожамназар Ҳувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. –Б. 56.

¹⁵⁹ Тоджиходжаев М. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари Мартин Хартманн таржимаси ва талқинида.. – Тошкент: Баёз, 2016. –Б. 153.

tilidagi soʻzlar bilan ifodalangan. Bu usul esa gʻazaldagi sanʼatlarni yoʻqqa chiqargan.

Umuman, Huvaydo devonidagi munojot ham, boshqa gʻazallar ham nemis tiliga mohirlik bilan oʻgirilgan. Xojamnazar Huvaydo sheʼriyatining Yevropadagi dastlabki tarjimasini va talqiniga 100 yildan ziyod vaqt oʻtdi. Bu vaqt oraligʻida mutasavvif shoirning asarlari Sharq-u Gʻarb tillariga qayta-qayta oʻgirilgan va ilmiy-nazariy jihatdan oʻrganilgan. Ammo vatandoshimizning nazmiy va tasavvufiy qiyofasini ilk bora Yevropa xalqlariga tanishtirgan Martin Xartmannning xizmati beqiyosdir.¹⁶⁰

Naqshbandiya tasavvufiy gʻoyalarini Xojamnazar Huvaydo, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab, Soʻfi Olloyor oʻz asarlarida ijtimoiy-siyosiy inqiroz oqibatlarini, avvalo, jamiyat xos kishilarni (xoja, sayyid, mullo, bek, xonlar)ning mol-u dunyoga hirs qoʻyishlari oqibatida riyokorlik, yolgʻonchilik, kibr, manmanlik, jaholat, ilmsizlik, zulm va istibdodning kuchayganligini ayovsiz tanqid etdilar. Ularning har ikkisi ham oʻlik qalblarni tiriltirish, tasavvufning kuch-qudrati, salohiyati va taʼsirchanligini qaytadan tiklash uchun hijriy uchinchi asr (IX asr)da yashagan Xudojoʻy zohid – soʻfiylar: Ibrohim Adham, Ibn Muborak, Robiya Adaviya va boshqalarning taʼlimotlari; Muhammad (s.a.v.) paygʻambar va choryorlarning islom dini yoʻlida, musulmonlar jamoasining manfaatlari yoʻlida chekkan zahmatlari, goʻzal axloqiy fazilatlarini ibrat qilib koʻrsatdilar. Mazkur muammoni hal etishda turlicha yoʻl va usullardan foydalandilar.

2.2-§. Shoir sheʼriyatida tasavvufiy fikrlar talqini

Tasavvufning Sharqda keng tarqalishiga bois, uning arab, fors va turkiy tillarda buyuk bir sheʼriyatning vujudga keltirishidir. VIII-XII asrlar Robiya Adaviya Mansur Halloj singari ulugʻ soʻfiylar ijodi bilan boshlangan soʻfiyona ashʼor X-XII asrlarga kelib ulkan bir adabiyotga aylandi, oʻziga xos obrazlar,

¹⁶⁰ Тоджиходжаев М. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари Мартин Хартманн таржимаси ва талқинида.— Тошкент: Баёз, 2016. —Б. 155.

timsollar olami, alohida ramzlar, uslub va usullar shakllandi. Olimlar tasavvufning adabiyot bilan yaqinlashish sabablarini ko'proq so'fiylarning raqs-u samo' majlislari bilan bog'laydilar. Biroq aytish kerakki, sabab faqat shundan iborat emas. To'g'ri, tasavvuf shayxlari muridlariga ta'sir etish uchun ruboiy, g'azal kabi kichik she'riy janrlardan foydalanganlar. Ba'zan o'zlari so'fiyona g'oyalarga mos asarlar ijod qilib, aksar holda xalq og'zaki ijod namunalarini va mashhur shoirlarning she'rlaridan foydalanib, suhbatlariga qiziqqanlar, so'zlarga yangi ma'no berib, so'fiyona g'oyalar ruhida talqin va tafsir qilib eshituvchilarni hayajonga solganlar.¹⁶¹

Tasavvuf g'oyalari keng tarqalgandan keyin u gumanistik shoirlarning qalbini rom etdi. Tasavvufning pok ilohiy ishq haqidagi Haq va haqiqat, najib insoniy xislatlar, kamolot kasb etish haqidagi g'oyalari she'riyat g'oyalariga aylandi – shoirlar qizg'in bir ruh, ko'ngil amri bilan irfoniy g'oyalarni kuylaydilar, hisobsiz lirik she'rlar, jahonga mashhur dostonlar, qissalar yaratildi. Tasavvufning bexudlik va ishq konsepsiyasi, soflik, adolat va haqiqat timsoli – Mutlaq ilohga muhabbat zavqi ijod ahliga qattiq ta'sir etdi, insoniyat g'ami bilan qalbi dardga to'lgan isyonkor ruhdagi shoirlarni bir ohangraboday o'ziga tortib, o'rtanishli, his-hayajonga serob ajoyib she'riyatni vujudga keltirdi.¹⁶² Adabiyotshunos N. Komilov ta'rif-tavsif etgan tasavvufiy fikrlar Huvaydo she'riyatida tarannum etildi.

Muhammad (s.a.v.)ga ergashish, ummat bo'lish – jannat yo'lidir. Bayt tom ma'noda iqtibos san'atining namunasi. Zero, Muhammadning ummatlari har ikki dunyoda yaxshi xulqlari uchun xushnud bo'lishlari va agar U zot "bundaylar bizdan emas" desalar, kufr ahlining faryod-u vovaylosiga sabab bo'lishi haqidagi hadislarga ishoradir:

Nechuk baxt – saodatdur Muhammad ummatim desa,

*Seningdek ummatim yo'q, desalar faryod-u vavoylo.*¹⁶³

Navbatdagi baytda Yer yuzida Allohdan boshqa barcha maxluqot va narsalar o'tkinchi ekanini eslatuvchi hikmat bo'lib, Sharq shoirlari va mutafakkirlarining

¹⁶¹ Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. –Тошкент: Ёзувчи. –Б. 154.

¹⁶² Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. –Тошкент: Ёзувчи. –Б. 56.

¹⁶³ Хожамназар Ҳувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. –Б. 58.

eng ko‘p qo‘llaydigan hikmatlari – Payg‘ambarlar ham o‘tkinchi ekani haqidagi qanotli ibora ishlatilgan:

O‘lumning oldida barcha: shoh-u gado barobardur,

O‘shandog‘ Mustafa o‘tti, bo‘lur o‘lmas kishi qaydo?!

Baytdagi fikr Qur‘onning bir necha suralarida bayon qilingan bashoratlarga ishoradir. Jumladan, “Oli Imron” surasining 185-oyatidagi quyidagi kalom bunga asosdir: Har bir jon o‘limni totguvchidir... Bu hayot-dunyo esa aldaguvchi matodir¹⁶⁴. Shu suraning 144-oyati esa baytning ikkinchi misrasi uchun manba bo‘lgan: “Muhammad bir payg‘ambar, xolos. Undan ilgari ham payg‘ambarlar o‘tganlar. Bas, agar u vafot qilsa, yoki o‘ldirilsa, ketingizga (ya’ni kufrga) qaytib ketasizmi?!”...¹⁶⁵

"Yunus" surasining 49-oyatida esa bu fikr davom ettirilgan: Ayting (ey Muhammad), “men agar Alloh xoxlamasa (o‘zgalar u yoqda tursin), o‘zimga ham biron ziyon yoki foyda yetkazishga qodir emasman. (Binobarin, kelajak, g‘ayb ilmlaridan ham xabardor emasman, lekin) har bir millat-avlod uchun bir ajal bordir”...¹⁶⁶ Hazrati Muhammad ham atigi 63 yil umr ko‘rdilar. Insonlar, dev-u parilar, parranda-yu darrandalar ustidan hukmronlik qilgan Sulaymon Payg‘ambar ham Allohning hukmiga itoat qilib, Uning huzuriga qaytgan. Shu kabi lavhalarni qalamga olgan Huvaydo kishi bu dunyodagi hayoti davomida ezgu ishlar qilib, narigi dunyodagi hayoti uchun savob to‘plashi lozimligini eslatgan. Baytning tarjimasida bu fikrlar to‘la o‘z badiiy ifodasini topgan:¹⁶⁷

G‘animatdur hayoting necha kun Haq yodida o‘lsa,

Va garna ul tiriklikdin ne xushdur, o‘lgoning avlo.

Poetik jihatdan go‘zalligi unda hayot bilan o‘limning bir-birini taqozo qilishi – o‘zaro ziddiyat-qarshilantirish bilan tasvirlangan.¹⁶⁸

¹⁶⁴ Qur‘oni karim. 3-(Oli Imron) sura, 185-oyat. –Б. 51.

¹⁶⁵ Qur‘oni karim. 3-(Oli Imron) sura, 144-oyat. –Б. 137.

¹⁶⁶ Qur‘oni karim. 10 (Юнус) sura, 49-oyat. –Б. 137.

¹⁶⁷ Тоджиходжаев М. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари Мартин Хартманн таржимаси ва талқинида.– Тошкент: Баёз, 2016. –Б. 150.

¹⁶⁸ Тоджиходжаев М. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари Мартин Хартманн таржимаси ва талқинида.– Тошкент: Баёз, 2016. –Б. 149.

So‘fiyona adabiyotning tasvir mavzui (obyekti) tariqat yo‘li bilan oziqlanayotgan va tinmay komillik sari taraqqiy etayotgan insonning dunyoqarashi, estetikasi, kechinmalar olami muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Tasavvufiy adabiyotning barcha ko‘rinishlari, janrlarida, ana shu solik insonning tuyg‘ulari, tushunchasi tasvirga olinadi, uni tarbiyalash, unga Haqni va o‘zligini tushuntirish, turli rivoyat va hikoyatlar keltirish, o‘git-nasihatlar qilish bilan uning ongi va qalbiga yo‘l topish bosh masala qilib olinadi.¹⁶⁹

Tasavvuf tarixi, she‘riyati, undagi mazhab va oqimlar, ular o‘rtasidagi nazariy kurashlar, bu ta‘limotning insonparvarlik mohiyati, jabr-zulm va jaholatga qarshi sobit qadam tashlashi to‘g‘risida Y.E.Bertels, F.Ko‘prulizoda, V.Zohidov kabi taniqli olimlar qimmatli tadqiqotlar meros qoldirishgan. Shuningdek, N.Mallayev, M.Zokirov, N.Komilov, I.Haqqulov, S.Olim, O.Usmon kabi olimlarimizning risola va maqolalarida ham tasavvuf she‘riyati xususida qimmatli mulohazalar mavjud.

Ayniqsa, olim va adib Radiy Fish o‘zining “Jaloliddin Rumi” nomli tarixiy romani bilan tasavvufshunoslikka bebaho hissa qo‘shdi. Bu asar 1986-yilda Jamol Kamol tarjimasida o‘zbek tilida chop etildi.¹⁷⁰

Tasavvuf falsafiy maslak sifatida islom dini maydonga kelganday keyin jamiyat ixtiloflarining, zulmining keskinlashuvi va buning natijasida adolatsizlikning, qashshoqlikning kuchayishiga qarshi ko‘tarilgan norozilikning olovlanib ketishi natijasida shakllandi, rivojlandi. VII-IX asrlarda, ayniqsa, arab dunyosida so‘fizim tezlik bilan rivojlanadi. Uvays Qaraniy, Hasan Basriy, Robiya Adaviya, Ibrohim Adham, Boyazid Tayfur al-Bistomiy, Abubakr Shibliy, Abumansur al-Husayn Halloj kabi mutasavviflar maydonga keladi. Natijada tasavvuf arab olamida keng tarqalib, so‘ng Xuroson va Movarounnahrda islom dini bilan birga kirib keldi. Buning natijasi o‘laroq, Farididdin Attor, Jaloliddin Rumi, Shayx Sa‘diy, Hofiz Sheroziy, Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy, Ahmad Yassaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi jahoniy mutafakkirlar yetishib

¹⁶⁹ Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. –Тошкент: Ёзувчи. –Б. 155.

¹⁷⁰ Хомидий Х. Тасаввуф алломалари. –Тошкент: Шарқ, 1999. –Б. 292.

chiqdi. Bu mutasavviflarning yaratgan ilmiy, badiiy asarlari, doston va gʻazallarini koʻzdan kechirsangiz, ular tasavvufdan chetga chiqmaslik uchun “Qurʻon” va Muhammad (s.a.v.) hadislaridan chetga chiqmaslik lozim, deb uqtiradilar.¹⁷¹

Soʻfiyona istilohlar, ramz-u tashbeh, kinoya-tamsillar vositasida soʻzlash — tasavvuf adabiyotining tili hisoblanadi. Ilohga boʻlgan muhabbatni dunyo goʻzalliklari orqali kuylash, asl maqsadni obrazlar ortiga yashirib, timsollar qudratiga qudrat — bu sheʼriyatning asosiy sharti. “Masalan, mahbub deganda Xudoni, paygʻambarni, Pirni va sevgan, kishisini anglash, soqiy deganda ham ayni shu toʻrt tushunchani eʼtiborga olish, lab deganda pirning soʻzini, ilohiy fayzni, qosh deganda ilohiy olam bilan moddiy olam chegarasini, bel deganda komil inson xayolining nozikligini, koʻz deganda komil insonning oʻzini nazarda tutish mavjud. Bu timsollarni batafsil anglamay, soʻfiyona sheʼrlarni anglash mumkin emas”:¹⁷²

Holiqo, sandin tilarman koʻp madad,

Ham tirikda, jon chiqarda yo ahad.

San agar holimga homiy boʻlmasang,

*Ozdurur mani yoʻldin shaytoni bad.*¹⁷³

Y.E.Bertels soʻfiyona istiloh va timsollar tizimi IX-X asrlardayoq shakllangani va XI asrda Bobo Koʻhiy devonidayoq mukammal tarzda namoyon boʻlganini qayd etadi. Tasavvuf timsollarining ishlab chiqilishi soʻfiyona sheʼriyat oldida mutlaqo yangi ufqlarni ochadi.¹⁷⁴

N. Komilovning yozishicha, bu tasavvufning adabiyotga intilishi boʻlib, oʻz navbatida, adabiyot ham tasavvufga intilgan — tasavvufning pok ilohiy ishq, ezgu insoniy fazilatlar, inson kamoloti bilan bogʻliq gʻoyalari ijod ahlini ilhomlantirib, koʻplab badiiy barkamol asarlar yaratilgan¹⁷⁵. Mumtoz shoirlarimizning soʻfiyona sheʼrlari buning yorqin namunasidir.

¹⁷¹ Хомидий Х. Тасаввуф алломалари. —Тошкент: Шарқ, 1999. —Б.292.

¹⁷² Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. —Тошкент: Ёзувчи. —Б. 163.

¹⁷³ Хожамназар Хувайдо. Девон. —Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. —Б. 262.

¹⁷⁴ Бертелс Е.Э. Сўфизм ва тасаввуф адабиёти. —Б. 60.

¹⁷⁵ Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. —Тошкент: Ёзувчи. —Б. 163.

Tasavvufiy-irfoniy adabiyotlarda inson va uning borlig'i muammolari, ma'naviy poklanish va yuksalish masalalari keng tahlil etilgan. O'rta asrlar musulmon jamiyatining ideali bo'lgan komil inson "jamiki insonlarning haqiqati, odamiylik odamiysi, hazrat Muhammad (s.a.v)dir."¹⁷⁶

Ilohiy kamolot darajalarini o'zida mujassamlashtirgan Allohning rasuli bashariyat uchun axloqiy ideal bo'lsa, tasavvufning asl maqsadi – insonning ma'naviy-ruhiy kamoloti mujassamdir. Insonning vazifasi o'z-o'zini taftish qilish, nafsini idora etish, ilm va amal (ilmning mag'zi hilmdir)ni mushtarak olib borish, ma'rifatli bo'lish, haqiqatga erishishga qasd qilish, qalbni Allohga qaratishdir.¹⁷⁷

Shu kabi tasavvufiy g'oyalar Huvaydo she'riyatining pafosini tashkil etadi.

Tasavvuf ta'limotidagi ruh va tan o'rtasidagi qarama-qarshilik Huvaydo dunyoqarashida ham muhim o'rin tutadi. Mutasavviflarcha, tanga bino qo'yish, unga oro va orom berish ruhni o'ldiradi. Ruhni o'zlik yukidan xalos etish, tanparvarlikni mag'lub qilish insonni ma'nan poklab, chinakam Ilohiy ishqning arshi a'losiga ko'taradi. Ham tanparvarlikka mayl bildirib, ham ishq da'vosini qilish esa, ayni riyoning o'zginasidir:

Ey Huvaydo, tan semurtib, aylasang da'voyi ishq,

*Dilda darding, ro'yi zarding bo'lmasa, yalg'on erur.*¹⁷⁸

Dilida ishq dardi yongan oshiqning chehrasi ham za'faron bo'lib, u tan semirtirishga ishtiyoq va mayl-u rag'bat sezmaydi.

Ishq yo'liga kirgan oshiq jondan kechmasa, jonon visoliga muyassar bo'lolmaydi:

Tariqi ishq aro qo'ysang qadam, jondin guzar aylab,

*O'lumdin ilgari o'lgil, taningni darkafan qilg'il.*¹⁷⁹

"O'limdan ilgari o'lmoq", "Tanni darkafan qilmoq" o'zlikni, xudparastlikni mag'lub etish, shaytoniy nafs-u havo g'ururini mahv qilishdir. O'z ijodiyotida

¹⁷⁶ Азизиддин Насафий. Зубдат ул-хакойик. (Хакикатлар армуғони)/ форс тилидан Н.Комилов таржимаси. – Тошкент: Камалак, 1995. –Б. 8.

¹⁷⁷ Исакова З. Ирфон ва унинг Шарқ тафаккури ривождаги ўрни (X-XIII асрлар) . Фалсафа фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати, Самарқанд, 2022. – Б.25.

¹⁷⁸ Хожамназар Ҳувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. –Б. 23.

¹⁷⁹ Хожамназар Ҳувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. –Б. 63.

ehtiros bilan kuylangan majoziy va haqiqiy ishqning murod-muddaosi, ishqdagi o‘limning mohiyati haqida Alisher Navoiy bunday degan edi:

*Ikkisidan garchi oshiq o‘lmaki lozim kelur,
Bori ul o‘lmakki, bo‘lg‘ay zimmida yuz ming hayot.*¹⁸⁰

Ko‘ramizki, Huvaydo baytining mohiyati ham Navoiy talqiniga hamohang. Unda umidsizlik, tushkunlik, badbinlik, tarkidunyochilik kayfiyatlari emas, balki hayotsevarlik, kelajakka ishonch, umidvorlik tamoyili ustuvor. “Tanni darkafan qilmoq” – vujudni dunyo hirs-u havaslari chirkidan poklamoq. Poklangan vujudda ruh sog‘lomlashadi, qushday yengil parvoz etadi, yashash imkoniyatlari ochiladi. Huvaydo aytgan “o‘limdan ilgari o‘lmoq” tushunchasi zimmida ham Navoiy ta’riflagan “yuz ming hayot” ham o‘z ifodasini uradi. Tiynatida kamtarinlik va hoksorlik fazilatlari mujassamlashgan solikkina Huvaydo maslagidagi ishq komilga muyassar, ma’shuqi mutlaq muruvvatiga sazovor bo‘la oladi, degan xulosaga kelamiz.

Huvaydoning pand-nasihatlarini biror insonni kamsitishga yo‘l bermaydi. U har bir insonga ulug‘ odamdo‘stlik e’tiqodi, xayrixoh odamiylik madaniyati bilan muomala qilishni targ‘ib etadi.

Eng muhimi shundaki, shoir inson hurmati va qadrini shunday martabaga ko‘taradiki, har bir odamni uchratganda, Xizr alayhissalomga yo‘liqib katta baxt va davlatga muyassar bo‘lganidek, uni e’zozlashimiz lozim. Huvaydoning insonga muhabbati millat tanlamaydi. Bu muhabbatning umuminsoniy va baynalmilal dasturiga amal qilinsa, yetmish ikki millat xalqi bilan do‘stlashish baxti nasib etadi. Bularning hammasi Sharq axloq odobi mezonlariga to‘la mos keladi.

Shoir nazmidagi muhabbat tasviri boqiy yuzga, abadiy jamolga oshuftalik ishqidir. Huvaydo hayrati boqiy dunyo sirlari, sehr-u sinoatlarini ochishdagi o‘ziga xos uslubdagi mahorati va ijodiy izlanishlar samarasidir:

*Boqiy yuzni foni ko‘z birlan ko‘rolmassan, dedi,
Vah, qachon bo‘lg‘umdurur bu chashmi foniydin xalos.*¹⁸¹

¹⁸⁰ Хожамназар Ҳувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. –Б. 63.

¹⁸¹ Хожамназар Ҳувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. –Б.37.

Darhaqiqat, Huvaydo nazmida va, umuman, mumtoz adabiyotimizda madh etilgan manzur malohatini bugungi foniy dunyo manfaatlariga tikilgan foniy ko‘z bilan ko‘rolmaymiz. Qachonki, omonat va o‘tkinchi dunyo manfaatlaridan yuz o‘girar ekanmiz, dunyoparastlik nigohidan voz kecharkanmiz, o‘shandagina ko‘ngil ko‘zlari ochiladi, boqiy dunyo manzaralari yaqqol namoyon bo‘ladi. Hayot tilsimlarini yechish, dunyoni mukammal ko‘rish, haqiqatni teran anglash, insoniy kamolot pillapoyalaridan sobitqadam ko‘tarilish uchun Huvaydo nazmini doimiy hamrohimizga aylantirmog‘imiz lozim.¹⁸²

Namanganlik shoir Mullo Yo‘ldosh Xilvatiyning Ismatulloh Abdulloh tomonidan nashr etilgan devonida u Huvaydoni bobom deb atagan. Adabiyotshunos olim Ismatulloh Abdullohning ta’kidlashicha, Xilvatiy ona tomonidan Huvaydoning evarasi, ya’ni to‘rtinchi avlodi bo‘lgan. Devonda shoir quyidagi muhim ma’lumotlarni yozib qoldirgan:

Xolmuhammad eshon bobom muhrlari:

El tilida Xojamnazardur otim,

Xojama manzurligim nisbatim.

Hodiyi din Xolmuhammad avra’i sohib adab.

Validim Xoja Nazar budu Huvaydosi laqab.

Tarixi vafoti Huvaydo bobom

Xirad munshisi tarixi vafotin

Bitibdur “G‘oyib o‘ldi qutbi yodiy”¹⁸³

Bu ta’rix bo‘yicha hisoblasak, Huvaydoning vafot etgan yili hijriy 1200 / milodiy 1785-yil bo‘lib chiqadi. Bu ta’rixda oxirgi “hodiy” so‘zi “yodiy” yozilgan, shuning uchun ham farq qilyapti.

Mustabid sovet davrida xalqimizning milliy, madaniy va diniy qadriyatlari poymol etildi, tasavvuf adabiyoti va falsafasi haqida so‘z yuritish tamoman ta’qiqlandi, buyuk iste’dod egalari Ahmad Yassaviy, So‘fi Olloyorlar qatori

¹⁸² Нусратулло Атоулло ўғли Жумахўжа. Хувайдо тасаввуфий шеърларида фалсафий-бадний талқин. // “Шарқ юлдузи” журнали, 1998. №4. –Б.181.

¹⁸³ Мулло Йўлдош Хилватий. Девон. –Тошкент: Фан, 2001. –Б. 3.

Xojamnazar Huvaydo ijodi ham diniy-mistik adabiyot vakili sifatida deyarli o'rganilmadi.

Akademik Vohid Zohidov va Suyima G'aniyevlar tomonidan nashrga tayyorlanib, chop etilgan Huvaydoning "Tanlangan she'rlar" (Toshkent, 1961) to'plamiga 72 g'azal va 11 ruboiy kiritilgan bo'lib, bu zabardast shoir va mutasavvifning badiiy mahorati va falsafiy qarashlari haqida to'la ilmiy tasavvur bera olmas edi. Shu bilan birga o'sha davr ruhi bilan kitobga yozilgan qisqa so'zboshida mualliflar hukmron mafkura tazyiqi ostida shoir ijodiga noxolis va biryoqlama, Sho'ro g'oyalari nuqtayi nazaridan tanqidiy yondashganlar.

Huvaydoning diniy-axloqiy va badiiy qarashlari xalq ommasining ma'naviyati va ma'rifatini yuksaltirmay turib, jamiyatda ijtimoiy adolatni qaror toptirib bo'lmaydi, degan g'oya asosiga qurilgan edi. Shuning uchun ham shoir zamona nosozliklari va nohaqliklarining asl sabablarini dastavval ma'naviy qashshoqlikdan, imon-e'tiqodsizlikdan izladi: kishilarni ma'naviy kamolot (Alloh vasli)ga yetishmoq uchun vujud sahrosini bosib o'tishga, nafs balosidan qutulish va qalb uyini poklashga da'vat etdi.

Shoir o'zining o'lmas asarlari bilan xalqimiz ma'naviy olamini tong yulduzi kabi yoritib turajagini orzu qilib, yozgan edi:

Kuyub, hasrat bilan yig'lab keturman ushbu dunyodin,

*Charog'i subhidam yanglig' ko'p o'chmas(lik) nishonim bor*¹⁸⁴.

Sharq mumtoz adabiyotida Qur'on oyatlari, hadis yoki diniy afsona rivoyatlarga ishoralar, xalq dostonlaridan olingan parchalar ko'plab uchraydi. Huvaydoning Haqqa munojoti o'zbek tilida yozilgan bo'lsa-da, unda arabcha va forscha istilohlarga keng o'rin berilgan.

Huvaydo g'azallarida aksar an'anaviy timsollar istifoda etilsa-da, g'oya va tuyg'ularning toqazosi bilan ularning yangi-yangi qirralari kashf etiladi, shoirning betakror, o'ziga xos badiiy salohiyati namoyon bo'ladi.

Huvaydoning ahli riyo haqidagi she'rlari g'oyat kuchli yozilgan. Shoir riyoni asos e'tibori bilan zohidlar kirdikorini ochish orqali qoralaydi. Tasavvuf

¹⁸⁴ Хожамназар Ҳувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 12-13.

adabiyotida riyo axloqiy ixlos va diniy e'tiqodning eng dahshatli ofati sifatida talqin etiladi. "Riyokor mo'min sodiq kofirdan badkirdorroq" degan tushuncha xalq orasida keng tarqalgan. Muhammad (s.a.v.)dan "ummatlaringiz uchun eng qo'rqadiganingiz nima?" – deb so'raganlarida, "Riyodur", deb javob bergan ekanlar. Eng dahshatlisi riyokorlar o'z qilmishlarini el ko'ziga maqbul qilib ko'rsatishgan. Riyokor g'oyat munofiq sanalgan. Shoir zohidga qarata:

Zohido, savmu salot ettim deyub ko'p urma lof,

*Bextarini toat uldur bo'lsa nafsing 'a xilof,*¹⁸⁵ –

der ekan, adabiyotimizda, xususan, Alisher Navoiy ijodida ko'p uchraydigan nafsni tiyish, uning bandasi bo'lmaslik, degan axloqiy g'oyani ilgari suradi.

Shoirning g'azallarida tavba-tazaru qilishga da'vat etiladi. Bu g'oya Huvaydoning:

Tun-u kun aylabon gunoh, qilmagan hech savob o'zum,

*Parvarish aylabon badan, qilg'uchi xo'rdu xob o'zum,*¹⁸⁶ –

deb boshlanadigan g'azalida o'z aksini topgan.

Tavba–shariatda vojib, tariqatda shart, sulukda lozim bo'lgan tushuncha o'laroq, bandaning Parvardigor tomon safari-hayotidagi yetti manzil – maqomlardan birinchisidir. Tasavvuf istilohatida tavba ruhning bedorligidir, deb ta'rif qilinadi. Allohning ismlari orasida Tavvob (tavba qabul qiluvchi) ismi borligi bejiz emas. Qur'oni karimda tavba 87 o'rinda keltirilgan. Payg'ambar (s.a.v.) "har kuni 70 marta tavba qilaman", – degan ekanlar. Shuning uchun Huvaydo ham tavbaga o'z she'riyatida keng o'rin ajratgan¹⁸⁷.

Ayrim tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, XVIII asr Turkiston xalqlari tarixida ijtimoiy-siyosiy parokandalikning kuchayishi, tasavvuf g'oyalarining qadrsizlanishi, diniy e'tiqodning kuchsizlanishi, zulm va adolatsizlikning kuchayishi, xalq hayotining og'irlashishi bilan xarakterlanadi¹⁸⁸. Huvaydo ijodida

¹⁸⁵ Хожамназар Хувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – Б. 54

¹⁸⁶ Хожамназар Хувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – Б. 84.

¹⁸⁷ Хувайдо. Кўнгил дарди. –Тошкент: МЕРИЮС, 2009. –Б.3-4.

¹⁸⁸ Назаров Қ. Билиш фалсафаси. –Тошкент: ЎзМУ, 2005. –Б. 21.

ana shu mash'um tarixiy davr fojealari va xususiyatlari, ayniqsa tasavvuf va din inqirozining muhim alomatlari to'lig'icha o'z ifodasini topdi.

Huvaydo o'zining butun iste'dodi, bilimi va mahoratini diniy qadriyatlarni saqlab qolish va rivojlantirishga, komil insonni shakllantirishning o'ziga xos konsepsiyasini hayotga tatbiq etishga, ahli xoslar va ahli om o'rtasida halollik, rostgo'ylik, poklik, mehnatsevarlik, mehr-shafqatlilik, diyonat, saxiylik, jo'mardlik, ma'rifatparvarlik singari oliyjanob insoniy fazilatlarni targ'ib etishga, zamondoshlari o'rtasida ijtimoiy adolat, insonparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishga bag'ishladi.

Sharq nozik masaladir, ya'ni Sharqda tafakkur uslubi, bilimni ifodalash va o'zlashtirishning nozik mexanizmlari, haqiqatga olib boruvchi, yo'lni yorituvchi o'z strategiyalari mavjud. Sharq tafakkur uslubini sharqona amaliyot va tajribadan olingan uslub yordamida tushunish va anglash mumkin. Har bir orifning haqiqatni bilishi o'ziga xos va takrorlanmasdir. Aynan bir masala yuzasidan izotrop, bir xil e'tiqodga ega bo'lgan, har bir orifning maqom va darajasi, maslagi individual, noyob betakror dunyoqarashining in'ikosidir. Inson ilohiy haqiqatni adekvat va takrorlanmas maqom va manzillarda faqat o'zidan topa oladiki, Alloh ularga ato etgan ilohiy quvvat vositasida haqiqatga erishadi: "Haqiqatga yetishishda ilm va aqldan boshqa yana bir uchinchi, ilohiy mohiyat – valiylik ham bor".¹⁸⁹

Huvaydo she'riyatining o'zbek adabiyoti tarixidagi o'rni shundan iboratki, uning tili va uslubi ko'pincha juda ravon, xalq tiliga yaqindir, sodda (ba'zan uslubdagi shartlilik, chigallilik, tilda forscha va arabcha so'zlar ham oz emas, albatta) Shuning uchun ham shoirning asarlari keng xalq ommasi orasida shuhrat qozondi va she'rlari san'atkorlar repertuaridan salmoqli o'rin oldi.

Huvaydo shaxsiyati va obro'sining xalq orasida keng yoyilganligi haqida so'z ketganda shuni ham aytmoq zarurki, uning xalq ichidagi katta shuhratining yana bir asosiy sababi shoirning nihoyat darajada og'ir sharoitdagi xalqning turmush tarzi ahvoli va hasratini yurakdan his qilib, bayon etganidir, ularning ezgu

¹⁸⁹ Исакова З. Ирфон ва унинг Шарқ тафаккури ривожигаги ўрни (X-XIII асрлар) . Фалсафа фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати, Самарқанд, 2022. – Б. 23-24.

umid va intilishlarini samimiy tarannum qilganligi, “insonga xos bo‘lgan jurba – jur qirralari, jiloli hamda chuqur psixologik holatlarni, nozik hissiyot taronalari va dil sirlarini yuksak mahorat bilan ifodalaganidadir, kuylaganidadir”.¹⁹⁰

Huvaydoning biografiyasidan ma’lumki, u avval maktabda, keyin Qo‘qon madrasalaridan birida tahsil oladi. Otasi vafotidan so‘ng maktabdorlik – mudarrislik va xonaqohlarda va’zxonlik qiladi. Uning maktabdor domla sifatidagi faoliyati, ta’lim-tarbiya sohasidagi ishlari to‘g‘risidagi Mavlono Noseh quyidagilarni yozadi:

*Tutib suhbat davom umrim boricha,
Ba yoron ta’lim erdi fikri yodim.
Dabistonda sa’y aylab tun-u kun,
Yozilgan necha tolibning savodi.*¹⁹¹

Biroq ularning ko‘pchiligi “Badxat, ... g‘alat ... o‘qib bo‘lmas” darajada qaltis ko‘chirilgan ekan. Soqib yurtiga qaytish bilan Huvaydo asarlarini asl holatiga qaytarish ustida ishlab, “jumlag‘a manzur” bo‘luvchi mukammal kitob qiladi. Bu haqda Soqib kitobga muqaddima sifatida yozgan masnaviysida aytadi:

*Soqibi xastadil Salohiddin
Valadi Mavlaviy Sirojiddin
Necha yil shaharlar sayohat etib
Koncha shahr-u makon sayrin etib
Qoshg‘ar-u Yorkand, Oqsu Xo‘tan
Balx-u Xorazm ila Buxoro, O‘zgan,
Ko‘rdi ko‘p nusxan Huvaydoni,
Jumla el ilkida bu imloni,
Jumlasidur g‘alat o‘qub bo‘lmas,
Balki badxat ani ko‘rub bo‘lmas,
Bul sababdin bo‘lib ko‘ngilga xutur,
Bul kitob o‘lsa jumlag‘a manzur,*

¹⁹⁰ Зоҳидов В. Ҳаётбахш бадийят тароналари. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. –Б. 163.

¹⁹¹ Хожамназар Ҳувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – Б. 57.

*Muni ushlab, g‘alatni tashlasalar,
Rost bo‘lgan raqamni ushlasalar.*¹⁹²

“Devoni Huvaydo”ning nusxalari ko‘p bo‘lib, ular turli fondlarda saqlanmoqda. “Devoni Huvaydo” toshbosmada ham chop etilgan.

Huvaydo naqshbandiya tariqati g‘oyalarini izchil davom ettirdi: halol mehnati bilan kamtarona hayot kechirdi; kosiblik, hunarmandchilik va maktabdorlik bilan shug‘ullandi. Otasidan va Xoja Hasan Muhyiddin (xalq orasida Xojam Poshsho nomi bilan mashhur bo‘lgan) hazratlaridan islom dini asoslari va tasavvuf ilmini egalladi. Bu haqda shoirning o‘zi quyidagilarni ta’kidlaydi:

*Ham o‘qub ilm-u adab, bo‘ldum “Aqoid” xoni ishq,
Mushkilotu ilmi fiqh din so‘rsalar berdim javob*¹⁹³.

Shoir dunyoqarashining shakllanishidagi oimllarning biri, shubhasiz, ijtimoiy kundalik hayot ziddiyatlari, adolatsizliklar, qolaversa, zulm va nohaqlikka qarshi faol kurashgan yaqin zamondoshi Boborahim Mashrabning fojeali taqdiri bularning hammasi shoirga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Shu boisdan ham Huvaydo yovuzlik va yomonlikka, zulm va adolatsizlikka qarshi faqat birgina yo‘l bilan, ya’ni ma’rifat bilan kurashishga ahd qiladi. Zamona nosozliklari ham, zulm va nohaqliklar ham oxir-oqibatda xalq tepasida turgan xoja va mullolar, shayx va pirlarning mol-u dunyoga hirs qo‘yishi, dunyoparastligi, ochko‘z va imonsizligi bilan bog‘liq ekanligini yurakdan his qiladi, anglab yetadi. Natijada jamiyatni jaholat, ilmsizlik va nodonlikdan qutkarish uchun odamlar o‘rtasida islom ma’rifati va tasavvuf hikmatlarini targ‘ib etish, zarur degan xulosaga keladi, bular shoirning ijoddagi va hayotdagi prinsipial pozitsiyasini tashkil etadi.

Shu boisdan ham Huvaydo zamona nosozliklardan shikoyat qilmadi, balki xalqqa hidoyat yo‘lini ko‘rsatishi va unga rahnamolik qilishi zarur bo‘lgan xoja va mullolarning chirkin qiyofasini ro‘y-rost butun borlig‘icha ochib tashladi. Bu boradagi kuzatishlarimizni shoirning quyidagi mulohazalari to‘liq tasdiqlay oladi:

Du ro‘za izzati dunyo uchun, ey xojau mullo

¹⁹² Абдуллаев В.А. Ўзбек адабиёти тарихи. Иккинчи китоб. –Тошкент: Ўқитувчи, 1980. –Б. 88.

¹⁹³ Хожамназар Ҳувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 255.

*O'qub ilmingga qilmasang amal, monandi shaytonsan*¹⁹⁴

Yoki

Zamona pirlari dunyoparastdur, haqparastdur,

*Masihodek pir uldur, mol-u dunyodin sivo bo'lsa.*¹⁹⁵

Yoki

So'fi aylar suratini ba'zilar so'fiy dema,

*Haqqi mardumg'a ani qo'l solmoqi kam bo'lmasa.*¹⁹⁶

Huvaydo tasavvufning insonparvarlik, bag'rikenglik, ma'rifatparvarlik, jo'mardlik g'oyalarini targ'ib etishda so'z san'atining an'anaviy majoz, ramz va boshqa badiiy vosita hamda imkoniyatlaridan mohirona foydalandi. Shogirdi Noseh Chimyoniy ta'kidlaganidek, she'riyat vositasida Huvaydo uchun asosiy maqsad xalq orasida tasavvufiy g'oyalarini yoyish, inson qalbini ma'rifat ziyosini bilan charog'on etish, odamlarni g'aflat uyqusidan uyg'otish, "oqillarga ishora, g'ofillarga tanbih" berishdan iborat edi.

Mutasavvif shoirlar asarlaridagi "may", "mayi vahdat" – Alloh nomini zikr qilish, uning muqaddas nomi bilan sarmast bo'lib yurish va shu orqali tasavvufning og'ir, mashaqqatli yo'llarini bosib o'tib, Allohning vasliga yetish, uning diydoriga musharraf bo'lish timsoli mumtoz shoirlar she'riyatidagi mayni xuddi ana shu ma'noda tushunish kerak.

Sharqda yozilgan asarlar Allohga hamd, payg'ambarlarga na't bilan boshlangan. Ayniqsa, xamsachilik an'analariga ko'ra, har bir dostonning boshida hamd yoki munojot bo'lishi shart hisoblangan. Dostonlar ichida barcha mavzular, o'sha mazmuni davom ettirgan va chuqurlashtirgan. Huvaydo devonida ham shu an'ana davom ettirilgan. Devonlarni tartib berganlar ularda birinchi raqam Allohga hamd – munojotini, keyingi o'rinlarga esa Payg'ambarga na't va mo'minlarga pand-nasihat – ma'vizalarni tartiblaganlar. Hamdlarda Allohning sifatlari, qiyomat kunining bayoni, mo'minlarga buyurilgan farz amallari ifodalangan. Shunday g'azallarda muallif o'zi va millatdoshlari qilgan gunohlari uchun rahmdil Allohdan

¹⁹⁴ Хожамназар Ҳувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 255.

¹⁹⁵ Хожамназар Ҳувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 96.

¹⁹⁶ Хожамназар Ҳувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 68.

uzr so‘raydi va gunohlar uchun beriladigan dahshatli jazolarni inson ko‘z oldiga keltirib, yangi gunohlardan tiyilishga chaqiradilar. Bunday munojotlarni tarjimon arab, fors va turk adabiyotida ko‘p bora uchratgan edi. Xartmann munojotdagi iltijo va hamdlarni, qiyomat kunining tasviri, Allohga tavba qilishning usullarini Ahmad Yassaviy she‘riyatida bu jihatlar aynan Yassaviydan boshlangan deb yozadi.¹⁹⁷

Huvaydo she‘riyatining Yevropaga dastlabki kirib kelishi o‘ziga xos tarixga ega. XIX asrga kelib, Sharq allomalarining asarlarini qo‘lyozma usulida ko‘paytirish yetarli bo‘lmay qoldi. Keng kitobxonlarning tobora oshib borayotgan ehtiyojini qondirish uchun devon, manoqib, she‘riy to‘plamlar, bayoz va darsliklarini taraqqiy etgan o‘lkalardagi nashriyotlarda ko‘paytirish yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Yassaviy, Navoiy, Mashrab, Huvaydo kabi shoirlarning devonlari Toshkentdagi Ilin va Porsev, Qozon universiteti, Sharqning boshqa bir qator bosmaxonalarida toshbosma usulida chop etilgan. Ana shu nashrlarning ayrimlari turli yo‘llar bilan Rossiyaning markaziy shaharlariga ham yetib borgan. Natijada rus sharqshunoslari Huvaydo g‘azallarini ona tillariga tarjima qilish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Jumladan P.Falev, G.Andreyev, F.Korsh, M.Gavrilov, A.Samoylovich kabi turkshunos olimlar shoir asarlarini u yoki bu darajada o‘rganishgan.¹⁹⁸

Albatta, bu tadqiqotlarda Huvaydo ijodiga to‘liq va xolis baho berilgan, deb bo‘lmaydi. Ularning aksariyatida shoirning shaxsi, tasavvufiy qarashlari va g‘azaliyoti haqidagi umumiy fikrlar mavjud, xolos.¹⁹⁹

Huvaydo ham olam va odamning mohiyatini teran anglaydi. O‘zi bilgan haqiqatlar bilan zamondoshlarini oshno etishga harakat qiladi. Ularni o‘z nafslaridan g‘olib, kamtar, kamsuqum, qanoatli, muhabbatli ko‘rishni orzu qiladi. Huvaydo insoniyatning barcha ranj-u falokatiga sabab bo‘luvchi omillardan biri

¹⁹⁷ Тоджиходжаев М. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари Мартин Хартманн таржимаси ва талкинида. – Тошкент: Баёз, 2016. –Б. 123.

¹⁹⁸ Худайбердиев А. Жизнь и творчество Ходжаназара Хувайдо. Дисс...канд.фил.наук. –Ташкент: 1990. –стр. 7.

¹⁹⁹ Тоджиходжаев М. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари Мартин Хартманн таржимаси ва талкинида. – Тошкент: Баёз, 2016. –Б. 113.

keng ma'nodagi nafs ekanligini e'tirof etadi. Shoir nafsning qilmishini ajdarhoga o'xshatadi:

*Nafsing seni qattig' balo, albatta, urgil poy anga,
Har dam seni o'tqa solur, zinhor berma roy anga...
O'z royiga qo'ysang oni, bir damda ajdarho bo'lub
Boshing yutarg'a o'g'ragay, erkingni berma boy anga.*²⁰⁰

Manmanlik, takabburlik ham nafsga mag'lublikning bir ko'rinishidir. Inson tabiatidagi bu nuqsonning oxiri qanday xotima topishini shoir ibratli, hayotiy xulosalar orqali bayon etadiki, bu, albatta, uning yuksak darajadagi mahoratidan darak beradi:

*Chandon kishilar "dunyo mening" deb quchub o'tti,
Dunyo talashib bir-biridin qon sochib o'tti,..
Man-man dedilar, sig'madilar ushbu jahong'a,
Ko'rgilkim, ani uch qarich yerni quchub o'tti.*²⁰¹

Huvaydo g'azallariga nazar solsak, ular asosan, oshiqona va orifona ruhdagi g'azallar ekanligini kuzatamiz. Orifona g'azallarida shoir dunyoning qorong'u kechmishlarini fosh etish bilangina cheklanib qolmaydi. Balki, undan qutulish, ozod bo'lish yo'l-yo'riqlarini ham ko'rsatadi. O'z zamondoshlariga uni yengish tamoyillari bilan tanishtiradi. Xususan, shoirning fikricha, dunyoni tanishning faqat bitta yo'li bor: – u ham bo'lsa– kamolot hosil qilish, Allohni – mardi Xudo bo'lishdan iborat:

*Dunyoni bilib, ravzanidin mardi Xudolar,
Solmay nazarin anga, yiroqdin qochib o'tti.*²⁰²

Xojamnazar Huvaydo g'azallari bilan tanishar ekanmiz, uning o'z zamondoshlarini Allohning yo'liga, ya'ni tariqatga kirishga da'vat etishdan oldin o'zining bu yo'lga kirishdagi iztirob, ikkilanish, mashaqqat va uqubatlarini ro'y-rost bayon etganligiga guvoh bo'lamiz. So'fiy shoirning ta'kidlashicha, nafs, orzu-havas, ahli avlod va dunyoga mehr qo'yish bor ekan, inson hech qachon gunohsiz

²⁰⁰ Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. –Тошкент: Фан, 2006. –Б. 115.

²⁰¹ Хожамназар Ҳувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 102.

²⁰² Хожамназар Ҳувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 116.

yashay olmaydi. Yo‘l qo‘yilgan gunohlarning ajri esa faqat nadomat va istig‘for qilishdan iborat ekanligidir.

Xullas, Xojamnazar Huvaydo g‘azallari orqali riyokorlik, ikkiyuzlamachilik, ta‘magirlik, johillik, shuhratparastlik, ilmsizlik, nodonlik, kibr singari illatlarni ayovsiz tanqid qildi. Shu ma’noda uning asarlari o‘ziga xos “mir’oti qalb”, ya’ni qalb ko‘zgusi vazifasini o‘tadi. Bu ma’rifatparvar va donishmand mutafakkirlarga xos muhim xislat bo‘lib, Xoja Ahmad Yassaviy boshlab bergan adabiy an‘ananing ijodiy rivojlantirilishi edi.

Yevgeniy Edvardovich Bertelsning "So‘fizm va tasavvuf adabiyoti" ilmiy tadqiqotida ta’kidlanganidek, tasavvuf adabiyotini o‘rganmasdan turib, o‘rta asr Sharq musulmonlarining madaniy hayoti haqida aniq tasavvur hosil qilishning iloji yo‘q.

Uning mumtoz vakillari to XX asrning boshlarigacha ko‘plab sharq adabiyotlariga ta’sir o‘tkazib keldi. Bularning barchasi bizni bu adabiyotga kuchli e’tibor qaratishga majbur qiladi. Inchunun, musulmon sharqining deyarli barcha ulkan adiblari u yoki bu ma’noda tasavvuf bilan bog‘langanlar. Binobarin, bu adabiyot bilan tanishmasdan, ularni to‘liq tushunish dushvordir.

2.3-§. So‘fiy alloma dostonlarida tasavvuf ta’limotining badiiy mohiyati

Xojamnazar Huvaydo adabiy merosidagi tasavvufiy qarashlarining bosh manbayi, shubhasiz, Qur’on va Hadis ilmi, buyuk avliyolarning diniy-tasavvufiy g‘oyalari sanaladi. Nafaqat mazkur ulug‘ shoir uchun, balki barcha musulmon ham Muhammad (s.a.v.) payg‘ambar shaxsi inson kamoloti va ummatlari haqida g‘amxo‘rlik qilishning ideal namunasi bo‘la oladi. Bu o‘rinda birgina misol: Allohning yo‘liga kirib, podsholik taxtidan, oilasi va farzandidan, dunyoning aysh-u ishratidan yuz o‘giran Balx podshosi Ibrohim Adhamning hayoti, tasavvufiy qarashlari ham uning ijodiy kamolotida muhim manba bo‘lib xizmat qilganligini adabiyot tarixidan ma’lum. Bizning tadqiqot obyektimiz Xojamnazar Huvaydo o‘zining she’riy devoniga kiritilgan barcha janrlarga oid asarlaridagi tasavvufiy

qarashlarini ixcham va lo‘nda bayon etishda Qur‘on oyatlari va hadis hikmatlaridan mohirona foydalanganligini ta‘kidlash joiz. Keyingi davr ulamolarining Xojamnazar Huvaydo devonini “mag‘zi Qur‘on” deb atashlari bejizga bo‘lmagan. Zero, har bir ixlosmand va tadqiqotchi islom dini tarixi, payg‘ambarlar hayoti, ta‘limoti haqida Qur‘onda keltirilgan qissalar, hadis ilmi haqida muayyan nazariy bilimlarga ega bo‘lmay turib, Xojamnazar Huvaydo merosida ilgari surilgan tasavvufiy g‘oyalarni tushunish, jiddiy tahlil qilish ancha mushkul ish.

Tadqiqotimizning ushbu qismida shoirning “Rohati dil” dostoni haqidagi kuzatishlarimizni qisqacha berishni lozim topdik.

Shuningdek, “Rohati dil” asarida er va xotin, ota-ona va farzandlar, qo‘ni-qo‘shnilar o‘rtasidagi huquqiy munosabatlar sodda va mazmunli bayon etilgan bo‘lib, shoir shariat hukmlarini keng targ‘ib etish orqali ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirish mumkin, deb hisoblaydi. Xojamnazar Huvaydo ilm–ma‘rifat, jamiyatdagi qoloklik, qashshoklik, zulm va adolatsizlikni bartaraf etishning yagona oqilona yo‘lidir, degan g‘oyadan kelib chiqib, farzandning ota-ona oldida to‘rtta haqi borligiga, xususan, yaxshi ism qo‘yish, xatna qilish, uylash (kuyovga chiqarish) va maktabga berish zarurligiga e‘tiborni jalb etadi²⁰³.

Mutasavvif Huvaydoning mazkur asarida, iymon-e‘tiqod, ilm-ma‘rifat ustiga qurilsagina, u mustahkam va sobit bo‘lishini, inson ma‘naviy kamolotining muhim omiliga aylanishini, unda ham diniy, ham dunyoviy ilmni rivojlantirish zarurligini alohida uqtiradi. Shoir bunday qarashlarini asoslash uchun ibratli hikoyalar keltiradi. Jumladan, ilm olish niyatida musofirchilikda qiynalgan va o‘tinfurushlik qilayotgan mo‘minni ma‘yus holda ko‘rgan Muhammad (s.a.v) ilm savobiga sherik bo‘lish uchun unga Jabroyil bilan birga yaqindan yordam berganligini tasvirlaydi. Payg‘ambarimizning “Olimlar payg‘ambarlarning vorislari, Allohning bandalarga

²⁰³ Рўзматзода Қ. Хожамназар Хувайдо диний-мистик қарашларининг XVII-XVIII асрлар Марказий Осиё тасаввуфи ривожигаги ўрни. Фалсафа фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент, 2020. –Б. 213.

rahmatidur”, – degan ibratli hadislarini keltiradi.²⁰⁴ Shuni ta’kidlash joizki, so’fiy shoir she’riyatida islomiy g’oyalar ustivor.

Huvaydo – mutasavvuf shoir. Bu iqrор barcha ilm-u she’r ahliga ma’lum. Uning naqshbandiya tariqatining soliki ekanligi ham ma’lum haqiqat. Chimyonlik ushbu shoirning naqshbandiya tariqatiga mansubligi aniq bo’lsa, u holda bu mavzuga yana bir karra murojaat etishning zarurati bormikan degan savol tug’ilishi tabiiy. Bu savolga “Huvaydo va tasavvuf” mavzusiga yana ko’p bor murojaat etish zarur deb javob qaytarish joiz ko’rinadi. Chunki XVIII asr o’zbek adabiyotining zabardast shoiri Xojamnazar Huvaydo ijodi haqida T.Jalolov, V.Zohidov, V.Abdullayev, R.Orzibekov, S.G’aniyeva, A.Xudoyberdiyev, I.Sulton kabi adabiyotshunoslar juda ko’p e’tiborli fikr-mulohazalar bildirgan bo’lsalar-da,²⁰⁵ zamon va mafkura tazyiqi tufayli, uning so’fiyona qarashlari borasida atroflicha to’xtalish imkoniyatidan mahrum edilar. Shuning uchun naqshbandiya tariqatiga xos suluk adadlari talablarining Huvaydo ijodidagi zohir bo’lish shakllari xususida endilikda bermalol fikr yuritish vaqti yetib keldi.²⁰⁶

Huvaydo o’z zamonasi talablaridan kelib chiqib, barcha kishilarni Xudodan qo’rqishga, iymonni butun tutishga chorlaydi. U shunday yozadi:

Dema har kimni sen mo’min musulmon,

Xudotars bo’lsa, uldir ahli iymon.

Xudotarslik musulmonliq nishoni,

Erur ba’zi musulmon az kasoniy.

Nasihatni Huvaydo aylasang go’sh,

Bu dunyo ne’matini qil faromush.

Umid lek bo’lsa gar xurliqodin,

Ko’ngil uzgil jahoni bebaqodin.

²⁰⁴ Рўзматзода Қодиркул. Хожамназар Хувайдонинг тасаввуфий қарашлари. Монография. –Тошкент: ZILOL BULOQ, 2019. –Б. 106-107.

²⁰⁵ Жалолов Т. Бону. –Тошкент, 1961, –Б. 41-50: Ўзбек шоиралари, 2-нашр. –Тошкент. – Б. 285-291; Зоҳидов В. Шоми ғариб, Шаккок ва исёнкор шоир – Ҳаётбахш бадиият тароналари, 1987-1956.; Абдуллаев В., Орзобеков Р. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш жилдлик. 3-жилд. –Тошкент, 1978. –Б. 367-377.; Худойбердиев А. Жизнь и творчество Ходжаназара Хувайдо. Дисс...канд.фил.наук. –Ташкент: 1990.; Иззат Султон. Нақшбандия адабиёти, –Тошкент, 1994.

²⁰⁶ Жувонмардиева Н. Хувайдонинг “Роҳати дил” маснавийсида сўфиёна мотивлар.// “Ўзбек тили ва адабиёти” журналы, 1996. №2. –Б. 12-13.

O'tkinchi dunyo ne'mati boqiy dunyo halovatiga ziddir. Chunki insonga berilgan nafs hamma vaqt yaratuvchining yodidan uning fikrini chalg'itadi. Shu bois har bir musulmon farzandi mudom Xudoning qahridan, do'zax azoblaridan qo'rqib qadam bosishi lozim, Huvaydo "Rohati dil" masnaviysida kishilarning ko'ngil ko'zini ochish maqsadida "jahannam" tasviriga, uning har bir qavati va ularga tushuvchi insonlar haqida alohida-alohida to'xtaladi:

Mazkur asarda tasvirlanishicha, jahannamning birinchi qavati Hoviya, ikkinchi qavati Jahim deb yuritiladi va unga iymoniga xiyonat qiluvchi, yolg'onchi, chaqimchi, zinokor odamlar tushadi. Uchinchi qavati Saqar deyiladi va unga zolimlar, poraxo'r qozilar, ilmiga amal qilmagan haromxo'r olimlar tushadilar. To'rtinchi qavatining oti Luzo bo'lib, unga shayton bilan hamrohlik qilgan to'rt turli kishilar tushishadi. Beshinchi qavatning oti Sa'ir bo'lib, unga bo'za ichuvchilar, tarozidan urib qoluvchilar tushadilar. Qur'onni bilmay qiroat qilgan va hadislarni noto'g'ri talqin qilgan, ularga yolg'on qo'shganlar tushadigan jahannam qavati Xatma deb ataladi. Nihoyat, do'zaxning yettinchi qavati Nor deb atalib, unga noinsof olib sotarlar, qo'shnilariga nasihat qilmaganlar, o'zgalarga laqab qo'yuvchilar, benamoz kishilarga ne'mat berganlar tushadilar.²⁰⁷

Ta'kidlash lozimki, Huvaydo do'zaxning har bir qavati va ularga tushuvchi tabaqalarni birma-bir sanab ko'rsatish orqali kishilarni iymon-insofga chaqiradi, Xudodan qo'rqishga, toat-ibodat qilishga chorlaydi. Uningcha, ko'ngilni Alloh ishq bilan safarda tutish, uning oynasini o'tkinchi dunyo ko'piklari bilan xira qilmaslik lozim. Bu o'rinda bir narsaga alohida ahamiyat berish lozimki, O'rta Osiyo xalqlarida Xudotarslik tamoyili shu darajada kuchli tashviq etiladiki, natijada, uning ta'siri so'fiylik tariqatlarida o'z ifodasini topgan. Biroq shunday mutasavviflar ham o'tganki, ular jannat umidi va do'zax vahmi bilan Xudoni eslashga qarshi edilar. Ana shulardan biri Robiya – Adaviya (708-801) bo'lib, uning targ'iboticha, inson jannat ta'masi va do'zax qo'rquvidan xoli o'z xohishi,

²⁰⁷ Жувайнмардиева Н. Хувайдонинг "Роҳати дил" маснавийсида сўфиёна мотивлар.// "Ўзбек тили ва адабиёти" журнали, 1996. №2. –Б. 16.

butun vujudi va dili bilan sevishi, unga sig'inishi lozim. Ana o'shanda bu ishq haqiqiy va muqaddas bo'ladi.²⁰⁸

Albatta, Robiya qo'ygan bunday talablar tasavvuf falsafasidagi maksimalizmdan iborat. Jahannam qo'rquvi va jannat ta'masidan tashqaridagi yaratuvchi ishq bu – ideal ishq. Ammo bunday ishq bo'lishi qiyin. Gunoh va savobi bir-biriga vobasta bo'lgan XVII asr sharoitida faqat jannat orzusi bilan ishtiyoqmand etish, do'zax azobi bilan qo'rqitish orqaligina kishilarni imonu insofga chorlash mumkin edi, xalos. Mana shu narsani teran mutasavvuf Huvaydo "Rohati dil"da jannat tavsifi-yu jahannam azobi bilan qo'rqitishga, faqat shu ishni qilish orqaligina o'z zamondoshini insof-u adolatga, imon-u sadoqatga chaqiradi. Chunki shoirning asl maqsadi foniylar dunyo va boqiy dunyo avsofini qilish emas, balki bir-biriga zid ikki xilqatni eslatish orqali kishilarni insofga chorlash, adolatga yo'llashdan iborat edi.

Huvaydoning "Rohati dil" dostoni Farididdin Attor asarlari ruhidagi pandnoma bo'lib, inson kamoloti uchun zaruratlar tartibi va tuban xislatlar tanqidi hikmatomiz mav'izalar hamda tamsiliy hikoyalar vositasida olib boriladi. Masalan: hamma ganjga egalik qilish umidida bir birini pinhoniylar qatl etgan tamagir uch aka-ulkaning taqdiri haqidagi hikoya Attor "Ilohiynoma"sidagi tamagir hamsafarlarning achchiq qismatini esga soladi. Doston kompozitsiyasi konsepsiya va uning isbot-dalili tarzida qurilgan.

Xullas, Huvaydo o'zbek adabiyoti tarixida naqshbandiya tariqatini qabul kilib, uni badiiy ijodiyotida keng targ'ib etgan mutafakkir shoirlar qatorida qadrlanadi. Uning bir g'azalidan olingan mana bu baytlar badiiy faxriya emas, balki haqiqiy e'tiqod ifodasi desak, to'g'riroq bo'ladi.

...Faqirlik taxtida shohanshahi rui zamindurman:

Shahi chin birla qaysarni g'ulom-u mardikor ettim.

Tamoshoi jahon qilsam, hama o'z nafsiga hayron,

*Urub yerga bu nafsimni, ayog' ostida xor ettim.*²⁰⁹

²⁰⁸ Ислом энциклопедияси. 9-жилд, 1964. –В. 588-590.

²⁰⁹ Хожамназар Ҳувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 239.

Huvaydoning ajdodlari naqshbandiya sulukining nomdor vakillari bo'lgan bo'lsa, uning avlodlari ham tariqatda, ham she'riyatda bobolari an'analariga sodiq qolgan.

Nabirasi Sirojiiy taqvodor arbob, shoir sifatida mashhur bo'lgan. Chevarasi Salohiddin Soqib esa istedadli shoir bo'lish bilan bir qatorda, naqshbandiya tariqatidagi tasavvufiy istilohlarni sharhlab, asar yozgan Yana bir chevarasi shoira Samarbonu bobolari va umuman atoqli salaflariga ixlosi va sadoqatini she'riy misralarda ifodalagan:

*Iloho, sayyidi qul Xoja Ahmad,
Aningdek yaxshilardin bo'lsa behad.
Iloho, hurmati ul Xoja Hofiz,
Manam bulsam ruboiy ichra mahfuz.
Iloho, hurmati Amir Alisher.
Ba haqqi So'fi Ollohyordek er.
Iloho, hurmati u Shamsi Tabriz,
Mani bu yerda rasvo qilmagaysiz.
Iloho, rohati dildur Huvaydo,
Bobom nisbatlari qilgaymu shaydo!
Tasadduq men bo'lay, sultoni olam,
Chimiyon xalqiga sizdur mukarram...*²¹⁰

Keyingi asrlarda Naqshbandiya tariqati asosan, murshid va muridlik munosabatlari tarzida omma orasida keng ildiz otadi. Nafaqat ziyolilar, balki oddiy xalq orasida ham pirga qo'l bermagan kishilar kam bo'lgan.²¹¹

Naqshbandiya talablaridan yana biri "xilvat dar anjuman" bo'lib, xuddi mana shu talab ham mazkur tariqatni yassaviya tariqatidan alohida ajratib turadi. Chunki ko'pchilik orasida ham inson xilvatga chekina olishi, ya'ni Alloh ishqida

²¹⁰ Жалолов Т. Гўзаллик оламида. –Тошкент, 1979. –Б. 202.

²¹¹ Исҳоқов Ё. Нақшбандия таълимоти ва ўзбек адабиёти. –Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2002. –Б. 117.

ko'ngul uzlatiga berilishi shavqining yaratuvchi visoliga bo'lgan ishtiyoqning kuchliligi hamda samimiyligini ko'rsatadi.²¹²

“Rohati dil” asarining tarkibi va mazmun-mohiyatiga e'tibor qilsak, dastlab ta'kidlash zarurki, uning g'oyasini insonning ichki dunyosini shakllantirish, ma'naviy jihatlarini boyitish, islom shariati ruknlariga ongli ravishda chuqur e'tiqodda amal qilish kabi mavzular tashkil etganligini kuzatamiz. Asar islom axloqi aqidalarini, farz-u sunnatlarini xalq orasida tashviq qiluvchi ko'pdan ko'p diniy axloqiy hikoyatlar va rivoyatlar berilganligini ko'ramiz. Ulardagi obrazlarning bir guruhi iymon, soflik, halollik, poklik, insoniylik, ikkinchi guruhi esa g'azab-nafrat uyg'otuvchi qiyofadagi obrazlardir. Tahlilga tortilgan bu manzuma ko'p asrli adabiyotimizda qalamga olinib, tashviq, targ'ib qilib kelingan shariat yo'riqlarini adabiy vositalar, obrazlar, she'r tizimi orqali xalqqa ta'sir o'tkazishga bag'ishlangan mukammal asardir. Ularda Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Navoiy, Mashrab, So'fi Olloyor asarlaridagi diniy-ma'rifiy mavzu va g'oyalar rivojlantiriladi. Shu bois uni “g'ofillarga tanbeh, saboq bo'lishi uchun” yozganligini ta'kidlagan edi. Shoir bu holni quyidagi misralarda ham urg'u bilan eslatib o'tadi:

*Ketar, bil andin insof-u diyonat,
Kecha-kunduz bulur fikri xiyonat.
Yig'ilsa mol-u mulkat misli Qorun,
Ko'zi to'yimas, qilay der boz afzun...*²¹³

Huvaydoning fikricha, xalqqa sidqidildan xizmat qilish uchun ahli xoslar safida turish, rasmiy unvon va lavozimlarga ega bo'lish shartmas. Zero, naqshbandiya tariqatining ulug' peshvolari mansabga intilishni, sadri majlis bo'lishi va hatto mansabdorlar bilan bir dasturxon atrofida o'tirishni ma'qul ko'rmaganlar: zohiran xalq bilan, botinan Haq bilan birga bo'lishga intilganlar. Odamlarni hidoyatga da'vat etishni, insof-diyonatli va adolatli bo'lishni, peshona

²¹² Жувонмардиева Н. Хувайдонинг “Роҳати дил” маснавийсида сўфиёна мотивлар.// Ўзбек тили ва адабиёти, 1996, №2. –Б. 16.

²¹³ Хожамназар Ҳувайдо. Девон. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 97.

teri bilan halol yashashni, miskinlarga xayr-u ehson qilishni, odamlarga hamdard va mehribon bo‘lishni insoniy burchim, deb bilganlar.²¹⁴

Xoji Salohiddin va Mirza Hakim ibni Mirza Umid Marg‘iloniylar ko‘chirgan devonda axloqiy-didaktik mazmundagi “Rohati dil” manzumasida ham berilgan. Huvaydo “Rohati dil” asarini avval nasrda yozib, so‘ng nazmga aylantirganini uqtirib, mana bunday degan:

*Kitobim oti erur “Rohati dil”,
Erur har bir so‘zi tanbehi g‘ofil,
Ko‘ngilning shahri sori azm qildim,
Kitobim nasr erdi, nazm qildim.*²¹⁵

Huvaydo o‘zining mazkur manzumasida Qur’oni karimning muqaddas qoidalaridan kelib chiqib, islom dinining barcha afzalliklarini ibratli hayotiy misollar bilan ko‘rsatishga, tiriklikda qilingan barcha gunohlar uchun ham, savobli va xayrli ishlar uchun ham narigi “chin” dunyoda albatta tegishli jazo va mukofotlar berilishini, Allohning karami kengligini, ammo gunohlar uchun jazo ham muqarrarligini alohida ta’kidlagan. Xususan, tahlilga tortilgan dostonning “Qiyomatnoma” deb nomlangan bobida mol-u dunyo uchun hirs qo‘yganlar, “faqir (kambag‘al) nonin yegonlar”, odamlarga zulm qilgan boy va sudxo‘rlar, dunyoning ikki kunlik rohatini deb hadislariga yolg‘on ma’no bergan mullolar, ta’magir, so‘zni so‘zga ulovchi chaqimchi, g‘iybatchi va tuhmatchilar mahsharda jahannam uqubatlariga mahkumligini bir qator hadis va rivoyatlar asosida bayon etadi²¹⁶.

Ayni holatlar, birinchidan, mazkur dostonning xalq orasida katta shuhrat topishiga va tez tarqalishiga, ikkinchidan, o‘qimishli va qiziqarli manba sifatida qabul qilinishiga sabab bo‘ldi deyish mumkin.

Ko‘hna tarix sahifalaridan shu narsa ayonki, insoniyatni loqaydlik, jaholat, g‘aflat tanazzulga yetaklaydi, ezguliklardan yiroqlashtiradi, oqibatda ma’naviy qashshoqlikka mahkum etadi. Shu boisdan ham mumtoz adabiyotimiz vakillari barkamol insonni tarbiyasini eng muhim va mas’uliyatli vazifa deb bilishgan.

²¹⁴ Хожамназар Хувайдо. Рохати дил. Иброҳим Адҳам. –Тошкент: Наврўз, 2011. –Б. 12.

²¹⁵ Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. –Тошкент: ЎзФАШИ. Инв. №8642, 20-варақ.

²¹⁶ Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. –Тошкент: ЎзФАШИ. Инв. №8642, 20-варақ.

Zamondoshlariga kamolotga, ma'naviy xazinalarga yo'l ko'rsatishgan. Jumladan, Huvaydo "Rohati dil" dostonini ham xuddi shu muammolarga bag'ishlagan. Uning masnaviy yo'lida yozilgan ushbu dostonidagi ba'zi o'rinlar xalq orasida mashhur. U she'rlaridagi mazmun g'oyani to'ldiradi va teranlashtiradi.

Huvaydoning tahlilga tortilgan dostonida insoniyatning faqat moddiy boylik uchun emas, balki ma'naviy boylik uchun intilishi kerakligini ogoh etadi. Bu yo'ldan bormagan har bir insonning hayvondan farqi qolmaganligini ta'kidlaydi:

*Talab qil ma'naviy ganj, ey birodarlar,
Vagarna sandin avlo gov ila xor...
Kishi bo'lmasa ma'nidin xabardor,
Ani odam dema, de naqshi devor.*²¹⁷

Shoir dostonining yozilish sababiga alohida kichkina bob bag'ishlaydi. Undan biz shoirning nasl-u nasabi, tug'ilgan joyi, ismi sharifi haqidagi yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni bilib olamiz. Huvaydoning doston yaratishdan maqsadi, tarixi borasidagi fikrlari bilan tanishamiz:

*Bu Chimyon shahrining piri javoni,
Tamomisi erurlar turkiyxoni.
Alar garchi so'zga behunarroq,
Dedim bo'lsa kitobim turkiy behroq...*²¹⁸

Keltirilgan manbalardan ayon bo'ladiki, Huvaydoning "Rohati dil"ni yozishdan bosh maqsadi o'z zamondoshlarini ma'naviy g'aflatdan uyg'otish. U asarni dastlab nasrda yozgan, keyinchalik talab va takliflarni inobatga olib, uni nazm yo'li bilan qayta yaratgan. Shoirning butun umri kechgan Chimyon shahri aholisi turkigo'y bo'lgani uchun dostonni turkiy tilda yozgan. Doston tarkibiy tuzilishiga ko'ra, 30 bobdan va Ibrohim Adham hikoyatidan iborat. Asar an'anaviy tarzda – Allohga hamd va payg'ambarlarga na't bilan boshlangan. Keyin chahoryorlar – Abu Bakr Siddiq, Umar, Usmon va Alining ibratli faoliyatlari

²¹⁷ Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. (XVI-XIX аср I ярми). –Тошкент: Фан, 2006. –Б. 120.

²¹⁸ Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. (XVI-XIX аср I ярми). –Тошкент: Фан, 2006. –Б. 120.

bayoni berilgan. Shariat qonun-qoidolari, talablari sharhlangan. Shundan so‘ng bir qancha pandnoma – hikoyatlar keltirilgan.²¹⁹

“Rohati dil” mazmun-mohiyatiga ko‘ra, diniy-didaktik asar hisoblanadi. Unda islom va tasavvuf ta’limotining umuminsoniy g‘oyalari ibratli hikoyalar vositasida tahlil etilgan. Mol-dunyoga hirs qo‘yish, nafsga qul bo‘lishining oqibatlari, bilim olishning ulug‘ligi, ilm ahli izzatini o‘rniga qo‘yish; ota-ona oldidagi farzandlik burchini ado etib, roziligini olish; qo‘ni-qo‘shnilarning bir-biriga mehr-oqibatli bo‘lishi; eru xotinning mehr-muhabbatli bo‘lib, izzat-hurmatini joyiga qo‘yishi; riyokorlik, xiyonat, ta’magirlik, takabburlik, munofiqlik kabi inson tabiatidagi illatlarni fosh etish masalalari asarning markazida turadi. Bu muammolarning har biri qisqa hajmli hikoyalarda xalqona uslubda sodda, tushunarli tilda bayon etib beriladi. Bu asar mohiyatiga ko‘ra, komil insonni tarbiyalashga qaratilgan badiiy manba sanaladi. Inson o‘z-o‘zini tanishga, tabiatidagi nuqsonlarni yo‘qotishga da’vat qilinadi. Asar yaxlit syujet chizig‘iga ega emas. Ammo undagi fikr, g‘oya, mazmunni birlashtirib turadigan yagona umumlashma – komil inson tarbiyasi masalasi bor.²²⁰ Bu masalalarning hammasi Sharq xalqlari musulmonlari hayotida, har bir jamiyatda ustivorlik qilganligini ilmiy jamoatchilik xabardor.

Xojamnazar Huvaydoning masnaviy yo‘lida yozilgan “Rohati dil” manzumasi va “Ibrohim Adham” qissasi adabiyotimiz tarixida juda mashhur bo‘lib, ular shoirning dostonavislik salohiyatini ko‘rsatuvchi birlamchi manba bo‘la oladi. Bu asarlarni Huvaydoning o‘zbek mumtoz pandnomasi xazinasiga qo‘shgan munosib hissasidir, deb baholash lozim. N.Jumaxo‘janing fikri bilan aytganda, “Rohati dil” g‘ofil yuraklarni nasihat nurlaridan munavvar etuvchi ma’rifiy manzumadir.²²¹

Huvaydoning devoniga kiritilgan turli shakldagi she’rlari, asosan, o‘sha davrdagi jamiyatning o‘qimishli, ma’rifatli qatlami uchun, “Rohati dil” dostoni va

²¹⁹ Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. (XVI-XIX аср I ярми). –Тошкент: Фан, 2006. –Б. 121.

²²⁰ Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. (XVI-XIX аср I ярми). –Тошкент: Фан, 2006. –Б. 120.

²²¹ Нусратулло Атаулло ўғли Жумахўжа. Хувайдо тасаввуфий шеърларида фалсафий-бадий талқин // Шарк юлдузи, 1998, №4. –Б. 178.

“Ibrohim Adham” qissasi esa ilmdan uzoq bo‘lgan mehnatkash xalq uchun mo‘ljallangan asarlar sifatida baholash lozim. Har bir asarning yozilish tarixi, qo‘yilgan maqsad va vazifalari bor. Masalan, shoir “Rohati dil” dostonining “Sababi nazmi kitob” bobida tojik tiliga behunarroq bo‘lgan Chimyon ahli uchun nasriy hikoya va rivoyatlarni turkiy tilda bayon qilish, zamondoshlarini islom ma’rifatidan bahramand etishni, o‘zidan bir yodgorlik qoldirishni maqsad qilib qo‘yganini aytadi:

*Chu mandin qolsa dedim yodgori,
Kitobim ketsa har shahru diyori.
O‘qib shoyad yoronlar yod qilg‘oy,
Duoda ruhi pokim shod qilg‘oy.*²²²

Mazkur dostonning mutolaasini amalga oshirgan o‘quvchi undagi har bir rivoyat va hikoyat oxirida shoir tinglovchini o‘z qilmishlari haqida mulohaza yuritishga, bilib-bilmay qilgan gunohlari uchun tavba qilishga, Allohga munosib banda, uning rasuliga munosib ummat bo‘lishga undaganligini kuzatadi, bu boradagi muayyan fikr-mulohazalarini boyitadi, tegishli vazifalarini o‘z oldiga belgilab oladi:

*Yemay to‘yguncha dunyo ne‘matini,
Tilab doim gunohi ummatini
Ki avval to ba oxir ummatiy deb,
Jahondin o‘ttilar ummat g‘amin yeb.
Ajabdir sandin, ey nomard ummat,
Yetarsan tunu kun bo xobu g‘aflat
... Ayo ey, sharmi yo‘q sharmanda ummat ,
Qani qilg‘on namozu farzu sunnat?*²²³

“Rohati dil” asarining asosiy g‘oyasini insonning ichki dunyosini shakllantirish, eng avvalo, insonda e’tiqodning sobit o‘rin olishi, so‘ngra islom dini ruknlariga ongli ravishda amal qilish kabi mavzular tashkil etadi. Dostonga kirgan

²²² Хожамназар Ҳувайдо. Роҳати дил. Иброҳим Адҳам. –Тошкент: Наврӯз, 2011. –Б. 8.

²²³ Хожамназар Ҳувайдо. Роҳати дил. Иброҳим Адҳам. –Тошкент: Наврӯз, 2011. –Б. 8-9.

har bir hikoyatda uning qahramoni o'ziga xos tuyg'ular bilan to'lib-toshgan. Bunday omil asar obrazlarining hayajonli va to'laqonligini ta'minlagan. Hikoyatlarining deyarli hammasida voqealarning ishtirokchilari muallifning falsafiy e'tiqodi bilan chambarchas bog'langan insonlardir. Ular ikki guruhga bo'linadilar: birinchi guruhdagilar imyon, soflik, halollik, poklik, insoniylik kabi fazilatlar timsoli sifatida rivoyatlarda ishtirok etsalar, ikkinchi toifadagilar buning teskarisi, ya'ni g'azab-nafrat uyg'otadigan qiyofadagi obrazlardir. Asar boshdan-oyoq o'quvchilar qalbida eng nozik his-tuyg'ularni uyg'otadi, ularda hayotga muhabbat, imyonli, pok e'tiqod egasi bo'lishga chorlanadi. Asardagi turli qiziqarli va ibratomuz voqealar asar qahramonlarining taqdiri bilan mustahkam bog'lanib ketadi. Har bir inson o'z qilmishi, yurish-turishi va amallariga ko'ra ma'lum bahoga sazovor bo'ladi. "Rohati dil" asari hamd-u sano, na'ti Rasululloh bilan boshlanadi. So'ngra Jabroil alayhissalomning tobut haqidagi hikoyati bayon etilgan. Muhammad payg'ambarning choryorlari: Abu Bakr as-Siddiq, Umar, Usmon, Ali ibn Tolib hamda imom Hasan va Husayn shahzodalarga bag'ishlov boblari keladi. Muallif kitobning yozilish sabablarini bayonidan so'ng, qiyomat kunining sharhini tafsiloti bilan so'zlashga kirishadi. Asarda ibratomuz hikoyatlar birma-bir bayon qilinadi. Asar "Munojot ba jonibi qozi-yu – l – hojat" ya'ni, Alloh-u taologa murojaat – iltijo bilan yakunlanadi.

"Rohati dil" asariga kirgan hikoyat va rivoyatlarning asosiy yo'nalishi islom dinining qisqacha bo'lsa-da, tarixiga murojaat etish va islom dini asoslarini bayon qiluvchi rivoyatlar, diniy-axloqiy hikoyatlar orqali o'quvchi ongi, uning tashqi va ichki dunyosini islom ma'naviyati bilan boyitishga qaratilgandir. "Rohati dil" ko'p asrlik adabiyotimizda mavjud bo'lgan din tarixini adabiy vositalar orqali o'rganishga qaratilgan asardir. Afsuski, zamonaning zayli bilan bu doston o'z vaqtida nashr qilinmay kelgan. Vaholanki, bu kitobda insonning falsafiy dunyoqarashi, yaratuvchisiga bo'lgan eng nozik dil tuyg'ulari, qolaversa, iymondagi sobitlik, toat-ibodat, halollik, rostgo'ylik, poklik kabi har bir musulmon farzandi bilishi ham farz, ham qarz bo'lgan eng yaxshi insoniy xislatlar kuylangan.

“Rohati dil” dostoni badiiy jihatdan teran va o‘ziga xos uslubga ega bo‘lgan adabiy manbadir. Bu asar mumtoz adabiyotimizda keng qo‘llanilgan masnaviy janrining mahsulidir. U hazaji musaddasi mahfuz vaznida yozilgan.

Asar maxsus yaxlit bir syujet va kompozitsiya chiziqlariga tizilmagan bo‘lsa-da, hikoyatlardagi o‘zaro bog‘lanish, aniqrog‘i, har bir rivoyat mazmunning uyg‘unligidan dalolat beradi. Asarning markazida, musulmon olamidagi Alloh yaratgan banda – inson yotadi.

Huvaydo har bir hikoyatning hayotiy mazmuni va bosh qahramonning qiyofasini badiiy ifodada ochib berishga kirishar ekan, o‘ziga xos uslub, yuksak badiiylilik, tilning ravonligi, she‘rning jarangdor va o‘ynoqiligini rang-barang bo‘yoqlar orqali ochib beradi. Dostondagi har bir misra o‘quvchining to‘lqinlantiradi, undagi chuqur mazmunini idrok etishga chorlaydi.²²⁴

Xojamnazar Huvaydo “Rohati dil” nomli she‘riy doston ham yozgan. Doston diniy masalalarga bag‘ishlangan bo‘lib, Allohga bag‘ishlangai hamd-u sano bilan boshlanib, Payg‘ambar sharaflariga na‘t, chahoryorlar haqida ma‘lumotlardan keyin qiyomat, jahannam, jannat bayonlari berilgan. So‘ng payg‘ambarlar, mashhur sahobalar, avliyolar haqida ibratli hikoyatlar keltirilib, inson hayoti uchun zararli va gunoh ishlar bo‘lmish ichkilik, boylikka hirs qo‘yish, yolg‘onchilik, zino qattiq qoralangan. Axloq-odob va tarbiya sohasida bu doston muhim ahamiyatga ega²²⁵.

Bu asar Saidbek Hasan tomonidan hozirgi o‘zbek imlosida nashr etildi,²²⁶ u har bir o‘zbek o‘quvchisi xonadoniga kirib borgan.

Barkamol avlodni tarbiyalash, xalqimizni o‘zi yaratgan ma‘naviy qadriyat sarchashmalaridan bahramand etish umumdavlat siyosatiga aylangan hozirgi sharoitda Huvaydo devonining tuzatilgan va to‘ldirilgan ikkinchi nashri muhim ma‘rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga molikdir.²²⁷

²²⁴ Хожамназар Хувайдо. Роҳати дил. Саидбек Ҳасан. Ҳассос шоир ва дostonнавис. –Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. –Б. 4-5.

²²⁵ Хожамназар Хувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 11.

²²⁶ Хожамназар Хувайдо. Роҳати дил. Саидбек Ҳасан. Ҳассос шоир ва дostonнавис. –Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994.

²²⁷ Хожамназар Хувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. –Б.7.

Huvaydoning birinchi toshbosma devoni uning chevarasi shoir Salohiddin Soqib tomonidan 1907-yili Toshkentda “Kitobi eshon Huvaydoyi Chimyoniy” nomi bilan bosilgan. Kitobning hoshiyasida “Rohati dil” dostoni ham chop etilgan. Mazkur to‘plamga Soqib, Sirojiiy, Ofoqxoja, Umarxon, Muhammad Alixon, Fitrat Xo‘qandiy, shayx Nizomiddin, Imom Rabboniy, Bahouddin Naqshband, Xoja Hofiz, G‘avs ul-A‘zamlarning vafot tarixlari (186-194-betlar), Jomiy, Xoji Muhyiddin, Nomiy, Akmalxon To‘ra, Xojaviy Kirmoniy, Badr Jurmiy, Xoja Shamsiddin kabi shoirlarning forsiy turkiy g‘azallar bitgani qayd etilgan. Bu asar Huvaydo qalamiga mansubdir. Devon oxiridagi Salohiddin Soqib kitobning chop etilishi haqida masnaviy shaklda she‘riy xotima yozgan. Unda mazkur kulliyot (to‘plam) mashhur xattot Muhammad Shohmurod kotib (1850-1922) tomonidan 1325 hijriy (milodiy 1907) yili ko‘chirilib chop etilgani ko‘rsatilgan.(240-bet)

Devondagi g‘azallar arab harflari asosida birinchi baytning oxirgi harfi bo‘yicha alifbo tartibida berilgan, keyin bu tartib buzilib, g‘azallar alifboga itoat etmagan holda tartibsiz joylashtirilgan.²²⁸

Alisher Navoiy “Nasoyimul-muhabbat” asarida ana shu so‘fiy haqlarida: “Mulukdin erkoni xud mashhurdir. Yigitlikda tavba tavfiqi topti. Ibrohim Adhamning holoti bag‘oyat ko‘ptur. Bir kitob bitsa bo‘lur”²²⁹, deb yozadi. Ibrohim Adham Balxda podsho edi, qalbiga ilohiy nur quyilib bir kechada hamma narsasini tashlab, darvish kiyimini kiydi, deb rivoyat qilinadi. Tasavvuf ahli esa buni ulug‘ mardlik, jasorat deya baholaydi.²³⁰

Jahonni tark qildi, Mashrabo Ibrohim Adhamdek,

*Sarapo dard ko‘rdim, muddaoni ko‘rmadim hargiz*²³¹.

Mutasavvif Xojamnazar Huvaydo salafi bo‘lgan zamondoshlari Mashrab va boshqa so‘fiy shoirlarga xos bo‘lgan jihatlarini tahlil etishda biz Mashrabning ba’zi bir qarashlarini keltirib o‘tishni lozim topamiz. Bunday yo‘l tutishdan asosiy maqsadimiz Ibrohim Adham bilan bog‘liq fikrlarni oydinlashtirish va Huvaydo

²²⁸ Хожамназар Хувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005, –Б. 13.

²²⁹ Алишер Навоий. Асарлар. 15 томлик. Ўн бешинчи том. –Тошкент: Фафур Гулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1968. –Б. 78.

²³⁰ Нажмиддин Комил. “Ҳикмат ва ибрат” дostonи. –Тошкент: Тафаккур, 2003, №3. –Б. 69.

²³¹ Хожамназар Хувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005, –Б. 103.

maqsadlarini tadqiq etishdan iborat. Boborahim Mashrab Ibrohim Adham va Mansur Hallojni tez-tez tilga oladi. Nomlari afsonaga aylangan bu ikki mo'tabar zotni Mashrab o'zining g'oyibona piri komili deb qabul qiladi, ular a'moli va aqidalarini boshqalarga ibrat qilib ko'rsatadi. Zero, Ibrohim Adham podsholik taxtidan, davlati boyliklaridan butkul voz kechib (VIII asr) darvish hirqasini kiyib, so'fiylikni qabul qilgan shaxs. Bugina emas, u hukmdorlar, a'yonlar mol-mulkini, alqissa mehnatsiz topilgan jamiki sarvatlarni harom, deb e'lon qilib, o'z mehnati vositasida halol non topib, yeyishni talab qilgan. Hatto shohlarning sovg'a-salomini ham olmagan, o'zi qo'riqlayotgan bog'ning mevasidan bo'lsa bironing moli deb ishqomdagi shingil uzumning yeganida, ularni rozi qilish voqeasini eslatadi.

Mashrab onalari Bibi Salimaga bag'ishlab yozgan she'rlarida ham Ibrohim Adhamni tilga oladi. O'zi ham Ibrohim Adhamdek gado-yu darvish bo'lib yurganligini, uning maqomiga yetishish orzusi ekanligini bayon etadi. Dunyo majorolaridan etak silkkan, Yaratganning vasli, Ishqi bilan yongan Ibrohim Adham mardligi, uning shu holga solganligini, habib-do'stning tajalliysi Alloh ekanligini e'tirof etadi:

*Bu toj-u taxtni baxtimni qilib toroj ishqida,
Ki Ibrohim Adhamdek gado bo'lg'on balang keldi.
Ichib jomi baqoni, kechdi dunyo mojarosidin,
Ki mastoni Xudog'a oshno bo'lg'on balang keldi.
Iloho, Mashrabingni noumid etma, Xudoyimsan,
Habibing xonadonig'a gado bo'lg'on balang keldi.*²³²

Samarqandlik tadqiqotchi Saodat Yo'ldosheva "Shohning faqirlik falsafasi, Ibrohim Adham: badiiy to'qimalar va tarixiy haqiqat" tadqiqiy-ilmiy maqolasida Huvaydoning "Dostoni Ibrohim Adham" va "Ibrohim Adham qissasi" dostonlari asosida Ibrohim Adham podsholigi, uning o'z ixtiyori bilan toj-taxtni tashlab, faqirlik yo'liga kirganligi haqidagi fikrlarni tahlil etgan: Manbalarga ko'ra Ibrohim Adham Balxda tavallud topgan. Keyinchalik bu shaharga hukmdorlik qilgan.

²³² Mashrab. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. –Б. 90.

Y.E.Bertels fikricha, u harbiy xizmatchi oilasida tug‘ilgan. Ibrohim Adham zamonasining barcha ilmlarini mukammal egallagan, yetuk kishi bo‘lgan, u aslzoda oilasida kamolga erishgan. Qissa va dostonda yozilishicha, uning onasi Balx shohining qizi – Malikai Hubon, otasi kayoniy podshohzodalaridan devona Adham bo‘lganligi zikr qilinadi. Uni olamga mashhur qilgan narsa nasl-nasabi emas, undagi iymon va e’tiqod, insonparvarlik qarashlardir. Ibrohim Adham rostgo‘y va davlatmand kishi edi. O‘shal zamonda barcha insonlarga Ibrohimning qilgan ishi va so‘zi hujjat edi, ya’ni “bu ishni yo bu so‘zni Ibrohim qildi va dedi” desalar, hech kishi xilof qilmas edi. Ibrohim Adham shohlik martabasiga erishgunga qadar ham el orasida donishmand va avliyo kishi sifatida nom taratgan. Shu boisdan Muhammad Siddiq Rushdiy uni nafaqat dunyoning, balki “Dinning ham ulug‘ shohi, uzlat olamining ganji”, deb ta’riflaydi.²³³

U podshoh bo‘lgandan keyin ulamo va fuzalo, sayyidlarga va faqir-u bechoralarga, ko‘r va shollarga xayr-u ehsonni, in’omni bisyor qilib, ularning duo-i xayrini oladi. Allohga bo‘lgan muhabbat shu darajada yuksak ediki, natijada u mamlakatni idora qilish huquqidan – shohlikdan ixtiyoriy tarzda kechib, qalandar yo‘lini ixtiyor etganligini ta’kidlaydi:

Tark etibman mol-u jonimni bukun Adham kabi,

*G‘ayrate ko‘nglumg‘a bergil, mard shaydullo bo‘lay.*²³⁴

Alisher Navoiyning “Nasoyimul-muhabbat” asarida yozilishicha, shikorga chiqqan Ibrohimga g‘oyibdan ogohlantirish keladi va hayotda yashashdan maqsadi nima ekanligini unga eslatib qo‘yadi. Shundan so‘nggina u Allohni yodga olib, tavba qiladi va toat-ibodatga beriladi. Shohlikdan faqirlikni afzal ko‘radi.²³⁵ Ayni holat tasviri “Ibrohim Adham” qissasida ham o‘z ifodasini topgan. Unda quyidagilarni o‘qiymiz:

Alg‘araz ul kecha taxtni ustiga chiqib yotib erdi. Nogoh ko‘zidin uyqusi qochti va Sulton Ibrohimni odati andog‘ erdikim nisfi shab bo‘lg‘onda tong

²³³ Йўлдошева С. Шоҳнинг фақирлик фалсафаси. // –Тошкент: Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1998, 25 декабрь.

²³⁴ Хожамназар Хувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005, –Б. 109.

²³⁵ Йўлдошева С. Шоҳнинг фақирлик фалсафаси.// –Тошкент: Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1998, 25 декабрь.

otguncha uxlamay nomoz o‘qub va tilovati Qur’on qilib , zikr-u tasbih etib o‘lturub erdi va bul kecha har kundan erta turib, otlarig‘a non berib, va taqi taxt ustig‘a chiqib o‘lturub erdi. Nogoh ko‘rdikim: tomni ustidan bir odam yuribdur. Aning ayog‘ini sharpasi keladur. Sulton Ibrohim anga aydikim: “–Yurubdursan?” – dedi. Ers, ul kishi aydi: – Man a’robi bo‘lurmankim tevachidurmen, teva axtorib yururman”, – dedi. Anda Sulton Ibrohim aydi: “ – Nechuk axmoq odam turursan tomni ustida teva axtarursan. Yolg‘onchi, o‘g‘ri, kazzob bo‘lmag‘aysan? – deb Sulton Ibrohim siyosat qilib, tushgil, yo‘q ers, o‘ldururman”, –deb bir so‘z dedi:

*Tevang bo‘lsa cho‘lda, mandin so‘rmag‘il,
O‘g‘ri, qallob bo‘lmag‘aysan zamona.
Ibrohim der o‘ldururman, man sani,
Bu manzillar podshohlikni maskani.
Borgoh uzra kim keturdi tevani,
Gazanda o‘g‘risan mulki jahona.²³⁶*

Andin so‘ng a’robi aydi: “ – Ey Ibrohim, ahmaq va kazzob san turursan, aning uchunkim, atlas va kamxob va mashruh liboslarni kiyib, qand-u nabot va shahd-u shakar va turluk noz-u ne’matlarning va bu taxtni ustig‘a chiqib, podshohlik qilib, aytursankim, man Xudog‘a bandaman, va bul sha’ni – shavkat bilan da’voyi bandalik qilursan. Ajab bo‘lurmu tom boshida , Teva axtarsam”, – deb ul odam g‘oyib bo‘ldi. Ers, Sulton Ibrohim bu so‘zni eshitib, o‘zini taxtdin tashlab bibi Zulfiya oyimg‘a boqib va yana ko‘shki ravoq va ayvon va bog‘larga qarab, man ketarman, sizlar xush qolinglar, deb bu g‘azalni o‘qudi:

*Man turmonim emdi, ey yori jononim, xo‘sh emdi,
Yolg‘uz qolg‘on bul vatanda, mohitobonim, xo‘sh emdi.
Qo‘l yuvdim ushbu dunyodin, dardim ortar dambadamdin
Bizdin ilgori Odamdin qolg‘on ayvonlar xo‘sh emdi.
Chihl gaz birlan shahri Parvin, hech nima yo‘q sandin burun,
Ko‘shki naqshin shahri Parvin, taxti davronlar xo‘sh emdi.²³⁷*

²³⁶ Иброҳим Адҳам қиссаси. –Тошкент: “ЎЗУВЧИ” нашриёти, 1991. –Б. 36-37.

²³⁷ Иброҳим Адҳам қиссаси. –Тошкент: “ЎЗУВЧИ” нашриёти, 1991. –Б. 34-35.

Ibrohim Adham Huvaydoning eng sevimli qahramoni, jo‘mardlik, Alloh ishq iyo‘lidagi fidoyilik timsoli edi. O‘zining “Ibrohim Adham” qissasini ana shu So‘fiy hayotiga, ilohiy va insoniy ishq, umumbashariy va o‘tkinchi qadriyatlarining o‘zaro munosabatlari bayoniga bag‘ishlaydi. Unda halollik, poklik, kamtarinlik, hoksorlik, jo‘mardlik, saxiylik, mehr-muruvvat singari umumbashariy axloqiy qadriyatlarni ulug‘lanadi.

Navoiy lirikasida shoh va gado ma‘nosidagi ba‘zi fikrlarni keltirishda adabiyotshunos Ergash Umarov tomonidan “G‘aroyib us-sig‘ar” devoni materiallari asosida yozilgan ilmiy manba Huvaydoning “Ibrohim Adham” dostonidagi she‘riy parchalarga hamohangligi jihatidan bir-biriga yaqin, mushtarakdir.

Ma‘lumki, badiiy asarning go‘zalligini, kishiga estetik zavq bag‘ishlash darajasini belgilovchi, shoir maqsadini o‘quvchiga to‘la-to‘kis yetkazuvchi omil so‘zdir. Shuning uchun ham Alisher Navoiy:

Ko‘ngul durji ichra guhar so‘zdurur,

Bashar gulshanida samar so‘zdurur,

deb, o‘z asarlarida ulardan o‘rinli foydalandi, o‘zining so‘z tanlashdagi benihoya mahoratini namoyish etdi. Shoir nutq rang-barangligini oshiruvchi omonim, sinonim, ko‘p ma‘noli so‘zlar bilan bir qatorda antonim, qarama-qarshi ma‘noli so‘zlarni juda ustalik bilan qo‘llaydi. Shunday g‘azallar ham uchraydiki, ularda boshdan-oxirigacha antonimlar ishtirok etadi:

Dahf elidin naf’ agar yo ‘qtur, zarar ham bo ‘lmasa,

Marham aro yo ‘qtur ko ‘ngulga nishtar ham bo ‘lmasa,

Olam ahlidin agar yo ‘ktur jigargun sog ‘are,

Koshki yuz ming qadax xuni jigar ham bo ‘lmasa.

Mahvashekim bo ‘lmag ‘ay vaslidin ummidi hayot,

*Xushtururkim jonga hajridin xatar ham bo ‘lmasa.*²³⁸

²³⁸ X.Сулаймон. Алишер Навоий қўлёзмалари тадқиқотидан.// – Тошкент: “Адабий мерос” тўплами, 1973, №3. Б. 88.

Yuqoridagi baytlarda nafʼ-zarar, marham-nishtar, jigargun sogʻar xuni jigar qadah, vasl-hajr, ummed-xatar soʻzlari shoirning zamonadan, zamonasi ahlidan shikoyatini ifodalashda ustalik bilan keltirilgan antonimlardir.

Shuni alohida uqtirish kerakki, shoir har bir soʻzni gʻoyat xassoslik bilan tanlaydi. Soʻzlarning maʼnolaridan oʻz yuksak orzularini, xalqda xizmat qilishdek olijanob maqsadini amalga oshirish uchun foydalanishga harakat etadi. Bu maqsadni Navoiy ikki tabaqa vakili boʻlmish shoh va gado taʼrifini berishda ham amalga oshiradi.²³⁹

Huvaydo tasavvuf tarixida chuqur iz qoldirgan buyuk soʻfiylar hayoti va ularning ibratli amallarini tasvirlar ekan, oʻz zamondoshlarini ulardan ibrat olishga undadi, bu bilan asarlari oqillarga ishorat, gʻofillarga tanbeh boʻlishini orzu qildi:

Izzati dunyo bila hargiz kishi topmas murod,

*Xorlikni pesha aylab, misli Adham boʻlmasa*²⁴⁰

Huvaydo ijodida maʼnaviyat masalalari asosiy oʻrin egalladi. U Imom Gʻazzoliy yoʻlidan borib, inson haqiqati tana, jismda emas, balki ruh, maʼnaviyat sohibi ekanligadandir, deb hisobladi.

Xojamnazar Huvaydo oʻziga zamondosh boʻlgan avomning “tojik tiliga behunarroq” ekanligini inobatga olib, ularga tasavvuf gʻoyalarini emas, balki shariat qoidalari, talab va hukmlarini, farz va sunnat amallarini ilk zohid-soʻfilarning ibratli amallarini diniy rivoyatlar va hikoyalar orqali bayon etdi. Masnaviy janrida yozilgan manzumasini qalblarni gʻubor va kirlardan poklovchi, qalbga huzur va xotirjamlik olib kiruvchi “Rohati dil” deb atadi.

Xojamnazar Huvaydoning masnaviy janrida yozilgan har ikki asari jami 5198 misrani tashkil etadi²⁴¹.

²³⁹ Умаров Э. Навоий лирикасида шоҳ ва гадо маъносидаги антонимларнинг қўлланиши. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1978. №1. –Б. 61.

²⁴⁰ Хожамназар Хувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 208.

²⁴¹ Рўзматзода Қ. Хожамназар Хувайдо диний-мистик қарашларининг XVII-XVIII асрлар Марказий Осиё тасаввуфи ривожигаги ўрни. Фалсафа фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент, 2020. –Б. 135.

Shoir o'z atrofidagi aholining ko'pchiligi o'zbeklar bo'lganligi uchun asarning nasriy nusxasini avval tojik tilida yozib, so'ng "Turkiygo'yxon" kitobxonlarning ehtiyojini hisobga olib, uni turkiy nazmga aylantirgan ko'rinadi:

Bu Chimyon shahrining piyru javoni,

Tamomiysi erurlar turkiy xoni.

VIII asrda Balxda yashab, podsholik qilgan Ibrohim Adhamning tasavvuf (Alloh) yo'liga kirib, podsholikni tark etishidan hayratlangan Huvaydo uchun Ibrohim Adham shaxsi va ma'naviy jasorati jo'mardlik va Xudojo'ylikning yorqin timsoli bo'lib qoldi. Xojamnazar Huvaydoning "Ibrohim Adham qissasi" asari zamondoshlarining didi va saviyasiga mos ravishda masnaviy janrida yaratildi.

Huvaydoning "Ibrohim Adham" dostoni ham asosan diniy-axloqiy yo'nalishdagi asardir. Bu asarning shu nomdagi xalq kitobi namunalari ham yaratilganligi ma'lum. Huvaydoning dostoni o'zbek epik poeziyasi dostonlariga yaqinligi bilan ajralib turadi. Uning "Rohati dil" katta masnaviy asaridan ham ajralib turuvchi xususiyatlari mavjud. Bu doston Ibrohim Adhamlar qismati bilan bog'liq syujet chizig'iga, obrazlar silsilasiga ega bir dostondir. Bu dostonning yuqorida eslatib o'tganimiz, an'analar bilan bog'liq jihatlari ham ko'p. Chunki shu nomdagi hikoyat va qissalar ilgari ham yaratilgan bo'lib, fors-tojik va turkiy adabiyotlarda uning bir qancha namunalari yaratilgan edi. Huvaydo shunday asarlardan kuchli ta'sirlanib, uning turkiydagi yana bir qancha original namunasini maydonga keltirdi, o'z mahoratini dostonchilikda ham namoyish eta oldi. Shoirning bundan ko'zlagan asosiy maqsadi zamondoshlarida halollik, poklik, hoksorlik, dinu diyonatda nihoyatda sobitqadam bo'lishlikni ko'rish, ularga shunday e'tiqodni singdirish edi. Huvaydo bu dostonda ham ezgulik va yovuzlikni ziddiyatli tarzda tasvir etdi. Zolim hukmdorlarga, riyokor shaxslarga, hatto ilmiga amal qilmagan olimlarga nafratini bildirdi.²⁴²

²⁴² Орзибеков Р. Адабий меросимиз сеҳри. –Самарқанд: Самарқанд Давлат университети, 2006. –Б. 126-127.

Alisher Navoiy “Nasoyimul-muhabbat” asarida ana shu soʻfiy haqlarida: “Mulukdin erkoni xud mashhurdir. Yigitlikda tavba tavfiqi topti. Ibrohim Adhamning holoti bagʻoyat koʻptur. Bir kitob bitisa boʻlur”²⁴³, deb yozadi.

Xullas, mutasavvifning taʼkidlashicha, tasavvuf yoʻli – Allohning vasliga olib boradigan yoʻl qorongʻu, xatarli boʻlib, solik bu yoʻldan toymasligi, adashmasligi va dovon ostida qolmasligi uchun avvalo oʻziga munosib asokash (pir) tanlashi, ilmi zohir, yaʼni shariat ilmini egallashi zarur.

Bob boʻyicha xulosalar

1. Naqshbandiya tariqati Bahouddin Naqshbandning podsholar dasturxonida oʻtirish, shubhali taomni isteʼmol qilishni man etish, biror kasb bilan halol yashab, qalbni Alloh bilan, qoʻlni mehnat bilan bogʻlashdan to podsholar bilan yaqinlashish, siyosiy hokimiyatni egallash, “haqparast emas, balki dunyoparast boʻlish”gacha, jamiyat va xalqqa rahnamolik qilishdan to mamlakat va xalqni umumiy inqiroz va parokandalikka mahkum etishgacha boʻlgan gʻoyat murakkab va ziddiyatli yoʻlni bosib oʻtdi.

2.Xojamnazar Huvaydo tasavvuf gʻoyalarini targʻib etishda malomatiya tariqati gʻoyalaridan oʻrinli foydalandi: zamondoshlarining kamchilik va nuqsonlari, ayb va gunohlarini oʻzining shaxsiy kamchiliklari sifatida fosh etdi. Ayni vaqtda ahli ummiy (avom) oʻrtasida islom dini taʼlimotlarini, hadis hikmatlarini ibratli diniy rivoyat va hikoyatlar orqali targʻib qilishga, ularning diniy saviyasini koʻtarishga, shariat ahkomlarini sodda va tushunarli tilda bayon etishga, odamlar oʻrtasidagi munosabatlarni takomillashtirishga harakat qildi.

3. Xojamnazar Huvaydo sheʼriyati tasavvufiy gʻoyalari tahlili haqida fikr yuritilganda, ilk zohid, ilk zohidlar Muhammad (s.a.v.) va u muborak zotning ahli baytlari ekanligi taʼkidlanadi. Navoiyning asarlarida tasavvufning maʼnosi, mutasavviflar haqida ishonarli maʼlumotlar berilsa, Huvaydo risolalarida Ahmad

²⁴³ Алишер Навоий. Асарлар. 15 томлик . Ўн бешинчи том. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1968. –Б.78.

Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Vali, Maxdumi A'zam xojagi Kosoniy, Hidoyatulloh Ofoqxoja kabi mutasavviflarning tasavvufga qo'shgan hissasi, ularning islom olamidagi maqomi va yaratgan ta'limotlarini mazmun, mohiyatini avomga, oddiy xalqqa yetkazish, undan jamiyat uyg'onishi va Xudoni tanishi, islomiy ta'limotning negizi adolat, ilmi bo'lmoq, tarbiyaviy, ta'limiy bilimlarni har bir muslim va muslima bilishini, bu zotlar ogoh etuvchi mutasavvif, so'fiy, shayx maqomida bo'lgani holda xalq ko'zini ochish, ularni dunyoni bilishga chorlash vazifasi ekanligi bilan izohlanadi.

4.Naqshbandiya milliy, mintaqaviy emas, balki umumbashariy ta'limot va ma'naviy qadriyatdir. Uning shakllanishi va rivojlanishi milliy hudud va mintaqalarning tarixiy, madaniy va etnik xususiyatlari bilan uzviy bog'liq ravishda ro'y berdi. Hindistondagi naqshbandiyani Turkistondagi naqshbandiya bilan taqqoslab bo'lmaydi.

5. Shoir she'riyatida tasavvufiy fikrlar talqini haqida xulosa qilinganda, Huvaydo naqshbandiya tariqati g'oyalarini izchil davom ettirdi: halol mehnati bilan kamtarona hayot kechirdi, kosiblik, hunarmandchilik va maktabdorlik bilan shug'ullandi. Padari buzurgi va Ofoqxoja o'g'li Xojam poshsho hazratlaridan islom dini asoslari, shuningdek, tasavvuf ilmini o'rgandi. Huvaydo butun iste'dodini diniy qadriyatlarni saqlab qolish, rivojlantirish, komil insonni shakllantirishning o'ziga xos konsepsiyasini hayotga tadbiq etishga bag'ishladi.

6. Ulug' so'fiy dostonlarida tasavvuf ta'limotining badiiy mohiyati haqida xulosa qilinganda, jamiyatning o'qimishli, ziyoli, ma'rifatli qatlami uchun, "Rohati dil" dostoni va "Ibrohim Adham" qissasi ilmdan yiroq oddiy avom uchun mo'ljallanganligini e'tirof etish lozim. Shoirning "Ibrohim Adham" qissasi ilohiy va insoniy ishq, umumbashariy va o'tkinchi qadriyatlarning o'zaro munosabatlari bayoniga bag'ishlandi.

Foniy (o'tkinchi) dunyo ne'matlaridan voz kechish, abadiy-boqiy dunyo va Alloh vasli umidi Ibrohim Adhamni toj-taxtdan voz kechishga undadi va qilgan xatosi bois Alloh uyi Ka'baga borib, Yaratganga tavba qildi.

III BOB. HUVAYDO MEROSIDA AXLOQIY-TARBIYAVIY VA BARKAMOL AVLOD HAQIDAGI TASAVVUFIY QARASHLAR TALQINI

3.1-§. Shoir merosida axloqiy-tarbiyaviy qarashlar talqini

Mutasavvif Huvaydoning irfoniylar, merosida ilgari surgan umuminsoniy g'oyalar bugungi Mustaqillik davrida barkamol avlodning tarbiyasida adabiy-manba sifatida o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Huvaydoning asarlaridan ma'lum bo'lishicha, u arab va fors tillarini, o'zbek mumtoz adabiyotini, diniy adabiyotini, ayniqsa, Qur'on va Hadislarni mukammal o'rgangan. Zamonasining yetuk olimi, mutasavvif shoiri sifatida shuhrat qozongan, xalq hurmatiga sazovor bo'lgan, eshon Huvaydo nomi bilan nafaqat Farg'ona vodiysi, balki turkiyzabon xalqlar orasida mashhur bo'lgan.

Huvaydo o'zining ma'naviy-intellektual salohiyati, badiiy mahorati va ilg'or tasavvufiy qarashlari bilan XVIII asr o'zbek badiiy adabiyotiga yangicha mazmun va g'oya olib kirgan, uning ravnaqiga g'oyat barakali ta'sir ko'rsatgan ijodkor sanaladi.

Huvaydo jamiyatning ma'naviy hayoti va taqdiri uchun mas'ul bo'lgan ahli xoslar (din, ilm-ma'rifat ahli, hukmdorlar)ni hidoyat va Haq yo'lidan adashmaslikka da'vat etdi. Bu dunyoning bevafo va o'tkinchi ekanligini, ma'naviy

ganj hech qachon o'lmashligini, chinakam insoniy baxt qalbni poklash, Allohni sevish, xalqqa sidqidildan xizmat qilish, o'zingdan yaxshi nom qoldirishda deb bildi. Huvaydo she'riyatning hamma asosiy shakllarida ijod etdi: g'azal, masnaviy, ruboiy va hokazo. Shoir ko'p asarlarining tili juda sodda, mazmundor, iboralari va fikrlari o'ynoqi hamda jo'shqin, ifodaviylik va rangbaranglik, badiiylik bo'rtib turadi.

Huvaydo devonida mag'rurlik, xudbinlik, mansabparastlik va pastkashlikka qarshi kamtarlik, do'stlik, rostgo'ylik va xushfahmlik fazilatlarini targ'ib qiluvchi hikmatli misra va baytlar juda ko'p. Mutafakkir shoir xalq iboralaridan, maqollaridan samarali foydalanish bilan birga, o'zi ham aforizm shaklida ibratomuz misralarni yaratganligi uning mahorati yuksak darajada ekanligidan dalolat beradi:

*Darig'o, hayf, odam bir-birini qadrini bilmas,
Qilur o'lg'onidin so'ng har nechuk odam qadr paydo.
Jafo-yu jabr chekmay kim bo'libdi yorga vosil,
Jafosin chekmaguncha bo'lmag'ay bir parcha non paydo...
Ey Huvaydo, xizmat etmay do'stdin qilsang ta'ma,
Oqibat sandin uzulgay bora-bora poyi do'st...
Alam tortib, yurak kuymay qora ko'zdan to'kilmas yosh,
Qozonni ostig'a o't yoqmaguncha qaynatib bo'lmas...*²⁴⁴

Shoir merosining ko'pchilik qismida insonni kamtar bo'lishga da'vat etgan, xususan, quyidagi baytida ham kamtar bo'lishlikka da'vat etganidek, quyidagi baytida bu g'oya nozik poetik o'xshatmalar asosida g'oyatda go'zal va xotirada tez saqlanib qoladigan qilib ifodalaganligini ko'ramiz:

*G'uncha ko'p og'zini ochqach bog'da qo'ymay uzdilar,
Og'zini ochmasligida bildi bog'bon qadrini.*²⁴⁵

²⁴⁴ Хожамназар Ҳувайдо. Девон. 2-нашри. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. – Б. 372.

²⁴⁵ Ҳувайдо. Танланган шеърлар. –Тошкент: ЎзССР давлат бадий адабиёт нашриёти, 1961. – Б. 96.

Bu misralarda “og‘zini ochmaslik” jumlasida kam gap bo‘lishlik, g‘arazgo‘y bo‘lmaslik mazmuni o‘z ifodasini topgan “bog‘bon qadrini” esa uning parvarishlab yetishtirgan hosiloti, bunyodkorliklari oshirajagiga ishora qilingan.

Huvaydo “Ishqi ilohiy”ni ta’rif va madh qiluvchi she’rlar ham bitgan. Ammo uning ko‘pgina ishqiy she’rlari ilohiyotga aloqasi bo‘lmay, real sevgiga, oshiq-u ma’shuqalarning orzu-maqсадlari ifodasiga, visol ishtiyoqi va hijron iztirobi tasviriga bag‘ishlanganligini kuzatamiz. Bu o‘rinda mulohazalarimizni dalillash maqsadida ayrim misollar keltirish bilan cheklanamiz:

*Qolmas erdi zarracha ko‘nglumda armonim mening,
O‘lsam erdi oldida guldek jamoliga qarab...
Hur ila jannating istay anda yuzingni ko‘rmasam,
Xasta Huvaydo ohiga havz ila kavsaring kuyar...
Dardi yo‘q tanni Huvaydo tan dema,
Bo‘lmasa bir zarra anda dardi ishq.²⁴⁶*

O‘zbek adabiyoti tarixi sahifalariga nazar solsak, juda ko‘plab taraqqiyparvar kishilar shoir merosidagi ana shu mutaraqqiy g‘oya va estetik boylikdan samarali darajada bahramand bo‘lganliklarini, ular Huvaydo she’riyatidagi xalqchillik an’analariга e’tibor berib, bu an’analarni ijobiy baholaganliklarini kuzatamiz. Xususan, shoirning asarlaridan Mujrim, Noseh, Sadoyilardan tortib keyingi asr ijodkorlari Maxmur, Gulxaniy, Ogahiy, Muqimiy va Furqatlargacha ijodiy foydalandilar, she’rlariga naziralar bog‘ladilar. Ayni shu jihatdan qaraganimizda, Huvaydo va mazkur shoirlar ijodidagi yaqinlik va hamfikrlilik quyidagi baytlarda yaqqol ko‘zga tashlanib turadi:

Huvaydoda:

*Saharlarda mening holimg‘a mug‘oni chaman yig‘lar,
Fig‘onimdin yaqo yirtib qizil gul pirahan yig‘lar²⁴⁷.*

Mujrim Obidda:

Guliston ichra kirsam holima sarv-u suman yig‘lar,

²⁴⁶ Хожамназар Ҳувайдо. Девон. 2-нашри. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. – Б. 69.

²⁴⁷ Хожамназар Ҳувайдо. Девон. 2-нашри. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. – Б. 81.

*Qilur bulbul fig'on-u nolalar birla chaman yig'lar.*²⁴⁸

Huvaydoda:

Dardi yo'q bedard kishilar dard qadrin na bilur?

*Dunyoda nomard ko'pdir, mard qadrin na bilur?*²⁴⁹

Ogahiyda:

Bilmagay o'z qadrini, na bilgusi so'z qadrini,

*Hayfdir dono demak nodonni beirfonga so'z*²⁵⁰.

Huvaydoning:

Arzimni aydim bodi sabog'a,

Yetkurs holim ul dilrabog'a.

Qilsa Xudoyim ko'nglun muloyim,

*Rahm aylagaymu man mubtalog'a,*²⁵¹

baytlarini o'z ichiga oluvchi quvnoq va yengil ruhdagi g'azali Muqimiyda:

Arzimni aytay bodi sabog'a,

Shoyad yetkurgay ul gulqabog'a...

Necha zamondur, ko'zga nihondur,

*Har kim yomondur soldim Xudog'a.*²⁵²

tarzida davom ettiriladi. H.H.Niyoziy she'rlarida ham bu g'azalni:

Arzimni aytay bodi sabog'a,

Yetkur salomim gulgun qabog'a,

Qilding Nihoniy ko'p ahl-u paymon,

Har kim yomondur, soldik Xudog'a, - ²⁵³ shaklida tarannum

etilganligini ko'ramiz.

XX asr o'zbek adabiyotining yirik vakili Hamid Olimjonning "Kuygay" radifli g'azalini tinglagan har bir kishi beixtiyor Huvaydoning "Kuygay" radifli g'azalini xotirlaydi. Ayniqsa, bu o'rinda ularda mubolag'aning g'oyat kuchli va

²⁴⁸ Мужрим Обид. Ўзбек адабиёти, Учинчи том. Хрестоматия. –Тошкент, 1959. –Б. 59.

²⁴⁹ Хожамназар Хувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б.93.

²⁵⁰ Муҳаммад Эрнийезбек Огаҳий. Ўзбек адабиёти, Учинчи том. Хрестоматия. –Тошкент, 1959. –Б. 83.

²⁵¹ Муҳаммад Эрнийезбек Огаҳий. Ўзбек адабиёти, Учинчи том. Хрестоматия. –Тошкент, 1959. –Б. 357.

²⁵² Муқимий. Икки томлик асарлар тўплами, 1-том, лирика, –Тошкент: Уздавнашр, 1963, –Б. 6.

²⁵³ Ҳамза. Шеърлар, 1-том, –Тошкент: 1960, –Б. 42.

obrazli ifodalanishi xarakterli ekanligini ta'kidlash lozim. Huvaydo g'azalida lirik qahramon "men" tarzida, H.Olimjon g'azalida esa "sen" tarzida ifodalanadi. E'tibor beramiz:

Huvaydoda:

*Kabobi dudi bag 'rimdin Xo 'tan sahrosig 'a tushsa,
Ushaldi qadri mushkim deb kiyik bag 'rida qon kuygay.*²⁵⁴

Hamid Olimjonda:

*So 'zingni sharpasi tushganda olam bob bob kuygay,
Dengizlar, daryolar, hattoki ko 'llarda hubob kuygay.*²⁵⁵

Huvaydo she'rlarining bunchalik husn-u rag'bat topishi, shuhrat yoyishining sirlaridan biri shundaki, uning asarlari o'z uslubi, nazokati va til xususiyatlari bilan Mashrab singari zabardast shoirlarning xalqchil poeziyasini eslatadi, o'shalar bilan ohangdoshlik qilib, kishilarda chuqur o'y, teran fantaziya va badiiy did uyg'otadi. Huvaydoning uslubi ravon va yengil bo'lgani uchun she'rlarining ko'pi qo'shiqqa aylangan. Huvaydo she'rlarida vafo, sadoqat, pokiza ishq, ma'naviy soflik, muhabbat bobida sobitqadamlik ulug'lanadi. U hayotda razillik va riyokorlikni qoralab, inson orzusi bilan bog'liq bo'lgan xalqchil g'oyalarni ifodalaydi. Mutafakkir va xassos shoir Huvaydo she'rlarida zarrin badiiy bo'yoqlar, obrazlar, lavhalar, favqulodda go'zal chiqqan muayyan baytlar, hikmatomuz fikrlar juda ko'p.

Ta'kidlaganimizdan tashqari yana Huvaydo g'azallarida tajnis, tazod, talmeh, qo'shaloq tashbehlar, ayniqsa, mubolag'a juda keng qo'llangan. Ma'shuqaning go'zalligi ideallashtirilgani singari oshiqning kechinmalari ham ko'tarinki ruhda tasvirlanadi:

*Chu ishq bozorida, jono, chiroying raxtini yozsang,
Ko 'rub Yusuf, Zulayho bo 'lg 'usi oldingda dalloling.*²⁵⁶

²⁵⁴ Хувайдо. Танланган шеърлар. –Тошкент, 1961. –Б. 63.

²⁵⁵ Ҳамид Олимжон. II том. – Тошкент: Ўздавнашр, 1961. –Б.97.

²⁵⁶ Ўзбек адабиёти. Учинчи том, Тошкент, 1959. –Б. 390.

Mutasavvif shoir “musulmonchilikning mag‘zi yo‘qolib, faqat po‘sti qolgan” bir sharoitda “Ko‘rdim hamani ozuqai nafsiga hayron, Hech kim demadi to‘shai uqbo qilib o‘ttim”,²⁵⁷ – deydi.

O‘zbek mumtoz poeziyasi, haqida gap ketganda, ko‘z oldimizga beixtiyor turlicha qarashlar va g‘oyalar ifodasi uchun asrlar davomida aktiv xizmat qilgan xilma-xil original tashbeh va sifatlashlar (epitet), nozik istiora va istioraviy obrazlar keladi.

Bular, garchi she‘riy san‘at sirasiga kirsada, ammo ular klassik she‘riyatning qon-qoniga singib, uning zaruriy elementlariga aylanib ketgan.

Zotan, epitet, tashbeh va istiora faqat Sharq adabiyotininggina emas, balki jahon badiiy tafakkurining eng qadimiy elementlaridan sanaladi. Aristotel “Poetika”sida²⁵⁸ metafora haqida maxsus mulohaza yuritganligi ma‘lum.

A.N.Veselovskiy esa sifatlashga maxsus asar bag‘ishlab: “Agarda men epitet tarixni poetik uslub tarixining qisqartirilgan varianti deb aytsam, hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi”, - deb yozgan edi.²⁵⁹

Said Nafisiy esa tashbehning Sharq adabiyotidagi mavqeyini nazarda tutgan holda, unga shunday baho beradi: “Har bir shoirning katta mahorati tashbehlarda ko‘rinadi. Tashbehda qudratliroq bo‘lgan har bir shoir jahongirroqdir”²⁶⁰.

Xojamnazar Huvaydo avomning diniy savodxonligi va ma‘rifatini yuksaltirmay turib, din va tasavvufni inqirozdan qutqarib bo‘lmaydi, deb hisobladi. Yana muhimi, Boborahim Mashrab va So‘fi Olloyordan farqli ravishda, avvalo, ilmsiz avomning o‘lik qalblarini tiriltirishni, islom dinining muqaddas qonunlari, Qur‘on oyatlari, Rasululloh sunnatlari mohiyatini sodda, lo‘nda qilib bayon etish zarur va muhim deb hisobladi. Shu maqsadda “Rohati dil” manzumasi va “Hikoyati sulton Ibrohim Adham” asarini yaratdi.²⁶¹

²⁵⁷ Хожамназар Хувайдо. Девон. 2-нашри. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. –Б. 257.

²⁵⁸ Аристотел. Поэтика. –Тошкент: Ўқитувчи, 1980. –Б. 42-43.

²⁵⁹ Веселовский А. Н. Историческая поэтика. –Л.: 1940. –с. 73.

²⁶⁰ Рўдаки ва замона ў. Сталинобод, 1958. –Б. 113.

²⁶¹ Рўзматзода Қ. Хожамназар Хувайдо диний-мистик қарашларининг XVII-XVIII асрлар Марказий Осиё тасаввуфи ривождаги ўрни. Фалсафа фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент, 2020. –Б. 29.

Xojamnazar Huvaydoning o‘zbek adabiyoti tarixidagi buyuk xizmatlaridan biri, farzandni maktabga berish va ilmi qilish, musulmon ota-onalarning burchi, farzandi oldidagi qarzi ekanligi masalasini, Rasululloh hadisini dalil sifatida keltirib, kun tartibiga qo‘yganligidadir.

Bu o‘rinda bir qator adabiyotshunoslarning Huvaydo ijodi haqidagi quyidagi fikr-mulohazalarini keltirish va ma’qullash, deb hisoblaymiz: “Xojamnazar Huvaydoning har bir asaridan islom va tasavvuf ta’limotidagi ma’rifat nurlari ufurib turadi... Islom va tasavvuf ta’limotining har bir uzvi komil insonni shakllantirishga qaratilgan. Komil insonlik masalasi, so‘fiylik tariqati o‘nta maqomdan biri nasihat tinglamoqdir. Huvaydo nazmining mazmuni ham insonni nasihat orqali kamol toptirishdir... Nasihat adabiyotining o‘ziga xos jozibali ta’sir kuchi va uslubi bor. Huvaydoning pand-u adabdan xoli birorta asarini uchratish qiyin...”²⁶² Ushbu mulohazaga yaqin fikrni R. Orzibekovda uchratamiz:

Rost ayg‘il egri hargiz so‘zlama,

Ey Huvaydo, kelsa boshingga qilich...

Huvaydoning ayrim she’rlari boshidan oxirigacha tasavvufiy-falsafiy, didaktik mazmunga ega.²⁶³

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, Xojamnazar Huvaydoning tasavvufiy qarashlari kamol topishida So‘fi Olloyorning asarlari birlamchi manba sifatida juda muhim ahamiyat kasb etgan. Qodirqul haqli ta’kidlashicha, So‘fi Olloyor islom dini va tasavvufni inqiroz va halokatdan qutqarishning yagona va maqbul yo‘li jamiyat xos kishilarining diniy ma’rifati, saviyasi va salohiyatini yuksaltirish, Rasululloh sunnatlari, islom dini asoslari (tavhid, kalom, fiqh), tasavvuf ilmi va darvish odobi haqidagi irfoniy bilimlarini oshirish, avomga esa mahshar va do‘zax uqubatlarini eslatish, ayni vaqtda ularda Allohning karami va marhamatidan umidvor bo‘lish hissini shakllantirish, riyokorlik,

²⁶² Нусратилло Жумахўжа. Хожамназар Хувайдо.// “Шарқ юлдузи” журналы, 1998, №4. –Б. 79.

²⁶³ Орзибеков Раҳмонкул. Адабий меросимиз сеҳри. –Самарқанд: Самарқанд Давлат университети, 2006. –Б. 118-119.

takabburlik, ochko‘zlik, yolg‘onchilik singari illatlarga qarshi sabot bilan kurashish deb hisobladi²⁶⁴.

Huvaydoning tasavvufiy qarashlari mazmun mohiyatiga ko‘ra diniy-antropologik xarakterga ega bo‘lib, unda insonni axloqan barkamol qilib tarbiyalash, diniy va tasavvufiy g‘oyalarni rivojlantirish va targ‘ib etish masalasi yetakchilik qilgan. Unda inson ma’naviyatini yuksaltirish, odamlar ongida iymon-e’tiqodini mustahkamlash orqaligina jamiyat duch kelgan murakkab ijtimoiy-siyosiy muammolarni oqilona hal etishi mumkin, degan hayotiy xulosa o‘z ifodasini hisobladi.

Huvaydoning axloqiy-tarbiyaviy va huquqiy qarashlari mutafakkirning ijtimoiy o‘ziga xos komil inson konsepsiyasiga tayanadi. Uning ta’kidlashicha, inson xuddi sahro xilqatidir. U ana shu sahroni butun umr davomida obod qilish va gulistonga aylantirish uchun o‘z botinidagi illatlarga qarshi sabot bilan kurashmog‘i, vujud sahrosini bosib o‘tmog‘i, eng muhimi, hayotida sodir etgan barcha gunohlardan tavba qilishi shart. Demak, inson ma’naviy komillikka intilmog‘i, g‘ofillikdan qutulishi, hamisha Haq yodi bilan yashamog‘i, boshqalarning mushkulini oson qilishga intilishi, o‘z mehnati bilan halol yashashi kerak. Ana shundagina oddiy ma’danga qiyoslangan inson bebaho dur-u gavharga, aziz va mukarram xilqatga aylanadi, komil inson darajasiga ko‘tariladi. Aytilganlardan ma’lum bo‘lsa-da, shoirning merosi va ishq falsafasining asosiy maqsadi ishq falsafasi inson ma’naviyatini yuksaltirish, tasavvufiy g‘oyalarni keng targ‘ib qilish orqali ijtimoiy muammolarni oqilona hal etishga qaratilganligi bilan belgilanadi. Ayni shu omil mamlakatimizda har jihatdan yetuk, barkamol inson shaxsini kamol toptirishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Huvaydo butun hayoti davomida Alloh bergan umrida zamondoshlarning hayoti, xulqi, dili sof bo‘lishligini kuyladi, ularning mehribon va hamdam bo‘lishlarini, bir-birlarining g‘am-alamlariga sherik bo‘lib turmush tarzini yengillashtirishlarini, dardlariga davo berishga, malham qo‘yishlariga intilishlarini,

²⁶⁴ Рўзматзода Қ. Хожамназар Хувайдо диний-мистик қарашларининг XVII-XVIII асрлар Марказий Осиё тасаввуфи ривожигаги ўрни. Фалсафа фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент, 2020. –Б. 210.

xullas, tarqoq sharoit va zulmatda bir-birlariga chirog‘ tutishlarini, ziyo baxsh etishlarini orzu qildi. Shu bilan birga yolg‘izlikdan, hamdard yo‘qligidan qattiq shikoyatlandi, nola chekdi. Shular birgalikda shoir ijodida yuksak insoniy axloq fazilatlarini qay tarzda bo‘lmasin ardoqlash, ko‘klarga ko‘tarish va insonga zid, yarashmaydigan yaramas xulq-atvordan nafratlanish g‘oyalari ustivorlik qildi.

Akademik Vohid Zohidov haqli ta’kidlaganidek, hayotni, uning go‘zalliklarini, odamiylikni samimiy sevgan Huvaydo ijodining yana bir g‘oyat muhim tomoni bor. Bu – bevositalik va sho‘xlik, o‘ynoqilik va jo‘shqinlik, xushchaqchalik, beg‘ubor hazil, yengil zarofat va yoqimli mutoyiba, chiroyli mubolag‘a.²⁶⁵ Mana bu g‘azalga diqqat qilamiz:

*Qoshingga sajda qildim misli mehrob,
Qaro zulfingga qo‘ydim jonni chirmob...
Qo‘l solib keldi sanam bir-bir bosib?
Belig‘a xanjar xamoyildek osib.*²⁶⁶

Yoki mana bu g‘zal matla’si ham yuqoridagi fikrlarimizga hamohangdir:

*Qaro ko‘zung qarolashi na baloi bahaybat emish?
Qaroqchidek mo‘ralashi, bil, ayni davlat emish.*²⁶⁷

Xojamnazar Huvaydoning merosini yoritar ekanmiz, uning ijodiy faoliyatida odob-axloq, ma’naviyat, ma’rifat va tarbiya masalalari ustuvorlik qilganini kuzatamiz. Eng avvalo, mutafakkir-shoir halollik, poklik, rostgo‘ylik, taqvodorlik, birovning haqiga xiyonat qilmaslik, yetim-yesir, kambag‘allarga mehr-shafqatli bo‘lish, xayr-u saxovatli bo‘lish singari olijanob insoniy fazilatlarni targ‘ib etganligiga guvoh bo‘lamiz. Ayni vaqtda hayotdagi nopoklik, maishiy buzuqlik, kazzoblik, firibgarlik, zinokorlik, laganbardorlik, kibr-u havo singari jirkanch illatlarni o‘z ijodida qattiq qoralaganiga yana bir bor ishonch hosil qilamiz.²⁶⁸

²⁶⁵ Зоҳидов В. Ҳаётбахш бадийят тароналари. –Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. –Б. 157.

²⁶⁶ Хожамназар Ҳувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 67.

²⁶⁷ Хожамназар Ҳувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 36.

²⁶⁸ Рўзматзода Қодиркул. Хожамназар Ҳувайдонинг тасаввуфий қарашлари. Монография. –Тошкент: ZIOL BULOQ, 2019. –Б. 110-111.

Xojamnazar Huvaydo inson hayotidagi ijobiy va salbiy xususiyatlar haqida fikr yuritar ekan, ularning oqibatlarini ko'rsatish uchun Qur'on va Hadislardan tegishli dalillar keltirdi, zamondoshlarining tegishli xulosalar chiqarishga zamin tayyorlaydi.

Xojamnazar Huvaydo buyuk salaflarining, xususan, ta'kidlanganidek, Boborahim Mashrab, So'fi Olloyorning ijodiy an'alarini davom ettirib, xos ahlining ma'naviy talab va didlariga mo'ljallangan she'riy devonini yaratdi. Adabiyotshunos Ikromiddin Ostonaqulning ta'kidlashicha, "Huvaydo aksariyat g'azal va muxammaslarini, ruboiylarini tariqat va ma'rifat yo'lidagi muridlari uchun dastur sifatida yozib qoldirgan"²⁶⁹. Devondan joy olgan g'azallarida Qur'on oyatlari, Hadis hikmatlari, fiqh, ilohiyot va tasavvufga doir arabcha, forsha tushuncha va iboralar ko'p uchraydi. Bunda Xojamnazar Huvaydoneing o'z davri ilm ahlining arab va fors tillarini yaxshi egallaganliklarini inobatga olgan bo'lsa kerak. Hozirgi paytda Xojamnazar Huvaydoneing tasavvufiy ruhdagi she'rlarining tub mohiyatini anglash, tahlil qilish uchun kitobxondan puxta bilim va tayyorgarlik talab etilishining boisi ham ana shundadir.

Ma'rifatli xalqimiz Huvaydo asarlarini Boborahim Mashrab, So'fi Olloyor asarlari singari ardoqlab, huvaydoxonlik an'analari to'xtovsiz davom etib keldi. Xalq hofizlari hozirgacha Xojamnazar Huvaydoneing "Na qildim", "Mustahzod", "Nechuk jonsan" singari o'nlab g'azal va muxammaslarini ashula qilib kuylab kelmoqda. Uning "Andisha qil" radifli falsafiy g'azali Xorazm maqomining "Ona suvora"si sifatida bir necha asrlardan beri zavq bilan kuylab kelinmoqda²⁷⁰.

Xojamnazar Huvaydo tasavvufni muqarrar halokatdan saqlab qolish uchun VIII-IX asrlarda yashab, faoliyat ko'rsatgan Ibrohim Adham, Abdulloh Ibn Muborak, Robiya Adaviya singari zohid-so'fiylarning g'oya va ta'limotlarini, Qur'on oyatlari va Muhammad payg'ambar sunnatlarini keng targ'ib etishga intildi.

²⁶⁹ Ikromiddin Ostonaqul. Farg'onalik valiylar. –Тошкент: Movarounnahr, 2001. –Б.:41.

²⁷⁰ Хожамназар Хувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б.141-142.

Huvaydo tariqat yo'liga kirgan har bir solik pir suhbat, yo'l-yo'rig'i va nasihati asosida qadam tashlamog'i lozimligini qattiq ta'kidlaydi. Pirsiz solik yovvoyi daraxt singari o'sadi. Shoh-butog'i beo'xshov o'sib, oxiri bemaza meva beradi, yaxshi tarbiya ko'rgan solik esa ulama daraxt singari chiroyli, xushbichim o'sadi, shirin meva beradi, el undan bahra oladi, deya didaktik g'oyani ilgari surgan. Uning quyidagi misralarida muridni yo'ldan ozish, toyishdan ehtiyot bo'lishga chaqirganligini kuzatamiz:

*Do 'stlar, matlab yaqindur, lek aning yo 'li yiroq,
Himmat otin minmaguncha yetmagay har kim yayog '.*
*Bir qarishliq bo 'lsa yo 'l, berahbar qo 'yma qadam,
Uchramay qolmas baloga, har kishi bo 'lsa sayog '.*
*Gar qorong 'uda qadam qo 'ysang, yiqilgung chohga
Ey birodar, ol qulingga ilmi zohirdan chirog '.*²⁷¹

Ayniqsa, Huvaydoning ta'kidlashicha, komillik bosqichlarini bosib o'tishda darvesh turfa to'siqlarga duch kelishi mumkin, chunonchi dunyo molini sevish – ajdar, zeb-u ziynatga hirs qo'yish, hasad va baxillik qilish – yo'lbars, bid'at ishlarga muhtalo bo'lish bo'ri bo'lib unga xavf-xatar soladi. Inson vujudida Fir'avn va Xomon xulqi, yuz to'ngiz fe'li bor, ularni riyozat qilichi bilan qatl etmas ekan, darvish maqsadiga yetolmaydi. Bu yo'lda tirik yurib, nafsing itini o'ldirmasang Alloh visoliga yetisholmaysan, deydi shoir:

*Talabgori visol o 'lsang, dil-u joning bila yig 'lab
Tiriklay o 'lmaguncha topmagaysan vaslin, ey solik.*

Ma'lumki, tariqat bosqichining oltinchi maqomi piring xizmatida bo'lishdir. Bu bosqichni bosib o'tishda solik shunday xizmat qilishi kerakki, piring dil mulkiga podshoh bo'lsin, ya'ni piri undan xushnud bo'lib, ko'nglidan joy bersin. Agar u murid o'z pirinigina emas, o'z zamondoshi bo'lgan boshqa do'sti Xudo xizmatini qilib, duosini olsa, u ulug' maqomga ega bo'ladi.

Shoir tariqat kishisi beozor bo'lmog'i kerak, deb nasihat qiladi. Risolada Soqib "suhbati nojins so'fiyaga misli o'limdir, xususan, pirini suymagan odam

²⁷¹ Хожамназар Ҳувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б.69.

yoki piriga ixlosi yo‘q odam birla o‘ltirmog‘lik” (ham) deb ogohlantirar ekan, o‘z bobosining ikki baytini keltiradi:

*Ahli g‘aflat birla qilma bir dame hamrohlik,
Kuydurur o‘tka hezini ham taqi hamrohni*²⁷².

Huvaydoning ijodiy merosi XX asr boshlarida G‘arb olimlarining e‘tiborini jalb etgan va ana shu qiziqishning ilk samarasi sifatida nemis sharqshunosi Martin Xartmanning²⁷³, rus sharqshunosi M.F.Gavrilovlarning²⁷⁴ tadqiqotlari dunyoga keldi.

XX asr boshlarida Huvaydo kulliyotining “Kitobi eshon Huvaydoyi Chimyoniy” nomi bilan Istanbul, Qozon va Toshkent bosmaxonalarida ko‘p marta nashr qilinishi va g‘azallari barcha mo‘tabar bayozlarga kiritilishi ham xalqimiz tomonidan Huvaydo g‘azallarining katta qiziqish hamda tashnalik bilan mutolaa qilinganligidan guvohlik beradi.

Mashrab bilan asrdosh bo‘lgan Xojanazar G‘oyibnazar o‘g‘li Huvaydo XVIII asr o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri bo‘lib, uning asarlari shoir yashagan davrda ham, undan keyin ham shuhrat yoydi. Huvaydoning qator zamondoshlari, o‘z shajarasidan yetishib chiqqan shoir va shoiralar, shuningdek, so‘nggi asrlarda yetishib chiqqan qalamkashlar uning ijodidan bahramand bo‘ldilar.

Huvaydoning she‘rlaridan ma’lum bo‘lishicha, u arab va fors tillarini, o‘zbek mumtoz adabiyotini, diniy adabiyotni, aynissa, Qur‘on va Hadislarni mukammal o‘rgangan. Zamonasining yetuk olimi, mutasavvif shoiri sifatida shuhrat qozongan, xalq hurmatiga sazovor bo‘lgan, eshon Huvaydo nomi bilan nafaqat Farg‘ona vodiysi, balki turkiyzabon xalqlar orasida mashhur bo‘lgan.

Huvaydo o‘zining ma’naviy-intellektual salohiyati, badiiy mahorati va ilg‘or falsafiy qarashlari bilan XVIII asr o‘zbek adabiyoti va tasavvuf falsafasiga

²⁷² Икромиддин Остонакул. Авлиёлар султони Туронлик валийлар. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2004. –Б. 194-195.

²⁷³ Hartmann M. Huvaydoning chig‘atoycha devoni / nemis tilida/. –Berlin, 1902. –Б. 52.

²⁷⁴ Гаврилов М.Ф. Среднеский поэти и суфий Хувайдо. –Ташкент: 1927. –Б. 23.

yangicha mazmun va g'oya olib kirgan, uning ravnaqiga g'oyat barakali ta'sir ko'rsatgan.

Xojamnazar Xuvaydoning tasavvufiy qarashlarida, bir tomondan, tasavvufning ko'p asrlik an'analari izchil rivojlantirildi, ikkinchi tomondan, jamiyat duch kelgan ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy inqiroz alomatlari ham sezilarli darajada aks etdi.

Mutasavvif-shoir ijodida Abduxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, So'fi Olloyor, Boborahim Mashrab singari mashhur mutasavviflarning g'oyalari yanada rivoj topdi, ularning asarlariga xos insonparvarlik, yuksak badiiylik yangicha mazmun, ahamiyat va jozibadorlik kasb etdi. Xojamnazar Huvaydo ijodida shaxs ma'naviyati muammosi asosiy o'rinni egalladi: "Kishi bo'lmasa ma'nidin xabardor, ani odam dema, de naqshi devor"²⁷⁵, – deb yozdi.

Huvaydoning ta'lim berishicha, xarisi zikri Haq bo'lish, ya'ni Allohning zikrini tun-u kun qilishga zo'r berish bandalikning nishonidir, ammo boylikka hirs qo'yish bandalikka munosib emas. Xudo insonni bu dunyoga bog'-u chamanni tamosha qilish uchun emas, balki bandalari ruhining "al-Miysoq" kuni qilgan ahdini bajarishini sinash uchun yubordi. Agar Xudoga yetishmoqchi bo'lsang, it nafsingni och tutib, mudom Xudoning zikrini qil, tanani tarbiyat qilish bandalikka munosib emas.

Xojamnazar Huvaydo yashagan va ijod qilgan davrga kelib, naqshbandiyaning ilk g'oyalari o'z ta'sir kuchini yo'qota boshladi. So'fiy shoir solikni "gap uqmaydigan" avom xalqdan xoliy go'shada Xudoning zikrini qilishga undadi.

Solik (tariqat yo'lidagi kishi)larni o'z botiniy olamiga murojaat etishga, qalb uyini poklashga da'vat etish Xojamnazar Huvaydo qarashlariga xos xarakterli xususiyatdir. U Imom G'azzoliyning "Kimyoi saodat" asarida ilgari surilgan inson to'g'risidagi g'oyalarni yanada rivojlantirdi. Imom G'azzoliyning ta'lim berishicha, qalb Allohning makonidir. Xojamnazar Huvaydoning yozishicha, Alloh

²⁷⁵ Хувайдо. Роҳати дил. Иброҳим Адҳам. –Тошкент: Наврўз, 2011. –Б. 51.

har qanday qalbdada emas, balki pokiza qalblardagina mavjuddir: “Jon uyin pokiza qilg‘il qolmasun gard-u g‘ubor, Man eshittim g‘aybdin: pokiza dil ma‘voyi do‘st”²⁷⁶.

Xojamnazar Huvaydoning fikricha, Allohning vasliga erishishga to‘sqinlik qiladigan raqiblar bor. Ular aslida nafs balosi, mol-u dunyo havasi, kibr va manmanlikdir. Allohning vasliga yetishmoq uchun solik vujud sahrosini bosib o‘tishi, bu yo‘lda duch keladigan dev, ajdaho (nafs lashkarlari)ni qatl etishi lozim. Bu yo‘l qorong‘u bo‘lib, yo‘ldan adashmaslik uchun chirog‘ (ilm) va asokash (ma‘naviy rahnamo, pir) zarurdir. Nafs lashkarlari insondan tashqarida emas, balki uning ichidadir. Bu makkor va yovuz dushmanga qarshi kurashmog‘i uchun solikda mustahkam iroda, sabot-matonat, himmat, jasorat, shiddatkor ilohiy ishq bo‘lishi kerak.

Mumtoz adabiyotimizga tegishli ayrim shoirlarimiz ijodida mol-dunyoga hirs qo‘yish, boylik ortidan quvish qattiq qoralangan. Bunday kishilar go‘ng yumalatadigan qora qo‘ng‘iz-kalxamajga o‘xshatilgan. Huvaydo shu g‘oyani davom ettirib, yozadi:

*Tun-u kun aftonu xezon yugurib,
Kalxamajdek dunyoga ko‘p urma hech*²⁷⁷.

Nusratullo Jumaxo‘ja yozganidek: “Hayot tilsimlarini yechish, dunyoni mukammal qurish, haqiqatni chuqur anglash, insoniy kamolot pillapoyalaridan sobitqadam ko‘tarilish uchun Huvaydo ijodini doimiy hamrohimizga aylantirmog‘imiz kerak”.

Huvaydoning tariqat ahli vasfiga bag‘ishlangan ajoyib g‘azali bor. Soqibiy risolasida ham bu g‘azal to‘liq keltirilgan. XX asr poyonida uning bir avlodi (Abdulaziz Mansur) mazkur g‘azalga muxammas bog‘ladi²⁷⁸.

Xojamnazar Huvaydo diniy-tasavvufiy qarashlarining shakllanishi jarayonida odamlar o‘rtasida tasavvuf g‘oyalari o‘z ta‘sirini yo‘qota boshlagan, jamiyatda zulm, adolatsizlik, ilmsizlik va jaholat avj olgan, buning oqibatida

²⁷⁶ Хувайдо. Роҳати дил. Иброҳим Адҳам. –Тошкент: Наврўз, 2011. –Б. 53.

²⁷⁷ Хожамназар Хувайдо. Девои. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б.6-7.

²⁷⁸ Икромиддин Остонақул. Авлиёлар султони Туронлик валийлар. - Б. 195.

odamlar o'rtasida mehr-oqibat, qadr-qimmat, insof-diyonat yo'qolgan g'oyat murakkab davrga to'g'ri keldi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, shoir dunyoqarashining shakllanishida, shubhasiz, ijtimoiy hayot ziddiyatlari, ijtimoiy adolatsizliklar, zulm va nohaqlikka qarshi faol kurashgan yaqin zamondoshi Boborahim Mashrabning fojeali taqdiri kuchli ta'sir ko'rsatgan. Buning oqibati esa Huvaydoning yovuzlik va yomonlikka, zulm va adolatsizlikka qarshi faqat ma'rifat bilan kurashishga ahd qilishiga sabab bo'ladi. Zamona nosozliklari ham, zulm va nohaqliklar ham oxir-oqibatda xalq tepasida turgan xoja va mullolar, shayx va pirlarning mol-u dunyoga hirs qo'yishi, dunyoparastligi, ochko'z va imonsizligi bilan bog'liq ekanligini anglab yetadi. Jamiyatni jaholat, ilmsizlik va nodonlikdan qutqarish uchun odamlar o'rtasida islom ma'rifati va tasavvuf hikmatlarini targ'ib etish, zarur deb hisoblaydi. Bu Huvaydo ijodida qizil ipdek o'z ta'sir sifatida ko'zga tashlanganligidan dalolat beradi.

3.2-§. Huvaydo merosida barkamol avlod haqidagi tasavvufiy tushunchalar talqini

Xojamnazar Huvaydo o'zidan oldin o'tgan shoirlarning axloqiy-didaktik mavzudagi an'analarini rivojlantirgan so'z san'atkori sifatida adabiyot tarixida o'rin oldi. U axloqiy-didaktik turkumdagi g'azallarida o'z zamondoshlarini insofli, qanoatli, diyonatli bo'lishga chaqiradi, ayni chog'da halollikka va to'g'rilikka, qanoatga undaydi:

Xudodin qo'rqar ersang, mo'minni molini zinhor,

*Qilib qasd-u xiyonat, ignasin olmagil hargiz.*²⁷⁹

Qanoat va halollik qadimdan xalqimiz axloqining ko'zi to'qlik, ma'naviy poklik, barkamollik fazilatlarining bosh mezonini sanalganlikning mazkur baytdagi g'oyalar bunga yorqin misol bo'la oladi.

²⁷⁹ Хожамназар Ҳувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 95

Bu o'rinda ta'kidlash lozimki, adabiyot tarixidagi har bir adib ijodining o'ziga xosligi uning o'z davri voqeligini qay darajada aks ettirishi bilan belgilanadi. Xususan, adabiy janrlar, badiiy usul va uslublar, adabiy qonun mezonlari asosida shakllangan adabiyotda har bir ijodkor merosidagi original fazilatlar uning davri tasvirida namoyon bo'ladi. Xojamnazar Huvaydo nozikta'b lirik va donishmand shoir bo'lish bilan birga, tabiatan o'ta insonparvar va ma'rifatparvar inson bo'lgan. Uning biz ta'kidlagan tabiatidagi gumanizm, inson manfaatlari uchun kurashchilik faoliyati ijodida hajviy, satirik ruh kuchayishiga sabab bo'ldi. Ayni shu adabiy omil uning asarlarida o'z davriga hushyor tanqidiy munosabatni, hokim tabaqa qabohatlari hajvini shakllantirdi. Natijada shoirning zamonasiga bo'lgan tanqidiy munosabati o'z asarlarida realistik an'ananing kuchayib ketishiga muhim turtki bo'ldi, deyish mumkin.²⁸⁰

Xojamnazar Huvaydoning adabiy merosini o'rganar ekanmiz, badiiy adabiyotning orifona, falsafiy-axloqiy, hajviy (satira va yumor), ijtimoiy-publitsistik mavzularida ham ijod qilganligini va bu sohada ma'lum yutuqlarga erishganligini kuzatamiz. Bu mavzulardagi she'rlarda ijtimoiy-siyosiy va tarixiy vaziyatlardan shikoyat motivlari asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Shoirning lirik qahramoni faqat oshiqgina emas, davr bilan chiqisha olmagan munaqqid, jamiyatdagi tengsizliklardan iztirob chekuvchi, qashshoq xalq turmushiga achinuvchi, uning sabablarini goho insofga da'vat etuvchi faol inson hamdir. Bunday kuyunchak inson hayotda "birov"larning "parcha non"ga zor, "birov"ning esa "shahd ila halvo" yeb rohatda yashayotganidan qattiq azoblanadi. Bu tuyg'ularni quyidagi misralarda ham bilish mumkin:

Birovni qorni to'y mas parcha nong'a,

Birov yer doimo shahd ila halvo.

Birovga berdi doim mehnat-u dard,

*Birovni kulfati bo'lmadi aslo.*²⁸¹

²⁸⁰ Худайбердиев А. Жизнь и творчество Ходжаназара Хувайдо. Дисс...канд.фил.наук. –Ташкент: 1990. Стр. 68.

²⁸¹ Хожамназар Хувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б.79.

Huvaydo ijodiyoti mavzu jihatidan boy, janr tarkibi rang-barang. Huvaydo lirikasi tarkibida, gʻazallardan tashqari, musammatning murabbaʻdan tortib to muashshargacha boʻlgan namunalari – toʻrtlik va ruboiylar, masnaviylar bor. Shoir oʻzining “Jahon makkorasigʻa, ey falonchi” misrasi bilan boshlanuvchi tarjiʻbandida feodal tuzum hukmdorlariga, ularning “Siymu zar” kuyiga muftalo boʻlib, bosqinchilik urushlari keltirib chiqarishlari, vayronagarchilikning avj olib olib ketishiga amaldorlarning boylik ketidan quvishlari sabab ekanliklarini turli badiiy detallar vositasida va birovlarining mulki boshqa birovlariga vafo qilmaydi, degan xalqona hukm ustivor. Eʼtibor beramiz:

*Oning siym-u zarigʻa oʻlma moyil,
Fusunu lobasidin oʻlma gʻofil,
Bilurmusan oning siym-u zarigʻa
Nedin oqu qizillik oʻldi hosil,
Nihondin huqqai nayrangi ichra
Hazoron raʼnolarigʻa oʻlma dilband,
Baqosizdur, oʻzidin gʻayri payvand.*²⁸²

Koʻramizki, shoir sulton va uning atrofidagi amaldorlarning oloyish – bulgʻanch, mushaʻbid, yaʼni nayrangbozlikka asoslangan behuda qon toʻkishlariga olib kelayotgan jang-u jadallarni mutlaq rad etadi. Huvaydoning fikricha, zoʻravonlik urushlari oqibatida toʻplanayotgan oltin-kumushlar “gʻayri payvand”. Bular, maʼlum muddat oʻtgach, yana sochilib ketadi. Natijada bosqinchilik urushlari gunoh (yomonlik) orttirish, yuzqoralik gʻalvasidangina iborat boʻlib qoladi. Shuning uchun oʻz va oʻzgalar yurtini poymol, odamlarini zor qaqshatib sarson-sargardon qilmaslik zarur. Bunday xalqona xulosalar Huvaydo sheʼriyatining asl magʻzini tashkil etadi. Ijtimoiy-siyosiy masalalar haqida Huvaydoning bunday jurʼati, antifeodal fikr yuritishi uning oʻz davrining yuksak saviyali shoiri va gumanisti ekanligidan guvohlik beradi, deb hisoblaymiz. Shu boisdan Xojamnazar Huvaydo ishq-muhabbat mavzularidan tashqari orifona, falsafiy-axloqiy, hajviy mavzularda ham samarali ijod qilganligini, bu

²⁸² Хожамназар Ҳувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 53.

mavzulardagi she'rlarida ijtimoiy-siyosiy va tarixiy vaziyatdan shikoyat motivlari asosiy o'rinni egallaganligini alohida ta'kidlaymiz.

Huvaydo maktab va xonaqohda dars bergan, o'z zamonasining yetuk faylasuf shoiri bo'lgan. U XVII asr o'zbek adabiyoti va tasavvuf falsafasining taniqli vakillaridan biridir. Huvaydoning ijodiy merosi XX asr boshlarida G'arbiy Yevropa olimlarining e'tiborini tortadi. Bu zabardast mutafakkir shoirning ijodiga bo'lgan qiziqishning ilk samarasi sifatida nemis sharqshunosi Martin Xartmannning nemis tilida "Huvaydoning chig'atoycha devoni" Berlinda 1902-yili bosilib chiqqan. Rus sharqshunosi M.F.Gavrilovning "O'rta osiyolik shoir" degan asari esa 1927-yili chop etilgan.

Akademik Vohid Zohidov va Suyima G'aniyeva tomonidan nashr etilgan Huvaydoning 72 g'azal, 11 ruboiydan iborat "Tanlangan asarlar"i 1961-yili hukmron mafkura tazyiqi ostiga chop etilgan edi. Holbuki, Huvaydoning adabiy-falsafiy asarlari ikki yarim asrdan beri xalqimiz ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lib kelyapti.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov Mustaqilligimizning rahnamosi bo'ldi. Milliy urf-odatlar, qadriyatlar, erkinlik, ozodlik, hurriyat o'zimizniki bo'ldi. Bahouddin Naqshbandiy, Ahmad Yassaviy, at-Termiziy, Moturidiy, al-Farg'oniy, Amir Temur, Burhoniddin Marg'inoniy singari ulug'larimiz merosi xalqimizga qaytdi, nomlari e'zoz-e'tibor topdi. Huvaydo ham shular qatori bir alloma, ma'rifatli inson sifatida tobora xalqimiz hurmatiga, e'tiboriga va e'zoziga sazovor bo'lib bormoqda.²⁸³

Huvaydo lirikasida afsonaviy nomlar, tarixiy joylar, epik mamlakatlar, muayyan shaxslarning nomlari ham talmeh san'ati sifatida ko'p uchraydi. Shoir bu turkumdagi asarlarida afsonaviy joy nomlarni, muayyan g'oyani kengroq va konkretroq ifodalash maqsadlarida she'rga olib kiradi. Natijada qisqa satrlarda o'z asoslariga ega bo'lgan fikr mujassamlashganligini ko'ramiz:

*Ko'ngulni bir parivashqa berib hayron bo'lib qoldim,
Eram bog'i yiroq tushti, netay anda borib bo'lmas.*

²⁸³ Узоқов Ҳ. Дадахўжаев С. Ҳувайдонинг хазон бўлмас баҳори. // Маърифат, 2001 йил 26 май.

*Vah, meni boshimg'a tushti, na qilay savdoyi ishq,
Ayta bersam zarrasig'a toqat etolmas Qo'hi qof*²⁸⁴, -

baytlaridagi “Eram bog‘i”, “Qo‘hi qof” parilar yashaydigan bog‘ va mamlakat nomlari sanaladiki, buni o‘zbek xalq dostonlaridagi syujet namunalari ham tasdiqlaydi.

Xojamnazar Huvaydo jamiyatdagi odamlarni ikki guruhga – odamiy va noodamiylarga ajratadi. Beg‘arazlik bilan kishi aybini aytib, uni odobli va odil bo‘lishga undovchilarning uzatgan qadahida “zahr” bo‘lsa ham, bu xil kishilarning so‘zini “qand-u asal” deb bilish kerak deydi: Uning: “*Zahr oyog'in so'nsa, doim bil qand-u asal, Zahrdin batdar erur ichsang asal nodon bilan*” kabi misralari aytilayotgan mulohazani tasdiqlaydi.

Har bir jamiyatdagi aqlli, farosatli va oqko‘ngil kishilar doimo zamondoshlarining nuqsonlarni aytib, hayotda xato qilmaslikka, rostgo‘y bo‘lishga undaganlar, bunda to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatgan kishilarning so‘kishi ham, urishi ham aslida juda foydali, bunday munosabatlar adashishdan saqlashga xizmat qiladi. Ayni holat biz o‘rgangan Huvaydo ijodida ham uchraydi:

*Ursa, so'ksa mardi dono, olma ko'nglingga garon,
Chopsa nodon jondin o'tgay bir guli xandon bilan.*²⁸⁵

Ko‘rinadiki, shoir nodon bilan dononi bir-biriga qarama-qarshi tasvirlab, odil va nodon kishilarning turli xarakterli belgilarini ochib beradi. Har kimsa o‘z holiga qarab ish tutsa, pushaymon bo‘lmaydi, degan hayotiy xulosa kelib chiqadi.

Huvaydo – mustaqil ovozga va uslubga ega bo‘lgan talantli shoir. U badiiy ijodning bor imkoniyatlaridan foydalangani holda o‘z asarlarida xalqparvarlik, vatanparvarlik kabi hayotbaxsh g‘oyalarga umrbod sodiq bo‘lib qoldi. Huvaydoning qarashicha, komil inson qadami hamma vaqt yaxshilik sari boshlashi lozim. Buning uchun ruhini, ko‘nglini poklashi, g‘aflatdan qochib, ogohlik sirlarini egallashi shart. Binobarin, u toat-ibodat qilishi, namoz o‘qishi, ro‘za tutishi, xayrli ishlarda ishtirok etishi, halol mehnatdan topganidan orttira olsa, haj qilishi kerak.

²⁸⁴ Хожамназар Ҳувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 92.

²⁸⁵ Хожамназар Ҳувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 67.

Biroq mol dunyoga ruju qilib, harom yo'llarga qadam qo'ymasligi lozim. Demak, mutasavvif shoir har bir qadamga nazar solib oyoq qo'yish deganda, foniyl dunyoga hirs-havas qo'yib, g'aflat domiga tushmaslik, boqiy dunyoda ogohlik bilan yashashni nazarda tutadiki, bularni quyidagi satrlarda kuzatamiz:

*Qolibman nafs ila doyim baloga,
Sani solmam dame ko'nglim arog'a.
Qochib sandin bari dunyoni tutdum,
Yurub g'aflat bilan sani unutdim...
O'zingni dunyodin yor qil bebaqog'a.
Seningdek nechalarin bu qari zol
Vafo qilg'on emas yolg'on berib ol.
Muning qilg'on firibiga inonma,
Ko'rib bu moli mulkingni quvonma...*²⁸⁶

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida o'zbek shoirlarining asarlari Turkiyadagi bosmaxonalarda toshbosma usulda nashr ettirilgan. Jumladan, Siddiq Xojai Xojandiy ehtimomi bilan 1898-1900-yillarda Istanbuldagi Mahmudbey bosmaxonasida Yassaviy, Navoiy, Mashrab kabi shoirlar qatori Huvaydo devoni ham chop ettirildi. Istanbullik kitobfurushlardan biri Huvaydo devonini nemis olimiga sovg'a qilgan. U devondan, shoir badiiy ijodiy yo'nalishini belgilovchi 11 ta g'azalni tanlab olgan va ularni ilmiy tarjima qilgan. 1901-yil kuzida mutarjim tarjimalarni tugatib, ularni sharqshunoslikka ixtisoslashgan "Westasiatische Studien" gazetasiga nashrga berdi²⁸⁷.

Eng avvalo, shuni alohida ta'kidlash kerakki, xalq kitoblaridagi mavzular qamrovi ham tarixiy, ham jo'g'rofiy, ham axloqiy, ham siyosiy jihatlardan juda ham kengdir. Unda tarixan muqaddas "Qur'on" syujetlari bilan aloqador Yusuf qissasidan tortib, Abu Muslim dostonigacha, avliyo-yu anbiyolardan tortib, Jamshid, Rustam-u dostonlargacha, Ahmad Zangidan tortib Iskandar haqidagi qissalargacha – barcha-barchasi xalq kitoblari uchun barhayot mavzu bo'lib

²⁸⁶ Хожамназар Ҳувайдо. Роҳати дил. –Тошкент, 1993. –Б. 14-15.

²⁸⁷ Тоджиходжаев М. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари Мартин Хартманн таржимаси ва талқинида. – Тошкент: Баёз, 2016. –Б. 18.

hisoblanadi. Mavzu qamrovining ham eniga, ham bo'yiga bu qadar chuqur va keng bo'lishligining o'zi xalq kitoblarining xalqimiz madaniyati tarixida juda ham ulkan ahamiyat kasb etganligidan dalolat beradi. Turkiy xalqlar, xususan, o'zbek xalqi tarixida xalq kitoblarining ajoyib namunalari behisob.²⁸⁸

Huvaydo axloq masalalari bilan ko'p mashg'ul bo'ladi, go'zal insoniy fazilatlarni, islomga xos etika mezonlarini ardoqlaydi, odamdagi yaramas, "husnbuzar" xulq ko'rinishlarini nafratlaydi. U, avvalo, inson qadr-qimmatini hurmatlash, saqlash, uni yuksaklikda tutish zarurligini ta'kidlaydi va bu narsa oyoqosti etilayotganligidan shikoyat qiladi: "Darig'o, hayf, odam bir-birining qadrini bilmas..."

U o'z ijodida kamtarlikni, tavozeni, kattaga hurmat, kichikka izzat ko'rgizishni, muhtojga yordam berishni madh etadi, bunga rioya qilmaganlar, kibrlik, manmanlik, shaxsiyatparastlikka berilgan va o'zini xalqdan alohida tutgan, jamoadan yuqori qo'ygan, o'zgalarga barmoq uchi bilan muomala qiladiganlarni g'azabli tanqidga uchratadi:

O'zingg'a nozish etma el aro ibni falon man deb,

*Necha ibni falong'a bo'ldi yer ostida jo paydo...*²⁸⁹

Shoir o'zini o'zgaga munofiqona yo'l bilan do'st, mehribon, odobli qilib ko'rsatib, undan obro' oladigan, so'ngra ish bitgandan keyin undan hayosizlarcha yuz o'giradigan, buning ustiga uning boshiga ta'na hamda balo toshlarini yog'dirishga urinadigan razillardan cheksiz nafratlanadi. Ayni chog'da xiyonat, sotqinlik, chaqimchilik va ig'vogarlikni qon qaqshab qoralaydi, la'natlaydi, nihoyat darajada zararli va xavfli deb biladi, shuning uchun ham do'st tanlay bilishlik, odamni saralay olishlik va sir saqlashlik juda ham zarur fazilat ekanligini ta'kidlaydi. Shoirning bu boradagi qarashlari islom ta'limotiga, hozirgi odob-axloq mezonlariga to'la mos tushadi:

Aytmag'il sirringni san har kimg'a, sirdosh o'zgadur,

Dardi yo'q bedardg'a mung etma, mungdosh o'zgadur.

²⁸⁸ Хувайдо. Иброҳим Адҳам. –Тошкент: Ёзувчи, 1991. –Б. 5.

²⁸⁹ Зоҳидов В. Ҳаётбахш бадийят тароналари. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. –Б. 155.

*Ey Huvaydo, berma dil har bevafo yor deb,
Ikki olam bevafo yori qaro qosh o'zga dur.*²⁹⁰

U boshqa yerda do'st masalasida katta haqiqatni o'z ichiga olgan, nihoyat darajada go'zal, realistik, maroqli, chuqur ma'noli quyidagi ajoyib fikrni o'rta tashlaydi, do'stlarni shunga rioya qilishga chaqirdi. E'tibor qilamiz:

*Ey Huvaydo, xizmat etmay do'stdin qilsang tama',
Oqibat sandin uzulgay bora-bora poyi do'st...*

Shoir haqiqatdan ham keng ko'lamli va samimiy do'stlikning, ahillikning ajoyib kuychisi va targ'ibotchisi bo'ldi; do'stlar o'rtasidagi, hayot yo'ldoshlari orasidagi, og'a-inilar, umuman, odamlarning bir-biriga munosabatidagi sadoqatga, vafodorlikka, mehr-oqibatga juda katta e'tibor va ahamiyat berdi. Xojamnazar Huvaydo xalq oldidagi o'z burchi va vazifasini anglamagan, "mardi Xudolarning cho'pcha qadri bo'lmagan", "zamona pirlari haqparast ermas, dunyoparast" bo'lib qolgan, "hech kim gap uqmaydigan", "tamomi yaxshilar dunyoda xor" bo'lgan og'ir va uqubatli sharoitda yashadi. Oxir oqibatda ijtimoiy zulm, istibdod va adolatsizliklarni bartaraf etishning eng oqilona yo'li islomiy qadriyatlarni asl holida tiklash, odamlarni g'aflat uyqusidan uyg'otish, o'lik qalblarni tiriltirish, avomni, avvalo, namoz o'qish, ro'za tutish, halol va haromni bir-biridan farqlashga, so'ng xayr-ehson, mehr-muruvvatli, bir-biriga nisbatan samimiy va rostgo'y bo'lishga o'rgatish lozim, deb hisoblaydi. Xojamnazar Huvaydoning Markaziy Osiyo tasavvufi tarixidagi buyuk xizmati shundan iboratki, farzandni maktabga berish va ilimli qilish, musulmon ota-onalarning burchi, farzandi oldidagi qarzi ekanligi masalasini, rasululloh hadisini dalil sifatida keltirib, kun tartibiga qo'yishidir:

*Ato birla anoda to'rt haqi bor –
Dedi: farzandini, sultoni abror.
Ki yaxshi ot qo'yg'oy, xatna qilg'oy,
Biri uylob, biri maktabga bergoy*²⁹¹

²⁹⁰ Хожамназар Ҳувайдо. Девон. Роҳати дил. –Тошкент, 1993. –Б. 87

²⁹¹ Ҳувайдо. Роҳати дил. Иброҳим Адҳам. –Б. 115.

*Qayu mard o'g'lini maktabga bersa,
Borib bir martaba bismilloh etsa,
O'shal damda ato birla anosin
Xudoyim rahmat etgoy ikkalosin.*²⁹²

Xojamnazar Huvaydoning ta'kidlashicha, mol-u dunyo yiqqan, unga hirs qo'ygan kishilarda Xudo va oxiratdan qo'rquv hissi bo'lmaydi. Natijada ularda manmanlik, kibr, zolimlik, zo'ravonlik, shafqatsizlik, insofsizlik va, nihoyat, imonsizlik kabi illat va gunohlar chuqur tomir otadi. Shu boisdan ham Huvaydo nafs ammorani barcha illat va ofatlarning bosh manbayi sifatida qattiq qoraladi; dunyo ahli kofirlardir, degan fikrni ilgari surdi. Lekin shuni alohida ta'kidlash joizki, Huvaydo inson hayoti uchun zarur bo'lgan tirikchilik ne'matlarini emas, balki insonni to'g'ri yo'ldan ozdiradigan boylikni, boylikka hirs qo'yishni keskin qoraladi. U Abu Homid G'azzoliy g'oyalarini faol qo'llab-quvvatlab, faqirlik tushunchasining tasavvufiy mazmun-mohiyatini ochishga, mulkini emas, balki mulk egasi (Alloh)ni sevish xayrli ekanligini ta'kidladi.²⁹³

Xojamnazar Huvaydo ilmsiz avomni zulm va razolatdan himoya qilishning Boborahim Mashrab qo'llagan usul va yo'llari samarasiz bo'libgina qolmay, balki fojiali ham ekanligiga guvoh bo'ldi. Ayni vaqtda Xojamnazar Huvaydo Boborahim Mashrabning otashin ilohiy ishqni qo'lida sozi bilan targ'ib etishdagi jur'ati, matonati va jasoratidan, yuksak badiiy mahoratidan hayratlandi. Mashrab she'riyatiga xos samimiylik, xalqchilik, soddalik va rostgo'ylik singari badiiy ijod sirlarini qunt bilan urgandi. Shu bilan birga u Boborahim Mashrabning jazb holida ilohiy sirlarni oshkor etishi, ilohiy ishqni biryoqlama mutlaqlashtirish oqibatida islom dini asoslari (namoz o'qish, ro'za tutish, haj ziyorati, jannat va do'zax)ga nisbatan shubha soluvchi qarashlarini ma'qullamadi. Huvaydo jamiyatning ma'naviy inqirozi, din va tasavvufning tanazzuli sabablarini ahli xos va ahdi omning Alloh oldidagi burchlarini bajarmaslikda, ilmga amal qilmaslikda va mol-u dunyoga hirs qo'yishda, musulmonchilikning oddiy talablari (namoz o'qish, ro'za

²⁹² Хувайдо. Роҳати дил. Иброҳим Адҳам. –Б. 115.106.

²⁹³ Рўзमतзода Қодиркул. Хожамназар Хувайдонинг тасаввуфий қарашлари. Монография. –Тошкент: ZIOL BULOQ, 2019. –Б. 120.

tutish, xayr-u ehson qilish va h.k.)ni bajarmaslikda, “zamona pirlarining haqparast emas, balki dunyoparast” ekanliklarida, ilmsizlik, nodonlik va jaholatda ko‘rdi. Agar Boborahim Mashrab tasavvufda Boyazid Bistomiy (vaf.875-y.) yo‘lidan borgan bo‘lsa, Xojamnazar Huvaydo junaydiya yo‘lini tanladi. Mashrab o‘zining jo‘shqin she‘r na qo‘shiklarini ilmsiz avom uchun bag‘ishlagan bo‘lsa, “Mabdayi nur” (“Ilohiy Nurning boshlanishi”) asarini qol va hol ilmlaridan, shuningdek, Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy” asaridan yaxshi xabardor bo‘lgan ilm ahllari va so‘fiylar uchun bag‘ishladi. Asar tasavvufning eng munozarali va murakkab muammolarini hal qilishga qaratilgan bo‘lib, ancha murakkab uslubda yaratilgan edi.

Xojamnazar Huvaydo va Boborahim Mashrabni bir-biridan farqlovchi jihatlardan tashqari ularni o‘zaro yaqinlashtiradigan jihatlar ham mavjud edi: ularning har ikkisi naqshbandiyaning Hidoyatulloh Ofoqxoja asos solgan qoshg‘ar maktabiga mansub edilar, taxmin qilish mumkinki, Boborahim Mashrab ayni bir vaqtda Xojamnazar Huvaydoning otasi G‘oyibnazar bilan Ofoqxoja murid bo‘lgan va uning rahnamoligida kamolga erishgan edilar.

Ehtimol, ularning ijtimoiy kelib chiqishlari o‘rtasidagi tafovutlar oxir-oqibatda fikrlash tarzi va tasavvufiy qarashlarining bir-biridan farqlanishiga sabab bo‘lgandir. Boborahim Mashrab bo‘zchi, xezmkash (o‘tinfurush) oilasida dunyoga keldi, otasidan juda erta yetim qoldi. Go‘dakligidanoq yetimlik, qashshoqlik, zulm va adolatsizliklarning jonli guvohi bo‘ldi. Huvaydo esa ilmli, obro‘li G‘oyibnazar eshon oilasida dunyoga keldi va tarbiya oldi. U bolaligidanoq ilmga mehr qo‘ydi, otasining ilmi, amali, odobi va hayot tarzi unga ibrat bo‘ldi.

Shubhasiz, Xojamnazar Huvaydoning tasavvufiy qarashlari kamol topishida So‘fi Olloyorning asarlari va qarashlari ham juda muhim ahamiyat kasb etdi: So‘fi Olloyor islom dini va tasavvufiy inqiroz va halokatdan qutqarishning yagona va maqbul yo‘li jamiyat xos kishilarining diniy ma’rifati, saviyasi va salohiyatini yuksaltirish, rasululloh sunnatlari, islom dini asoslari (tavhid, kalom, fiqh), tasavvuf ilmi va darvish odobi haqidagi bilimlarini oshirish, avomga esa mahshar va do‘zax uqubatlarini eslatish, ayni vaqtda ularda Allohning karami va

marhamatidan umidvor bo'lish hissini shakllantirish, riyokorlik, takabburlik, ochko'zlik, yolg'onchilik singari illatlarga qarshi sabot bilan kurashish deb hisobladi.

So'fi Olloyor tasavvufiy g'oyalarini asoslash va targ'ib qilishda Muhammad payg'ambarning sunnatlari, go'zal axloqiy fazilatlarini, islom tasavvufining ilk zohid-so'fiylari bo'lgan Ibrohim Adham, Ibn Muborak, ayniqsa, Robiya Adaviyaning tasavvufiy g'oyalariga ko'p murojaat qildi. Bundan ko'zlangan maqsad so'nggi asrlarda buzilgan islom dini va tasavvufi g'oyalarini qaytadan tiklash orqali jamiyat duch kelgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy inqirozlarni bartaraf etish, din va tasavvufga yangicha kuch va jo'shqinlik bag'ishlash edi.

Muhimi, So'fi Olloyor naqshbandiya pirlarining izidan borib, o'z zamondoshlarining gunoh, xato va kamchiliklarida o'zini aybdor deb hisobladi. Shu boisdan ham u mol-u dunyoga hirs qo'ygan nafs bandalarining tamagirligi, shafqatsizligi, zulm va zo'ravonliklarini tanqid qilish, ularni sharmanda va sharmisor qilish yo'lidan bormadi. So'fi Olloyorga ko'ra, barcha kulfatlarning bosh sababi Islom ta'limoti va tariqat ilmi mohiyatini bilmaslikda, ilmsizlik va nafs balosiga qarshi kurashmaslikdadir. Shu boisdan ham So'fi Olloyor o'z-o'zini malomat qilish, boshqalarning gunohlarini o'zining shaxsiy gunoh va xatolari sifatida fosh etish bilan zamondoshlarini hidoyat, insof, diyonat va ma'rifatga da'vat etdi. Uning tasavvufiy qarashlari va ijtimoiy muammolarni hal etish konsepsiyasi Boborahim Mashrabning qarashlaridan keskin farqlanar edi.

O'n to'qqizinchi asrning oxiri va yigirmanchi asr boshlarida o'zbek ma'rifatparvarlarining say-harakatlari tufayli ko'plab vatandosh mutafakkirlarning asarlari Turkiyadagi nashriyotlarda chop qilindi. Jumladan, Siddiq Xoja Xo'jandiy ehtimomi bilan Istambuldagi Mahmudbey nashriyotida Yassaviy, Navoiy, Mashrab kabi shoirlarning devon va manoqiblari qatori Huvaydo devoni ham chop qildirilgan. Bu kitoblar Turkistondagi tolibi ilmlar uchun mo'ljallangan bo'lib,

ularning aksariyati Markaziy Osiyoga olib kelingan.²⁹⁴ Faqat ayrim nusxalargina yevropalik sharqshunoslarga sovg'a qilingan yoki kitob bozorida sotilgan.

Buyurtmachilar yoki kitobxonlarning istagi va imkoniga qarab, devonlar hajmi turlicha bo'lgan. Huvaydo devonining Istambul nashrida kitob muqovasiga arab imlosida fors tilida "Og'oyi Huvaydo Chimyoniy" deb yozilgan. Kitobning birinchi sahifasiga "In kitobi mustatab ba ijozati noziri maorifi ulumi sultoni jahon" yozuvlari bitilgan. Devonga jami 200 ta g'azal tanlab olingan. Shulardan 198 tasi Huvaydo qalamiga mansub. 199- va 200-g'azallar Huvaydo ijodidan emas. Ular maqtasiga ko'ra, Navoiy qalamiga mansub. 199-g'azal 8 baytdan iborat. Ulardan 5 bayti maxsus qofiyalangan qisqa vaznlidir. 8-bayt matla bilan qofiyalangan. 200-g'azal esa 7 baytdan iborat, uning 4 bayti maxsus qofiyalangan. Ammo Xartmann: "Men bu g'azallarni o'zimdagi Navoiy qo'lyozma devonidan topmadim"²⁹⁵, – deb yozadi.

Umuman, xorijiy mamlakatlarda nashr qilingan turkiy tildagi devon va bayozlarda turli kamchilik va xatolar ko'p uchraydi. Ushbu ish maxsus tadqiqot olib borishni talab qiladi.

Shu o'rinda mumtoz adabiyotimiz vakillarining xorijda chop qilingan asarlariga oid bir mulohazaga e'tiborimizni qaratdik. Adabiyotshunos olim Nodirxon Hasan "Devoni hikmat"ning Istambulda saqlanayotgan bir nusxasi haqida" deb nomlangan maqolasida Ahmad Yassaviyning 1887-yilda Turkiyada nashr qilingan devoni haqida yozib, shunday xulosaga keladi: "Devoni hikmat" nusxalarida ayni vaqtda ham Ahmad Yassaviy, ham izdoshlariga oid bir xil hikmatlar uchraydiki, ularni qiyosiy aspektda o'rganib, mualliflarini aniqlash zarur. Shuningdek,..."Devoni hikmat"ning nafaqat Istambul nusxasini, xorijdagi boshqa nusxalari ham O'zbekistondagi mo'tabar nusxalar bilan muqoyasa etilgan holda

²⁹⁴ Гаврилов М.Ф. Гаврилов М.Ф. Среднеский поэти и суфий Хувайдо. –Ташкент: Каргиз, 1927. –67 стр. Ignaz KUDOS. Suleiman Efendi's caghataisch-osmanische Worterbuch. - Budapest, 1905.

Hartmann M. Der weisse Narr und fromme Ketzer // Der islamische Orient. - Berlin, 1902.-S. 145

²⁹⁵ Hartmann M. Der caghataische Divan Huweda's. // Westasiatische Studien. - Berlin, 1902. V. - S. 135.

o'rganilmog'i maqsadga muvofiqdir...²⁹⁶ Olimning bu mulohazalari o'z vaqtida Martin Xartmann tomonidan ham ko'p bora bildirilgan.

Nemis olimlari, odatda, yangi asarni so'zboshi bilan boshlab, unda muallif haqida batafsil ma'lumot beradilar. Bunday so'zboshilar asarning hajmiga muvofiq ravishda bir betdan to o'n sahifagacha bo'lishi mumkin. Xartmanning 46 sahifadan iborat bo'lgan "Huvaydoning chig'atoycha devoni" nomli maqolasining dastlabki 4 sahifasi muqaddimadan iborat bo'lib, unda Huvaydo hayoti va ijodiy faoliyati muxtasar yoritilgan. Asosiy qismda she'rlarning arab imlosidagi asl matni bilan yonma-yon nemischa tarjimasi berilgan. Tarjima matnining izohlar qismida yevropaliklarga tushunarsiz bo'lgan so'z va iboralar, diniy va milliy tushunchalar, jo'g'rofiy va tarixiy nomlar, islom dunyosidagi ko'plab allomalarning hayoti va faoliyatiga oid qaydlar, tarixiy sanalar sharhlangan. Bunda, ayniqsa, Qur'on suralari, Hadis yoki boshqa diniy asarlardan olingan hikmat, rivoyat va hikoyatlarga ishora qiluvchi so'z va iboralar sharhiga alohida e'tibor berilgan. Shuningdek, shia mazhabi tarafdorlari uchun muqaddas bo'lgan Karbalo dashti, Yazd shahidlari, Husayn avlodlari kabi tushunchalarga keng sharhlar berilgan. Turkiston ahli sunniylar bo'lsalar-da, lekin ular uchun Imom Hasan va Imom Husayn qadrli ekani, Karbalo voqealari ko'plab turkistonlik adiblarning asarlarida qiziqarli lavhalarda ifodalangani uqtiriladi. Eron va Iroq mamlakatlari hududidagi shia mazhabi uchun muqaddas sanalgan atributlarning Huvaydo va boshqa shoirlar ijodida uchrashi Martin Xartmanni o'ylantirib qo'ydi. Hamma sohada "botartib"likni istagan nemislar vakili diniy munosabatlar sohasida ham aniqlikni qidirdi. Xartmann Huvaydo, Mashrab va boshqa ko'plab o'zbek mumtoz adiblari ijodida keng istifoda etilgan bu istilohlar islomiy adabiyot uchun majoziylik kasb etishini tushunmagan ko'rinadi. Karbalo voqealari va ularning majoziy ma'nolari o'zbek adabiyotida keng tasvirlangan.²⁹⁷

²⁹⁶ Нодирхон Ҳасан. "Девони ҳикмат"нинг Истамбулда сақланаётган бир нусхаси ҳақида. // Ўзбек тили ва адабиёти. № 4. 2010. — Б. 21.

²⁹⁷ Азимова Л. Карбало воқеасига бағишланган халқ китоблари.// Ўзбек тили ва адабиёти. —Тошкент, №3. 2010. —Б. 37-42.

Nosehning guvohlik berishicha, Huvaydo doimo shariat hukmlariga bo'ysunub, unga jonu dili bilan amal qilar, yo'lda uchragan har bir mo'min-musulmonga xuddi Xizr va Ilyos alayhissalomni ko'rgandek iltifot ko'rsatar va ularni do'st tutardi. Har kuni saharlarda Xudoga yolborib, Undan maqsadiga yetish yo'lini oson qilishini so'rar, himmat otiga minib, shayton lashkarlari bilan jang qilar di. U doimo Ollohning roziligini tilab, xuddi Ibrohim Adham singari oz-u ko'pga parvo qilmas, shogirdlari bilan suhbat ko'rar, fikr-u yodi dabiston (maktab)da ilm toliblariga ilm berish edi.²⁹⁸

50-60 yosh inson hayotiy tajribalarini sarhisob qilib, o'tgan umrni taftish etish, hayotda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklardan tavba qilib, ma'naviy komillik mezonlarini belgilash davri hisoblanadi. Insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirgan ulug' mutafakkirlarning aksariyati ana shu yoshda o'z hayotiga tanqidiy baho berganlar, ma'naviy ganj izlash, o'zingdan yaxshi nom qoldirish uchun ezgu va savobli ishlar qilishga ahd qilganlar. Ana shu ibratli qismat hazrat Huvaydoni ham chetlab o'tmagan:

Huvaydo, san yashab ellik, netay bir qilmading toat,

*Safar zodini qilg'il, emdi ayyomi tarab ketti.*²⁹⁹

Donishmandlar keksalikni inson umrining qish fasliga o'xshatadilar. Tabiatda har bir faslning o'z ziynati, gashti va fayzi bo'lgani singari keksalik ham, Xojamnazar Huvaydoning tavsificha, ezgu va xayrli ishlarni nihoyasiga yetkazish uchun Olloh tomonidan beriladigan imkoniyatdir.

Huvaydo o'z zamondoshlarini g'aflatdan xalos bo'lishga va savobli ishlar qilishga undadi:

Yigitlik o'tti ayyomi, qarilik xuftani keldi,

*Hanuz yotarmusan g'ofil, ko'p emdi, subhidam bo'ldi.*³⁰⁰

²⁹⁸ Носех Чимёний. Тарихи вафоти ҳазрат Эшон Хувайдо “наввароллоху таоло маркадаху маржаху” - Хожаназар Хувайдо. Девон (табдил қилувчи, нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифлари И.Абдуллаев, К.Рўзматзода. Масъул муҳаррир: проф. Исмаиullo Абдуллаев.) – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 267-268.

²⁹⁹ Носех Чимёний. Тарихи вафоти ҳазрат Эшон Хувайдо “наввароллоху таоло маркадаху маржаху” - Хожаназар Хувайдо. Девон (табдил қилувчи, нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифлари И.Абдуллаев, К.Рўзматзода. Масъул муҳаррир: проф. Исмаиullo Абдуллаев.) – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 169-195-227-231.

Xojamnazar Xuvaydo butun hayoti va faoliyati davomida islom ta'limoti va tasavvuf g'oyalarini targ'ib etishga, zamona muammolarini oqilona hal etish uchun diniy ilm va ma'rifatni ravnaq toptirishga, naqshbandiya g'oyalarini zamondoshlari o'rtasida keng targ'ib etishga, o'zi bu borada boshqalarga ibrat bo'lishga intildi. O'zi hunarmandchilik, dehqonchilik va maktabdorlik bilan mashg'ul bo'ldi, kamtarona hayot kechirdi. Noseh Chimyoniy ustози Xojamnazar Huvaydoning xos fazilatlarini, ibratli xislatlarini tasvirlar ekan, saharlar turib, Ollohga yolborib iltijo qilganligini, jo'mardlikda xuddi Ibrohim Adham singari mol-u dunyoga nazar solmay yashaganligini, hamisha shogirdlari, hamsuhbatlari ko'nglini shod qilganligini alohida ta'kidlagan edi:

Mujarradlikda erdi misli Adham,

Na parvoyi kam erdi, na ziyodi.

Xojamnazar Huvaydoning avlodlari mustabid tuzum zug'umi ostida O'rta Osiyoning turli mamlakat, shahar va qishloqlariga tariqdek sochilib ketdilar. Ularning avlodlari O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston Respublikalarining turli tuman va qishloqlarida istiqomat qilib, buyuk bobolariga munosib voris bo'lishga intilib kelmoqdalar. Taniqli olim Xoji Ismatulloh Abdullohning yozishicha, namanganlik Mullo Yo'ldosh Xilvatiy (1858–1922) ona tomonidan o'zini Huvaydoning evarasi, deb ko'rsatgan:

Xolmuhammad eshon bobom muhrlari:

El tilida Xojanazardur otlari,

Xojama manzurligim nisbatim.

Xodiyi din Xolmuhammad avra'i sohib adab,

Validim Xojanazar budu Huvaydosi laqab³⁰¹.

Xojamnazar Huvaydoning surxondaryolik avlodlaridan biri bo'lgan Akbarjon Fozilovning yozishicha, Huvaydoning surxondaryolik chevarasi Foziliddin Maxsum (1894-1961), uning o'g'li Ne'matjon Maxsum (1935-2000) va

³⁰⁰ Носех Чимёний. Тарихи вафоти ҳазрат Эшон Хувайдо “наввароллоху таоло маркадаху маржаху” - Хожаназар Хувайдо. Девон (табдил қилувчи, нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифлари И.Абдуллаев, К.Рўзматзода. Масъул муҳаррир: проф. Исматулло Абдуллаев.) – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 267-228.

³⁰¹ Мулло Йўлдош Хилватий. Девон. – Тошкент: Фан. –Б. 21.

qizi Sojida Bibi (1938-yili tugʻilgan) ilm-maʼrifatli kishilar boʻlib, badiiy ijod bilan shugʻullanganlar va buyuk bobolari anʼanalarini davom ettirishga intilganlar³⁰².

Xojamnazar Huvaydoning tasavvufiy qarashlarining shakllanishida, shubhasiz, jamiyat hayotida roʻy bergan muhim oʻzgarishlar, ijtimoiy-siyosiy, maʼnaviy-axloqiy tanazzul asoratlari, bir tomondan, zulm va adolatsizliklar, toj-taxt urushlarining avj olishi, ikkinchi tomondan, jamiyat taqdiri uchun masʼul boʻlgan ilm-maʼrifat ahllarining mol-u dunyoga hirs qoʻyishi, odamlar oʻrtasida riyokorlik, yolgʻonchilik, tamagirlik, manmanlik, kibr, hasadgoʻylik singari illatlarning kuchayishi, uchinchidan, jaholatga qarshi jaholat bilan kurashishning ayanchli oqibatlari kuchli taʼsir koʻrsatgan.

Xojamnazar Huvaydo shaxsining shakllanishi XVIII asrda Sharq xalqlari, jumladan, Oʻrta Osiyo xalqlari maʼnaviy hyotida qadriyatlar tizimining oʻzgarishi, jahonda roʻy berayotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy oʻzgarishlarning asta-sekin Turkistonga kirib kelishi, diniy eʼtiqodning kuchsizlanishi, zulm va adolatsizliklarning avj olishi davriga toʻgʻri keldi.

Xojamnazar Huvaydo isteʼdodli mutasavvif shoir, ijodkor mutafakkir, din arbobi, avom xalqning rahnamosi sifatida jamiyat va xalq manfaatlarini muqaddas deb biladigan, Haq va xalqqa sadoqatli komil inson shaxsini shakllantirish uchun haqparast emas, balki dunyoparast boʻlib borayotgan jamiyatning yuqori qatlami – ahli xoslar (mullolar, xojalar, mansabdorlar) oʻrtasida Ollohning yoʻlida toj-u taxtidan voz kechgan va darveshlik yoʻlini tanlagan Ibrohim Adham singari zohid-soʻfiylar himmati va mardligini ibrat qilib koʻrsatdi; oddiy avom oʻrtasida esa islom dini gʻoyalarini keng targʻib etishga intildi. Oʻzi yashab turgan davr xususiyatlaridan kelib chiqib, ayni bir vaqtda ham diniy, ham tasavvufiy gʻoyalarni rivojlantirishga, tasavvufning malomatiya, qodiriya, kubroviya singari tariqatlari gʻoyalarini uygʻunlashtirishga, ilohiy ishqni ulugʻlashga, bu dunyodagi xayrli, savobli amallar uchun narigi dunyoda beriladigan mukofotlar evaziga bu dunyo muammolarini oqilona hal etishga umid bogʻladi.

³⁰² Фазилов А. Хувайдонинг сурхондарёлик авлодлари. – Термиз: Насаф, 2004. –Б. 17-21.

Xojamnazar Huvaydo Bahouddin Naqshband g'oyalaridan ilhomlandi, butun faoliyati davomida naqshbandiya g'oyalarini odamlar o'rtasida keng targ'ib etishga intildi. Zamondoshlarini halol mehnat, pok niyat bilan yashashga, qalb (jon uyi)ni poklashga, Rasululloh sunnatlariga amal qilishga, aqlli, donishmand va bilimdon bo'lishga undadi. Ilmsizlik, nodonlik va jaholatni barcha kulfat va baxtsizliklarning bosh sababchisi deb bildi. O'zi uchun Ibrohim Adhamni ideal shaxs deb bildi. U kabi mard, oliyhimmat, faqir, kamtarin, halol bo'lishni orzu qildi.

Xojamnazar Huvaydoning hayoti, ijodiy faoliyati, tasavvufiy qarashlariga oid ma'lumotlarni uning devoniga kiritilgan g'azallaridan, "Rohati dil", "Ibrohim Adham" qissalaridan olishimiz mumkin. Zero, mashhur nemis olimi Zigmund Freydning ruhiy tahlil nazariyasiga ko'ra, har bir ijodkorning asarlarida uning boshqalardan sir saqlaydigan istak, mayl, orzu, umid va maqsadlari o'z ifodasini topadi.

Xojamnazar Huvaydo yashagan davrning naqadar og'ir, uqubatli ekanligi shoirning quyidagi misralarida o'z ifodasini topdi:

Qayu kun keldim jahonda bo'lmadim shod, ey ko'ngul,

*Bo'lmadim zindoni g'amdin hargiz ozod, ey ko'ngul.*³⁰³

Shoir bu misralarni, shubhasiz, yoshi ulg'ayib, ilm-ma'rifatda kamolga erishgan davrida qayd etar ekan, ilmsizlik, jaholat, zulm va adolatsizlik, mol-u dunyoga hirs qo'yish odatiy holga aylangan uqubatli damlarda o'z dardini, ruhiy iztirob va kechinmalarini tushuna oladigan sadoqatli do'st topa olmaganligini bayon etadi:

Yurogim g'ussaga to'ldi, kishim yo'q aytgali holim,

Netay, dard aytgudek bir dardmand odam topolmasman.

Musibatxonadur dunyo, nechuk odam bo'lur beg'am,

*O'zimni, ey Huvaydo, lahzaye beg'am topolmasman*³⁰⁴

³⁰³ Хожамназар Ҳувайдо. Девон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 84.

³⁰⁴ Хожаназар Ҳувайдо. Девон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 147.

Xojamnazar Huvaydo asarlarida Xizr va Ilyos (ham payg‘ambar, ham avliyo)ning nomi ko‘p uchraydi. Boisi uning Xizrdan ilohiy fayz va tasavvuf ilmini olganligida, uning ruhini tarbiya qilganligida edi.

Xojamnazar Huvaydo chindan ham valiylik darajasiga erishgan, ammo valiylik da’vosini qilmagan, o‘zini karomat sohibi deb emas, balki devona deb atagan, xoksorlik va faqirlik taxtini Sulaymon taxtidan afzal deb bilgan ulug‘ so‘fiy edi. U o‘zini odamlarga pand-nasihat qiluvchi emas, balki nasihatga, avvalo, o‘zi amal qiladigan, xulq-atvori bilan boshqalarga namuna bo‘ladigan, doimo qilgan gunohlaridan afsus-nadomat chekuvchi inson deb bildi.

Xojamnazar Huvaydoning ta’kidlashicha, nafs, orzu-havas, ahli avlod va dunyoga mehr bor ekan, inson gunohsiz yashay olmaydi. Gunohlarning ajri esa nadomat va tavba qilishdir. Ilmi qol (shariat ilmi) va ilmi hol (tasavvuf ilmi)ni chuqur egallagan Xojamnazar Huvaydoning Olloh rizoligi yo‘lida sidqidildan qiladigan toat va ibodatlaridan qoniqmasligining boisi ham shunda edi.

Xojamnazar Huvaydoning yozishicha, may ichishni man etadigan va mayni harom deb hisoblaydigan zohid mullolar nohaqdir:

*Mani yig‘lagonimg‘a “yor” deb, ayb etma, ey zohid,
Aromizda sanam birla ulum otlig‘ hijobim bor.
Bihisht-u hur-u g‘ilmon-u du olamni unutkaysan,
Ayo zohid, mani mun‘amni qilma, may xarom ermas,
Riyo-u taqvodin bir kosa mayda ko‘p savobim bor.
Huvaydoni may ichmakdin nasihat qilma, ey zohid,
Qachon bir kosa maydin, to tirikman, ijtinobim bor³⁰⁵.*

Xojamnazar Huvaydo o‘z ijodiy faoliyatida tasavvuf she’riyatining “may”, “boda”, “soqiy” (“may quyuvchi”) singari majoziy obrazlaridan mohirona foydalandi. Mutasavvif shoirlarning asarlaridagi “may” – “vahdat mayi” bo‘lib, Ollohning nomini zikr qilish, uning muqaddas nomi bilan sarmast bo‘lib yurish va shu orqali Ollohning vasliga yetishish, fano va baqo maqomlariga musharraf bo‘lish timsolidir. Tasavvuf she’riyatidagi may xuddi shu ma’noda tushunilishi va

³⁰⁵ Хожамназар Ҳувайдо. Девон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 83.

talqin etilishi lozim. Navoiy, Mashrab va Huvaydo singari buyuk mutasavvif shoirlar shariat harom qilgan may (sharob)ni hech qachon ichmaganlar.

Xojamnazar Huvaydo gʻazallari badiiy jihatdan gʻoyat pishiq va puxta boʻlib, ularda turli badiiy vosita, soʻz oʻyinlari, arab harflari yordamida turli majoziy obrazlar yaratish, sheʼrlarida Qurʼon oyatlari va Hadis hikmatlaridan mohirona foydalanish yaqqol koʻzga tashlanib turadi. Shoirning arab, fors va oʻzbek adabiy tilini qanchalar yaxshi va mukammal bilganligi uning badiiy mahoratida oʻz ifodasini topdi.

Naqshband taʼkidlaganidek, “Bu yoʻldan yuruvchilarda oʻzgalarning gunohini ham oʻzlaridan deb bilish hollari koʻp boʻladi”.

XVIII asrda, maʼnaviy-axloqiy parokandalik, ijtimoiy-siyosiy tanazzul kuchaygan bir davrda Xojamnazar Huvaydo zamondoshlariga xos gunoh va kamchiliklarni oʻzining shaxsiy gunohlari sifatida fosh etdi:

Huvaydoni yomon deb hukm qilsanglar munosibdir,

*El ichra belgulik ori yomonlardan yomon qulman*³⁰⁶.

“Naqshbandiya tariqatining eng asosiy tarbiya usuli – suhbat, Naqshbandiylar, suhbatning foydasi koʻp, suhbat orqali inson qalbiga kirib borish mumkin, deb hisoblashgan. Bahouddin Naqshbandning taʼlim berishicha, xilvatda shuhrat bor: xilvatga chekingan odam eldan ajraladi, soʻfiylikni elga oshkor qiladi. Shunday qilib, u shuhrat qozonadi. Shuhrat qozonilgan yerda esa ofat bor. Jamʼiyat, yaʼni koʻpchilik ichida yaxshilik va baraka bor. Jamiyat esa suhbat orqali paydo qilinadi”. Bahouddin Naqshband tasavvufda ilgari mavjud boʻlgan qattiq talablarni bir qadar yumshatdi, moʻtadillashtirdi, kundalik turmushga moslashtirdi. Uningcha, Ollohga intilish qalb amri bilan amalga oshishi kerak. Qul esa foydali mehnat bilan band boʻlaversin. Bu – tarkidunyochilik qilmay, dunyo ishlaridan ochiq-oshkor qoʻl silkimay turib ham Ollohga yetishish mumkinligining asoslanishi edi. Ana shu gʻoyaning musulmon olamida mashhur boʻlishi tasavvufning juda keng aholi qatlamlari orasiga kirib borishini taʼminladi.

³⁰⁶ Хожамназар Хувайдо. Девон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 92

Naqshbandiya ta'limotida avliyo va payg'ambarlarning o'zaro munosabati masalasi alohida o'rin tutdi. Bahouddin Naqshbandning ta'lim berishicha, "Nubuvvatning botini bo'lmish valoyatning haqiqati – xalqqa tasarruf qilishdir, darhaqiqat, valiy payg'ambar tasarrufining mazhar joyidir", ya'ni avliyolik payg'ambarlikning botiniy tomoni bo'lib, uning haqiqati xalqni boshqarish, uni o'z tasarrufiga olishdir. Avliyolarga xalq yukini ko'tartirishdan ko'zlangan maqsad ularning xulqini tozalashdir. Buning uchun xalq avliyo dilini topishga intilishi lozim. Avliyo dilini topa olgan kishiga Ilohiy fayz nasib etadi.

Naqshbandiya ta'limotida muridning Ollohga, Rasulullohga va murshidga bo'lgan odobi masalasi muhim o'rin egalladi. "Tariqat yo'li odobdan iborat bo'lib, har bir hol va maqomning o'z odobi bor. Adab-xulqni chiroyli qilish, so'z va fe'l-atvorni tuzatishdir. Darvishning Haq subxonahuga bo'lgan adabi shundaki, uning farmonlarini zohirda va botinda bandalik bilan to'la ado etadi. Payg'ambarga bo'lgan adabi shundayki, o'zini "fittabi'uni" ("menga itoat qilinglar") maqomiga to'liq olib kiradi.

Murshidga bo'lgan adabning zarurligi shundaki, ular sunnatga to'la amal qilish orqali Olloh taologa yetishganlar".

Naqshbandiya ta'limoti va amaliyotining samarasi o'z zamonasining komil inson shaxsini kamol toptirish, odamlar mushkulini osonlashtirish, kambag'allarga yordam berish, Rasulullohning sunnatlarini to'la amalga oshirish va avomga ibrat bo'lish edi. Bahouddin Naqshband o'z ilmi va ta'limotiga, Rasululloh sunnatlariga to'la amal qilgan avliyo, komil inson edi.

Xoja Alouddin Attor piri Bahouddin Naqshbandning shaxsi va hayot tarzi haqida shunday ma'lumot beradi: Bahouddin Naqshbandning "uylarida mol-mulki yo'q edi. G'ariblardek yashardilar. Masjidlarida qishda xashak bo'lardi, yozda bo'yra. Singan ko'zalari bor edi. U zotda xizmatkor bo'lmagan. "Nega xizmatkor yollamaysiz? – deb so'raganlarida, – Qullik xojalik bilan mos kelmaydi", – deb javob berdilar. Ularning hazin va g'amginliklarining nihoyati yo'q edi. Ularning botin holatlari tamoman zikrga aylangan edi. Mana bu ikki bayt ulardan:

Na boylik bor, na boylardan kamimiz bor,

*Yo 'qchilik kasratidan na g'amimiz bor.
Yelkamizni janda yopgan, xona – go'riston,
Ajal yetib qazo kelsa, na motamimiz bor*³⁰⁷.

Ularning yaxshi xulq va tavozelarining chegarasi yo'q edi. Agar biror do'st yoki darvishning uyiga borib qolsalar, ularning barcha farzandlari va yaqinlarining hamda xizmatkorlarining ahvolini so'rar va har birining ko'nglini bir yo'l bilan topar edi. Goho-goho uzri xizmat aytib, ko'ngil ovlardilar. Do'st hamsoyalar va darvish oshnolardan hamisha rozi va xushnud bo'lardilar. Ularning bu lutfi har bir kishiga to'g'ri yo'l uchun dalolat qiluvchi edi.

Huvaydo g'azallaridagi bu tashbehlar islomning bir butunligini isbotlovchi lavhalardir. Shoirning bu fikrlari islomdagi sunniy va shia mazhabidagi munozaralarni ataylab bo'rttirib ko'rsatish orqali islom dunyosini parchalash niyatlariga qarshi zarbadir.

Bob bo'yicha xulosalar

1. So'fiy allomaning axloqiy-didaktik va irfoniy asarlarida ilgari surgan umuminsoniy g'oyalar bugungi Mustaqillik davrida yetuk inson tarbiyasida o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Zamonasining so'fiy allomasi, mutasavvif shoiri bo'lib shuhrat qozongan, xalq xizmatiga sazovor bo'lgan, eshon Huvaydo nafaqat Farg'ona vodiysi, balki turkiyzabon xalqlar orasida mashhur bo'lgan va XVIII asr o'zbek adabiyoti ravnaqiga ulkan ta'sir ko'rsatgan.

2. Xojamnazar Huvaydoning ijodiy faoliyati g'oyaviy-badiiy jihatdan nihoyatda keng qamrovli va umumbashariyligi bilan ajralib turadi: uning asarlaridan osiy (gunohkor) va gumroh (yo'ldan adashganlar) ham, orif va oshiqalar ham, fozil va komil insonlar ham, turli maqom va saviyadagi shoh-u gadolar ham bahra olishi va o'zlarini qiynagan muammolarga javob olishlari, o'z ichki olamini kuzatishlari mumkin edi. Uning ijodida hayot va o'lim masalalari, insoniy hayotning ma'nosi, o'zlikni anglash masalalari yetakchi o'rin egalladi.

³⁰⁷ Султонмурод Олим. Нақшбанд ва Навоий. –Тошкент: Ўқитувчи. 1996. –Б. 46.

3. Xojamnazar Huvaydoni tushunmoq, idrok etmoq, uning asarlariga singib ketgan umumbashariy g'oyalar mag'zini chaqmoq uchun jaholat sirtmoqlaridan xalos bo'lish, "jon uyi" (qalb)ni barham berish lozim edi. Zero, "Huvaydo" shoirning adabiy taxallusi bo'lib, "oshkor qilish", "namoyon etish", "ochiq", "ravshan" singari ma'nolarni anglatadi. O'zlikni anglamay turib, insoniy mohiyatni anglash o'zlikni anglashdan, Allohni tanishdan boshlanadi.

4. Xojamnazar Huvaydo o'ziga yaqin zamondosh bo'lgan Boborahim Mashrab va So'fi Olloyorning barcha ijobiy yutuqlarini izchil davom ettirib, ilm ahllari, so'fiylar uchun she'riy devon tuzdi. Xojamnazar Huvaydo she'rlariga Qur'on oyatlari, Hadis ma'nolari va o'zining tasavvufiy qarashlarini singirdi.

XULOSA

1. Xojamnazar Huvaydo yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy va adabiy muhiti va madaniy-ma'naviy hayotida o'zini Bobur avlodi deb hisoblagan Qo'qonning birinchi xoni Shohruhbiyning xonlik sarhadlarini kengaytirish uchun olib borgan harbiy yurishlari, ko'pgina sayyid va xojalarning ma'naviy-axloqiy tubanlashuvi, ilmsiz, soha shayxlarning mol-dunyoga ruju qo'yishlari ustuvorlik qilgan, ishda so'fiy shoir Huvaydoning ayni tubanlashuvga qarshi asarlari bilan javob berishi tahlilga tortilgan.

2. Movarounnahr ma'naviy hayotining o'ziga xos xususiyatlari davr salaflar ijodiyotini davomiyligini ta'minlashga bo'lgan intilishda, shoirga zamondosh bo'lgan Mashrab, So'fi Olloyor, Turdi Farog'iy, Mirzo Abdulqodir Bedil, Yusuf Qorabog'iy kabi mutasavvif, so'fiy allomalar ijodidan ilhomlanganida, ijodkorning badiiyatida ma'naviy yuksak durdona asarlar yaratishga bo'lgan harakatda ko'zga tashlanadi.

3. XVIII asr tasavvuf adabiyotining ulkan namoyandasi bo'lgan Huvaydo Chimyonda tug'ilib, 72 yil umr ko'rgan, ulug' zotning otasi Sharqiy Turkistonda mashhur bo'lgan Ofoqxojaning va u kishining o'g'li Yusufxojaning muridi sifatida Farg'ona vodiysidagi xalifalaridan biri bo'lgan. Ofoqxojaning nazari bilan

Huvaydoga Xojamnazar ismi qo'yilgan. Asli o'shlik bo'lgan bu oila Chimyon qishlog'iga kelib, madrasa, xonaqo ochgan, mudarris bo'lib, xalqning islomiy savodini chiqargan. G'azallar, "Rohati dil", "Ibrohim Adham" kabi dostonlar yaratgan.

4. Huvaydo asarlarida naqshbandiya tasavvufiy g'oyalarining aks etishi, inson halol yashab, qalbni Alloh bilan, qo'lni mehnat bilan bog'lashda, jamiyat va xalqqa xizmat qilishda, ummiy (avom) o'rtasida islom dini ta'limotlarini, Hadis – hikmatlarini, shariat ahkomlarini sodda, tushunarli tilda bayon etishda kuzatamiz, shuningdek, Yassaviy, Naqshband, Xoja Ahror, Maxdumi A'zam, Ofoqxoja tasavvufiy g'oyalarini xalq ko'zini ochish, ularni dunyoni bilishga chorlash vazifasi izohlanadi.

5. Huvaydo she'riyatida tasavvufiy fikrlar talqinidagi ustuvorlik uning butun iste'dodini islomiy qadriyatlarni saqlab qolish, rivojlantirish, komil insonni shakllantirishning o'ziga xos konsepsiyasini hayotga tatbiq etish bilan izohlanadi.

6. Shoirning har ikkala tasavvufiy ruhda yozilgan dostonlarida ilohiy va insoniy ishq, umumbashariy va foniy-o'tkinchi dunyo ne'matlaridan voz kechish, boqiy – abadiy dunyo va Alloh vasli umidi, odamlar xudo nomidan emas, odil shoh Ibrohim Adham nomi bilan dalil keltirayotganlari, Ibrohim Adhamni toj-taxtdan voz kechishga undagani va gunohini yuvish uchun Alloh uyi Ka'baga borib, Yaratganga istig'for aytib, tavba qilishi yetakchilik qilgan.

7. Shoir merosidagi axloqiy-tarbiyaviy qarashlar so'fiy allomaning axloqiy-didaktik, irfoniy asarlarida ilgari surilgan badiiy qadriyat va umuminsoniy g'oyalar talqinida o'z ifodasini topgan. Ular hozir ham komil inson tarbiyasida o'ziga xos xususiyat kasb etadi.

8. Huvaydo merosida barkamol avlod haqidagi tasavvufiy tushunchalar tahlilida irfon – tushunmoq, idrok etmoq, anglash, his qilish, uning asarlari mag'ziga singib ketgan umumbashariy g'oyalardan, shuningdek, "oshkor qilish", "namoyon etish", "ochiq", "ravshan" singari ma'nolar orqali jamiyatga o'zligini anglatish, Allohni tanitish kabi g'oyalar ustuvorlik qilganligi dalillandi.

9. Xojamnazar Huvaydo odamlarni ma'naviy ma'rifat izlashga chaqirdi, ilm jamiyat va insonni ma'naviy qoloqlik, zulm va istibdoddan xalos etishi mumkinligini asarlarida targ'ib etdi.

10. Huvaydo asarlaridagi tasavvufiy xususiyatlar orqali soxta tariqatchilik, diniy aqidaparastlik singari illatlarga qarshi kurashish va sun'iy tariqatlarning shakllanishiga doir asarlari bilan javob berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон “2022-2026-йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони.// <https://lex.uz/docs/5841063>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги ПҚ-2909-сон “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги қарори.// <https://lex.uz/ru/docs/3171590>
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24 майдаги ПҚ-2995-сон “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.// <https://lex.uz/docs/3211987>
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 19 октябрдаги ПҚ-4865-сон “Буюк шоир ва мутафаккир Алишер Навоий таваллудининг 580 йиллигини нишонлаш тўғрисида”ги қарори.// <https://lex.uz/docs/5054929>
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг “Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари” мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига йўллаган табриги.// Халқ сўзи, 2018 йил, 8 август.
6. Mirziyoyev Sh.M. Tinchlik, ma’rifat va bunyodkorlik yo’lida hamkorlik. // Xalq so’zi, 2016-yil, 19-oktabr.
7. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: O‘zbekiston, 2017. –450 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk allomalar, adib va mutasavviflarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori // Xalq so‘zi, 2018-yil, 15-may.
9. Mirziyoyev Sh.M. Xalqchil islohotlar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi. – Toshkent: O‘zbekiston. 7 tom. 2023. – 45 b.

Ilmiy-nazariy adabiyotlar

Milliy nashrlar

10. Абдуллаев В.А. Ўзбек адабиёти тарихи. Иккинчи китоб, – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. –350 б.
11. Абдуллаев В.А. Хувайдо. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 3-жилд, - Тошкент: Фан, 1978.
12. Абулғозий. Шажараи турк. –Тошкент: Чўлпон, 1992. –250 б.
13. Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. –Тошкент: Фан, 2006. –240 б.
14. Алишер Навоий. Асарлар. 15 томлик. Ўн бешинчи том. –Тошкент: Гафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1968. –517 б.
15. Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. –Тошкент: Ўқитувчи, 1994. –356 б.
16. Буюк сиймолар, алломалар. –Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1997. – 350 б.
17. Жалолов Т. Бону. –Тошкент: Ёш гвардия, 1961.
18. Жумахўжа Н. Хувайдо меросининг маънавий-маърифий моҳияти. – Тошкент: Маънавият маркази, 1995. – 247 б.
19. Зоҳидов В. Ҳаётбахш бадиият тароналари. –Тошкент: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. –459 б.
20. Зоҳидов В. Ўзбек адабиёти, кўп томлик, учинчи том. –Тошкент: ЎзССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1959. – 799 б.
21. Каримов Ғ., Долимов С., Ашрапов А. Ўзбек адабиёти (Ўрта махсус билим юртлари учун дарслик), –Тошкент: Ўқитувчи, 1972. – 325 б.
22. Кароматов Ҳ. Қуръон ва ўзбек адабиёти. –Тошкент: Фан. 1993. – 86 б.
23. Исҳоқов Ё. Нақшбандия ва ўзбек адабиёти. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2002. – 120 б.
24. Исҳоқхон Жунайдуллахон Иброт. Фарғона тарихи. –Тошкент: Камалак, 1991. – 350 б.

25. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. III том. XVI асрдан XVIII асрнинг 70-йилларигача. –Тошкент: А.С.Пушкин номидаги тил ва адабиёт институти Алишер Навоий номидаги Самарқанд давлат университети, 1978. – 745 б.
26. Махмуд Аъсад Жўшон. Юнус Эмро ва тасаввуф. – Тошкент: Фан, 2001. – 60 б.
27. Мўминов И.М. Самарқанд тарихи. –Тошкент: Фан, 1971. – 325 б.
28. Муҳаммад Нуриллоҳ Сайдо ал-Жазарий. Ҳақиқатлар уруғи. – Тошкент: Истиқлол, 2003. – 58 б.
29. Назаров Қ. Билиш фалсафаси. –Тошкент: ЎЗМУ, 2005. – 455 б.
30. Носеҳ Чимёний. Тарихи вафоти ҳазрат Эшон Ҳувайдо “Наввароллоҳу таоло марқадаҳу маржааҳу”. – Хожамназар Ҳувайдо. Девон. Иккинчи нашр. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. – 303 б.
31. Norqulov N, Jo‘rayev U. O‘zbekiston tarixi. –Toshkent: Fan, 1998. – 240 b.
32. Нуриддинов М. Юсуф Қорабоғий ва Ўрта Осиёда XVI-XVII асрлардаги ижтимоий-фалсафий фикр. –Тошкент: Фан, 1991. – 72 б.
33. Орзибеков Р. Ўзбек адабиёти тарихи. XVII-XIX (ярми) асрлар. – Тошкент: Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2006. – 248 б.
34. Орзибеков Раҳмонкул. Адабий меросимиз сеҳри. –Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2006. – 343 б.
35. Рўзматзода Қодиркул. Хожамназар Ҳувайдонинг тасаввуфий қарашлари. Монография. –Тошкент: ZILOL BULOQ, 2019. –Б. 11.
36. Шамсутдинов Р. Ватан тарихи. –Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси, 2003. – 150 б.
37. Сагдуллаев А. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. – Тошкент: Академия, 2000. – 246 б.
38. Султонмурод Олим. Нақшбанд ва Навоий. –Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 345 б.

39. Тоджиходжаев М. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари Мартин Хартманн таржимаси ва талқинида. –Тошкент: Баёз, 2016. – 178 б.
40. Умар Форук Сайдо ал-Жазарий. Тасаввуф сирлари. –Тошкент: Ўқитувчи, 2001. – 80 б.
41. Усман Турар. Тасаввуф тарихи. – Тошкент: Истиқлол, 1999. – 180 б.
42. Фазилов А. Ҳувайдонинг сурхондарёлик авлодлари. – Термиз: Насаф, 2004. –68 б.
43. Ўткир Рашид. Уч шоира. –Тошкент: Камалак, 1995. – 120 б.
44. Қайюмов П. Тазкирайи Қайюмий. –Тошкент: ЎзРФА Қўлёзмалар институти таҳририй нашриёти, 1998. – 246 б.
45. Хайруллаев М. Ўрта Осиё халқлари ҳурфикрлиги тарихидан. –Тошкент: Фан, 1994. – 324 б.
46. Хожамназар Ҳувайдо. Девон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. – 320 б.
47. Худайбердиев А. Жизнь и творчество Ходжаназара Хувайдо.// Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2006. – 564 б.
48. Худоёрхонзода. Анжум ат-таворих (Тарих юлдузлари). – Тошкент: Фан ва технология, 2014. – 145 б.
49. Ҳомидий Ҳамиджон. Тасаввуф алломалари. –Тошкент: Шарқ, 1999. –350 б.
50. Ҳомидий Ҳомиджон. Кўҳна Шарқ дарғалари. –Тошкент: Шарқ, 1999, – 345 б.
51. Ҳошимхонов М. Машраби мўътабар ўзум. –Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 400 б.
52. Ҳошимхонов М. Машраби мўътабар ўзум. –Тошкент: Ноширлик ёғдуси, 2020. – 350 б.
53. Ҳошимов К., Нишонова С., Ҳасанов М. Р. Педагогика тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. –Б. 225.

Xorijiy nashrlar

54. Aleksandr Knish. Musulmon tasavvufi. –Toshkent: Fan ziyosi, 2022. – 444 b.

55. Аристотел. Поэтика. –Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
56. Бертелс Е.Э. Сўфизм ва тасаввуф адабиёти. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2005.
57. Брагинский И.С. Мирбадалова А.С. Хувайдо. История литератур народов Средней Азии в Казахстана, Изд – во Московского университета. 1960. –стр. 142.
58. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. –Л.: 1940.
59. Гаврилов М.Ф. Среднеский поэти и суфий Хувайдо. –Ташкент: Каргиз, 1927. –67 стр.
60. Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии. –Москва: Восточная литература, 1958. –стр 218.
61. Климович Л.И. Хрестоматия литературы народов ССР, –Москва, 1947. – стр. 327.
62. Slippery Paths: The Performange and Canonization of Turkic Literature and Uyghur Muqam Song in Islam and Modernity. (Folklore,Indiana University, 1998. Henry Glassie, chair).
63. Хартманн М. Хувайдонинг чиғатойча девони /немис тилида/. –Берлин, 1902. – 46 б.

Diniy manbalar, adabiyotlar

Qo‘lyozma va toshbosma manbalar

64. Абул Муҳсин Муҳаммад Боқир ибн Муҳаммад Али. Баҳоуддин Балогардон (Мақомоти ҳазрати хожа Нақшбанд (Таҳрир ҳайъати: А.Рустам ва бошқ. Форсийдан таржима, сўзбоши ва луғат муаллифи Маҳмуд Махдум Ҳасанхон Махдум ўғли. – Тошкент: Ёзувчи, 1993 . – 243 б.
65. Азизиддин Насафий. Зубдат ул-ҳақойиқ. (Ҳақиқатлар армуғони)/ форс тилидан Н.Комилов таржимаси. – Тошкент: Камалак, 1995. –176 б.
66. Баёзи Ҳазиний типолитография. –Тошкент, 1911. 3-варақ. Баёз. Қўлёзма, ЎзФАШИ. Инв. № 4184, 184-варақ.
67. Икромиддин Остонакул. Фарғоналик валийлар. –Тошкент: Мовароуннахр, 2001. – 256 б.

68. Тухфатул Обидин ва унсул ошиқин, баёз литография, 84-варақ.
69. Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити. –Тошкент, 1961. –41 б.
70. Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима (Алоуддин Мансур таржимаси). – Бишкек, 2001. – 768 б.

Badiiy adabiyotlar

71. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. –Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2022. –350 b.
72. Alisher Navoiy. Xamsa. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. –416 b.
73. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993. – 191 б.
74. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. –Тошкент: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – 528 b.
75. Жабборов Н. Аждодларимизнинг қўлёзма меросини тўплаш, илмий ўрганиш ва нашр этиш муаммолари. –Тошкент, Шарқ, 2001. – 68 б.
76. Жалилов Б. Диний-маърифий мавзуларнинг бадий адабиётдаги талқини. –Андижон: Андижон давлат университети, 2010. –108 б.
77. Жалолов Т. Гўзаллик оламида. –Тошкент: Фан, 1979. – 76 б.
78. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – 168 б.
79. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – 320 б.
80. Каримова Ф. Ўзбек адабиётида дебеча .– Тошкент: МУМТОЗ СЎЗ, 2008. – 168 б.
81. Маллаев.Н. Сўз санъатининг гултожи. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – 152 б.
82. Машраб. Девон. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 459 б.
83. Носиров О. Ўзбек адабиётида ғазал. –Тошкент:Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 134 б.
84. Мулло Йўлдош Хилватий. Девон. –Тошкент: Фан, 2001. – 432 б.

85. Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. – Тошкент: Фан, 1976. – 119 б.
86. Хожамназар Ҳувайдо. Девон. 2-нашри. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. – 350 б.
87. Хожамназар Ҳувайдо. Роҳати дил. Иброҳим Адҳам. –Тошкент: Наврўз, 2011. – 106 б.
88. Хўжаназар Ҳувайдо. Роҳати дил. –Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1994. – 86 б.
89. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Биринчи жилд. – Тошкент, 2000. – 1054 б.
90. Ҳамза. Шеърлар. 1-том, –Тошкент: Ўқитувчи, 1960. – 240 б.
91. Ҳаққулов И. Тасаввуф ва шеърят. –Тошкент:Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – 247 б.
92. Ҳаққулов И. Ирфон ва идрок. – Тошкент: Маънавият, 1998. – 180 б.
93. Ҳаққул И. Тасаввуф сабоқлари. –Бухоро: Зарчашма, 2000. – 85 б.
94. Ҳувайдо. Танланган шеърлар. –Тошкент: ЎзССР давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1961. – 99 б.
95. Ҳувайдо. Иброҳим Адҳам. –Тошкент: Ёзувчи, 1991. – 89 б.
96. Ҳувайдо. Кўнгил дарди. –Тошкент: МЕРИЮС, 2009. – 86 б.
97. Ҳувайдо. Роҳати дил. Иброҳим Адҳам. – Тошкент: Наврўз, 2011. – 86 б.
98. Ҳувайдо. Роҳати дил. Иброҳим Адҳам. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005.

Dissertatsiya va avtoreferatlar:

99. Исақова З. Ирфон ва унинг Шарқ тафаккури ривожигаги ўрни (X-XIII асрлар). Фалсафа фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати, Самарқанд, 2022. – Б.25.
100. Тоджиходжаев М.М. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари Мартин Хартманн таржимаси ва талқинида. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати –Наманган, 2021.

101. Рўзматзода Қ. Хожамназар Хувайдо диний-мистик қарашларининг XVII-XVIII асрлар Марказий Осиё тасаввуфи ривождаги ўрни. Фалсафа фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент, 2020.
102. Худайбердиев А. Жизнь и творчество Ходжаназара Хувайдо. Диссертация кандидатический филолог наук. –Тошкент, 1990.

Ilmiy to‘plam, jurnal va gazetalardagi maqolalar

103. Жўраев Ж. Хожамназар Хувайдо ва Ақилбек Сабал ўғли // Имом ал-Бухорий сабоқлари, 2004. – №1.
104. Нусратулло Атаулло ўғли Жумахўжа. Хувайдо тасаввуфий шеърларида фалсафий-бадий талқин. // –Тошкент: Шарқ юлдузи, 1998. № 4.
105. Соипов С. “Қиссаи Сайқалий” достони ҳақида. // Ўзбек тили ва адабиёти журнали, 2006 йил 6-сон.
106. Султонмурод Олим мутолаа қилади. // Тафаккур, 2009. № 1.
107. Умаров Э. Навоий лирикасида шоҳ ва гадо маъносидаги антонимларнинг қўлланиши. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1978. №1.
108. Усмон О. Шайх Нажмиддин Кубро ва кубравия тариқати. // Шайх Нажмиддин Кубро (Мақолалар). –Тошкент: Фан, 1995. – 258 б.
109. Шерали Т. Хувайдо ҳақида русча бир рисола.// Ўзбек тили ва адабиёти, 1978. №1.

Internet saytlari

110. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/xojanazar-huvaydo-gazallar-ruboiylar.html>
111. <https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-mumtoz-sheriyati/huvaydo/?ysclid=m47h09vacc154536898>
112. <https://ya.ru/video/preview/13998727069027148569>
113. <https://ya.ru/video/preview/16296602775732759341>